20. International Journal of Biological Macromolecules. – 2023–2024.
21. Egamberdiyev B. Hepatic detox physiology. – Samarkand, 2022. – 116 p.
22. Qodirov R. Glutathione system in tissues. – Tashkent, 2020. – 144 p.
23. Mironov A.V. Endocrine metabolic disorders. – Moscow, 2017.
24. Kim A.S. Hepatic microsomal enzymes. – Bishkek, 2020.
25. Baltabekova S. Metabolic syndrome and oxidative stress // Kazakhstan BioChem. – 2022.
26. Chitin-chitosan biopolymers in health. – Tokyo, 2023.
27. Anderson R. Oxidative metabolism disorders. – Oxford Univ. Press, 2018.
28. Meyer R. Protein oxidation in metabolic dysfunction. – Washington, 2019.
29. Martinez J. Detoxification enzymes review. – Madrid, 2023.
30. International Dairy Federation Reports. – 2024.

TELEMEDITSINA SHAROITIDA HAMSHIRALIK XIZMATLARI VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTRISH

Toychiboyeva Dilshoda Usmon qizi

Zarmed universiteti, Oliy hamshiralik ishi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbari: *Xamidova Farangiz Uktamovna*

«Terapevtik fanlar» kafedrası assistenti

Zarmed universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning jadal rivojlanishi sog'liqni saqlash tizimida ko'pgina o'zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, telemeditsina tibbiy xizmatlarini masofadan turib ko'rsatishning samarali shakli sifatida keng joriy etilmoqda. Bu jarayonda hamshiralik xizmatlari alohida ahamiyat kasb etib bemorlar bilan aloqa o'rnatish nazorat va maslahat berish vazifalarni bajaradi.

Kalit so'zlar: telemeditsina va uning ahamiyati, telemeditsina sharoitida hamshiraning o'rnini, telemeditsina asosida ko'rsatilgan hamshiralik xizmatlarining afzalliklar.

Аннотация. В последние годы стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий привело к значительным изменениям в системе здравоохранения. В частности, телемедицина широко внедряется как эффективная форма оказания медицинских услуг дистанционно. В этом процессе сестринские услуги приобретают особое значение, обеспечивая связь с пациентами, осуществляя мониторинг и консультирование.

Ключевые слова: телемедицина и её значение, роль медицинской сестры в телемедицине, преимущества сестринских услуг, оказываемых с использованием телемедицинских технологий.

Abstract. In recent years, the rapid development of information and communication technologies has led to significant changes in the healthcare system. In particular, telemedicine has been widely implemented as an effective form of providing medical services remotely. In this process, nursing services play a special role by establishing communication with patients, providing monitoring, and offering consultations.

Keywords: telemedicine and its significance, the role of nurses in telemedicine, advantages of nursing services provided through telemedicine.

Kirish. Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, tibbiy xizmatlarni ko'rsatish shakllarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shunday innovatsion yo'nalishlardan biri telemeditsina bo'lib, u masofadan turib tibbiy yordam ko'rsatish imkonini yaratadi [1-3]. Telemeditsina sharoitida hamshiralik xizmatlari bemorlar bilan doimiy aloqa o'rnatish, davolash jarayonini nazorat qilish va profilaktika tadbirlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [4,5].

Telemeditsina va uning ahamiyati: telemeditsina - bu zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida masofadan turib tibbiy maslahat berish, tashxis qo'yish,

davolash jarayonni kuzatish va sog'liq holatini monitoring qilish tizimidir. Telemeditsina ayniqsa chekka hududlarda yashovchi aholiga malakali tibbiy yordamni tez va qulay yetkazib berishda rol o'ynaydi. Ushbu yondashuv so'nggi 10 yil ichida ajoyib evolutsiyadan o'tdi va u Amerika sog'liqni saqlash infratuzilmaning tobora muhim qismiga aylanib bormoqda. Telemeditsina yordamida: vaqt va moddiy xarajatlar qisqaradi. Yuqumli kasalliklarni doimiy nazorat qilish osonlashadi. Sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi oshadi.

Telemeditsina sharoitida hamshiraning o'rni

Telemeditsina sharoitida hamshira hamshira nafaqat yordamchi mutaxassis, balki mustaqil professional sifatida faoliyat yuritadi. Hamshira bemor va shifokor o'rtasida muhim vositachi bo'lib ahborot almashinuvi va tibbiy jarayonlarning uzliksizligini ta'minlaydi. Telemeditsina asosida ko'rsatiladigan hamshiralik xizmatlari bir qator afzalliklarga ega. 1) Bemorlar bilan aloqa, tezkor maslahat va yordam. Bemorning muassalarga yuklamaning ma'sulyatini oshirish. Shunga qaramay telemeditsina sharoitida hamshiralik xizmatlarini tashkil etishda ayrim muammolar mavjud. Texnik vositalarning yetishmasligi yoki Internet sifati pastligi. Tibbiy axborot xavfsizligi va maxfiyligi masalalari. Ba'zi hollarda bevosita muloqotning yetishmasligi sabab bo'lmoqda.

Telemeditsina asosida ko'rsatilgan hamshiralik xizmatlarining afzalliklar. Bemorlar bilan uzluksiz aloqa ta'minlanadi. Hamshira bemor bilan masofadan turib doimiy muloqotdan bo'lib, uning sog'lig'idagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlaydi. Vaqt va moddiy xarajatlar kamayadi. Bemorning tibbiy muassasaga kelish zarurati qisqaradi, bu esa transport va vaqt tejallishiga olib keladi.

Xulosa. Telemeditsina sharoitida hamshiralik xizmatlari zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Hamshiralik masofaviy tibbiy xizmatlarning samaradorligini oshirish aholining sog'lig'ini mustahkamlash. Tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarni kengaytirish. Shuningdek telehamshirlikni rivojlantirish uchun malakali kadrlarni tayyorlash texnik infratuzilmasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Telemeditsina va raqamli sog'liqni saqlash bo'yicha me'yoriy - huquqiy hujjatlar. Toshkent 2020-2024
2. Hamshiralik ishi asoslari. O'quv qollanma/Oliy tibbiyot ta'lim muassalari uchun. Toshkent. 2021
3. Raqamli sog'liqni saqlash texnologiyalari. Ilmiy _uslubiy qollanma-Toshkent 2022
4. World Health Organization. Global Strategy on Digital Health 2020-2025 Who Men Press Geneva
5. Krupinski E. A. Weinstein R. S. Telemedicine and Telehealth: Principles, Policies, Performance, and Pitfalls. Springer, 2014.

ИШЕМИЧЕСКАЯ БОЛЕЗНЬ СЕРДЦА И САХАРНЫЙ ДИАБЕТ*Азизова Мехрангиз Дилишодовна*

Студентка 2 курса лечебного факультета

Научный руководитель - Хайдарова Дилором Сафоевна

К.м.н., доцент кафедры Физиологии, патофизиологии и гигиены

Университет Зармед, Самарканд, Узбекистан

Аннотация. Ишемическая болезнь сердца (ИБС) остаётся ведущей причиной сердечно-сосудистой morbidity и смертности среди лиц с сахарным диабетом. Сахарный диабет способствует ускоренному развитию атеросклероза коронарных артерий, эндотелиальной дисфункции и тяжёлому течению ИБС. Представлен обзор современных литературных данных о патогенезе, клинических проявлениях, диагностике и лечении ИБС при сахарном диабете, а также анализ рекомендаций международных научных сообществ. Результаты обобщения подтверждают необходимость ранней диагностики и комплексной терапии у данной категории пациентов.

Ключевые слова: ишемическая болезнь сердца, сахарный диабет, атеросклероз, инсулинорезистентность, эндотелиальная дисфункция, сердечно-сосудистый риск.

Abstract. Coronary heart disease (CHD) remains the leading cause of cardiovascular morbidity and mortality among people with diabetes mellitus. Diabetes mellitus contributes to the accelerated development of coronary artery atherosclerosis, endothelial dysfunction, and severe coronary artery disease. The article provides an overview of current literature data on the pathogenesis, clinical manifestations, diagnosis and treatment of coronary artery disease in diabetes mellitus, as well as an analysis of recommendations from international scientific communities. The results of the generalization confirm the need for early diagnosis and complex therapy in this category of patients.

Key words: coronary heart disease, diabetes mellitus, atherosclerosis, insulin resistance, endothelial dysfunction, cardiovascular risk.

Введение. Ишемическая болезнь сердца (ИБС) является одной из ведущих причин заболеваемости и смертности во всём мире. У пациентов с сахарным диабетом риск развития ИБС значительно выше по сравнению с общей популяцией, а сердечно-сосудистые осложнения составляют основную причину летальных исходов. Сахарный диабет рассматривается как высокий коронарный риск, поскольку он связан с ускоренным развитием атеросклероза, эндотелиальной дисфункции и нарушением метаболических процессов, что ухудшает течение ИБС. Анализ современных публикаций позволяет систематизировать имеющиеся данные о патогенезе, клинических особенностях и подходах к диагностике и лечению ИБС у пациентов с сахарным диабетом.

Материалы и методы. Проведён аналитический обзор научных статей, опубликованных в рецензируемых российских и международных журналах за последние 10 лет, с акцентом на исследования, посвящённые ишемической болезни сердца при сахарном диабете. Основные источники информации: PubMed, Scopus, Web of Science, журналы кардиологической и эндокринологической тематики, а также международные клинические рекомендации (ESC, ADA, WHO). Результаты анализировались в контексте эпидемиологии, патогенеза, клинической картины, диагностики и терапии ИБС при диабете. Отобраны статьи с достоверными клиническими и аналитическими данными.

Результаты и обсуждение. Анализ литературы подтверждает, что сахарный диабет является независимым фактором риска развития ИБС. У пациентов с диабетом ИБС развивается чаще и в более молодом возрасте, чем у лиц без диабета. Основные патогенетические механизмы включают эндотелиальную дисфункцию, инсулинорезистентность, хроническое воспаление и ускоренное формирование атеросклеротических бляшек.

Клиническое течение ИБС при сахарном диабете часто атипично: многие пациенты имеют бессимптомную или малосимптомную ишемию, что препятствует своевременной диагностике и увеличивает риск острых сердечно-сосудистых событий. Методы функциональной диагностики (например, нагрузочные тесты, визуализация миокарда) позволяют выявить скрытую ишемию на ранних стадиях.

Лечение пациентов с ИБС и сахарным диабетом требует комплексного подхода, включая строгий контроль гликемии, коррекцию артериальной гипертензии и дислипидемии, применение антитромботической и антиангинальной терапии. Новые сахароснижающие препараты с доказанным кардиопротективным эффектом расширили возможности снижения сердечно-сосудистого риска у данной группы больных. Следует отметить, что сахарный диабет оказывает влияние не только на развитие ИБС, но и на эффективность проводимого лечения. У данной категории пациентов чаще наблюдается резистентность к стандартной антиангинальной терапии, а также повышенный риск тромботических осложнений после чрескожных коронарных вмешательств и хирургической реваскуляризации миокарда. В связи с этим выбор лечебной тактики должен основываться на комплексной оценке сердечно-сосудистого риска и индивидуальных особенностей пациента.

Важную роль в профилактике прогрессирования ИБС у пациентов с сахарным диабетом играет ранняя коррекция факторов риска. Модификация образа жизни, включающая рациональное питание, контроль массы тела и регулярную физическую активность, в сочетании с медикаментозной терапией позволяет замедлить развитие атеросклеротического процесса и снизить частоту сердечно-сосудистых осложнений. Доказано, что достижение целевых показателей гликемии

и липидного профиля ассоциировано с улучшением прогноза и снижением общей смертности.

Кроме того, современные клинические рекомендации подчёркивают необходимость междисциплинарного взаимодействия между кардиологами и эндокринологами при ведении пациентов с сочетанием ИБС и сахарного диабета. Такой подход обеспечивает более точную стратификацию риска, оптимизацию терапии и повышение приверженности пациентов к лечению. Комплексное наблюдение позволяет не только контролировать течение основного заболевания, но и предупреждать развитие осложнений со стороны других органов и систем. В совокупности представленные данные подтверждают, что сахарный диабет существенно утяжеляет течение ишемической болезни сердца, влияя на клиническую картину, диагностические возможности и результаты лечения. Это подчёркивает необходимость разработки и внедрения персонализированных стратегий профилактики и терапии, направленных на снижение сердечно-сосудистой заболеваемости и смертности у данной группы пациентов. Следует отметить, что сахарный диабет оказывает влияние не только на развитие ИБС, но и на эффективность проводимого лечения.

Заключение. Сахарный диабет существенно повышает частоту, тяжесть и плохой прогноз ишемической болезни сердца. Характерными особенностями являются ускоренный атеросклероз, эндотелиальная дисфункция и склонность к бессимптомному течению. Для улучшения исходов необходимы комплексная диагностика, раннее выявление ИБС и индивидуализированные стратегии лечения с учётом кардиального риска.

Выводы

1. Сахарный диабет является значимым независимым фактором риска развития ишемической болезни сердца.
2. ИБС при сахарном диабете чаще протекает атипично и тяжело.
3. Основные механизмы включают эндотелиальную дисфункцию и ускоренный атеросклероз.
4. Комплексный подход к диагностике и лечению способствует улучшению прогноза.

Список литературы

- 1.American Diabetes Association. Cardiovascular disease and risk management. Diabetes Care. 2023; 46(Suppl 1): P.158–190.
- 2.Beckman JA, Creager MA, Libby P. Diabetes and atherosclerosis. JAMA. 2002; 287(19): 2570–2581.
- 3.Bornfeldt KE, Tabas I. Insulin resistance, hyperglycemia, and atherosclerosis. Cell Metab. 2011; 14(5): 575–585.
- 4.Cosentino F, et al. 2019 ESC Guidelines on diabetes, pre-diabetes, and cardiovascular diseases. Eur Heart J. 2020; 41(2): 255–323.
- 5.Fox CS, et al. Trends in cardiovascular complications of diabetes. Circulation. 2015; 131(16): 1514–1525.
- 6.Knuuti J, et al. 2019 ESC Guidelines for the diagnosis and management of chronic coronary syndromes. Eur Heart J. 2020;41(3): 407–477.
- 7.Marwick TH, et al. Myocardial ischemia in patients with diabetes. J Am Coll Cardiol. 2018;71(11):1249–1261.
- 8.Vinik AI, Ziegler D. Diabetic cardiovascular autonomic neuropathy. Circulation. 2007; 115(3): 387–397.
- 9.World Health Organization. Cardiovascular diseases (CVDs). WHO; 2023.
10. Zinman B, et al. Empagliflozin and cardiovascular outcomes in type 2 diabetes. N Engl J Med. 2015;373:2117–2128.

BOSH MIYA VA ORQA MIYA TARAQQIYOTI VA UNDAN CHIQUADIGAN NERVLAR ANATOMIYASI

Tolibova Shirin Jonibekovna

Davolash ishi yoʻnalishi talabasi, Zarmed universiteti, Samarqand.

Ilmiy rahbar: *Xusanov Shamshod*

Assistant, Zarmed universiteti, Samarqand, Oʻzbekiston

Annotatsiya. Ushbu akademik maqola markaziy va periferik nerv sistemalari, jumladan, bosh miya, orqa miya va ulardan tarqaladigan nervlarning embrion taraqqiyoti hamda anatomiyasini keng qamrovli tarzda koʻrib chiqadi. Unda neurulyatsiya jarayoni, bosh miya pufakchalarining differentsiatsiyasi, orqa miya segmentatsiyasi va nerv qirrasi hujayralarining periferik nerv sistemasini shakllantirishdagi hal qiluvchi roli batafsil tahlil etiladi. Shuningdek, kalla va orqa miya nervlarining hosil boʻlishi, ularning pleksuslari, tarkibiy tuzilishi va funktsional ahamiyati yoritiladi. Nerv sistemi rivojlanishining molekulyar va genetik nazorati mexanizmlari, asosiy signal yoʻllari koʻrsatib oʻtiladi. Maqola, shuningdek, rivojlanish jarayonidagi buzilishlarning klinik oqibatlari va tibbiyotdagi ahamiyatiga eʼtibor qaratib, ushbu murakkab biologik tizimni chuqur tushunishning nevrologiya va tibbiy amaliyotdagi dolzarbligini taʼkidlaydi.

Kalit soʻzlar: nerv sistemi, neurulyatsiya, bosh miya, orqa miya, nerv qirrasi, kalla nervlari, orqa miya nervlari, neyroembriologiya.

Abstract. This academic article comprehensively reviews the embryonic development and anatomy of the central and peripheral nervous systems, including the brain, spinal cord, and their emerging nerves. It details the process of neurulation, differentiation of brain vesicles, spinal cord segmentation, and the crucial role of neural crest cells in forming the peripheral nervous system. Furthermore, it elucidates the formation, plexuses, structural composition, and functional significance of cranial and spinal nerves. The article outlines the molecular and genetic control mechanisms and key signaling pathways involved in nervous system development. It also emphasizes the

clinical implications of developmental disorders and their importance in medicine, highlighting the relevance of deeply understanding this complex biological system in neurology and medical practice.

Keywords: nervous system, neurulation, brain, spinal cord, neural crest, cranial nerves, spinal nerves, neuroembryology.

Аннотация. Данная академическая статья всесторонне рассматривает эмбриональное развитие и анатомию центральной и периферической нервных систем, включая головной мозг, спинной мозг и отходящие от них нервы. В ней подробно анализируется процесс нейруляции, дифференциация мозговых пузырьков, сегментация спинного мозга и решающая роль клеток нервного гребня в формировании периферической нервной системы. Также освещаются формирование, сплетения, структурный состав и функциональное значение черепных и спинномозговых нервов. В статье указываются молекулярные и генетические механизмы контроля развития нервной системы и основные сигнальные пути. Статья также акцентирует внимание на клинических последствиях нарушений развития и их значении в медицине, подчеркивая актуальность глубокого понимания этой сложной биологической системы в неврологии и медицинской практике.

Ключевые слова: нервная система, нейруляция, головной мозг, спинной мозг, нервный гребень, черепные нервы, спинные нервы, нейроэмбриология.

Kirish. Nerv sistemasi tirik organizmlarning eng murakkab va fundamental tizimlaridan biri bo'lib, atrof-muhit bilan o'zaro aloqani, ichki gomeostazni va yuqori darajadagi kognitiv funktsiyalarni ta'minlaydi. Uning tuzilishi va funktsiyasini to'liq tushunish uchun embrion rivojlanish jarayonlarini, ya'ni neyroembriologiyani chuqur o'rganish zarur. Ushbu jarayonlar markaziy nerv sistemasi (MNS) – bosh miya va orqa miya, shuningdek, periferik nerv sistemasi (PNS) – kalla va orqa miya nervlarining shakllanishiga asos bo'ladi. Nerv sistemasining rivojlanishi zigota hosil bo'lishidan boshlab, murakkab molekulyar va hujayraviy o'zaro ta'sirlar orqali bosqichma-bosqich amalga oshadi, bu esa yetuk organizmning barcha funktsional qobiliyatlarini belgilaydi [1]. Nerv sistemasining embrion taraqqiyotini o'rganish nafaqat anatomiya va fiziologiyani tushunish uchun muhim, balki tug'ma nuqsonlar, nevrologik kasalliklar va regenerativ tibbiyot kabi klinik sohalarida ham katta ahamiyatga ega. Rivojlanishning dastlabki bosqichlaridagi kichik buzilishlar ham keyinchalik jiddiy nevrologik patologiyalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bosh miya va orqa miya, shuningdek, ulardan chiqadigan nervlarning taraqqiyot yo'llarini har tomonlama tahlil qilish zamonaviy nevrologiya va tibbiyotning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ushbu maqola nerv sistemasi taraqqiyotining asosiy bosqichlarini, hujayraviy va molekulyar mexanizmlarni hamda yetuk nervlarning anatomik xususiyatlarini keng yoritishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nerv sistemasining rivojlanishiga oid adabiyotlar juda keng qamrovli bo'lib, turli xil yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Dastlabki embrion taraqqiyot, ayniqsa, nerv trubasining shakllanishi va miya pufakchalarining differentsiatsiyasi umumiy neyroembriologiya asosini tashkil etadi [1]. Markaziy nerv sistemasining tuzilishi va funktsiyasi, xususan, orqa miyaning segmentatsiyasi va uning nerv tolalari bilan bog'liqligi ilmiy manbalarda batafsil bayon qilingan [3]. Shuningdek, bosh miyani tashqi shikastlanishlardan himoya qiluvchi kalla suyagi kabi yordamchi tuzilmalarning ahamiyati ham muhokama qilingan [2]. Periferik nerv sistemasi, xususan, orqa miya nervlarining kelib chiqishi, tarqalishi va pleksuslar orqali butun tanaga bo'linishi alohida o'rganilgan [4]. Nerv tolalarining turlari, ularning impuls o'tkazish tezligiga ta'sir qiluvchi omillar, masalan, miyelin qobig'ining mavjudligi va diametri kabi morfofunktsional xususiyatlar ham ko'plab tadqiqotlar mavzusi hisoblanadi [5]. Ushbu sohadagi bilimlar doimiy ravishda yangilanib boradi va turli manbalarda, jumladan, raqamli resurslarda ham mavjud [5]. Umumiy olganda, mavjud adabiyotlar nerv sistemasining rivojlanishi va anatomiyasining turli jihatlarini yoritib beradi, biroq molekulyar va genetik nazorat mexanizmlari, ularning klinik patologiyalar bilan aloqasi chuqurroq sintezni talab qiladi. Ushbu maqola mavjud manbalardagi ma'lumotlarni sintez qilib, mavzuning yaxlit ko'rinishini taqdim etishga intiladi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola nerv sistemasi rivojlanishi va anatomiyasiga oid mavjud ilmiy adabiyotlarni keng qamrovli tahlil qilish va sintezlashga asoslangan deskriptiv va analitik tadqiqotdir. Metodologiya neyroembriologiya, neuroanatomiya va rivojlanish biologiyasi sohasidagi asosiy tushunchalarni, hujayraviy va molekulyar mexanizmlarni o'rganishga qaratilgan. Bunda quyidagi yondashuvlar qo'llanildi: 1. Adabiyotlarni to'plash va tanqidiy tahlil qilish: Nerv sistemasi embrion taraqqiyotining dastlabki bosqichlari, MNS va PNS ning differentsiatsiyasi, nerv tolalarining tuzilishi va funktsiyasi haqidagi fundamental ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ilmiy manbalar (darsliklar, tadqiqot maqolalari, raqamli resurslar) ko'rib chiqildi. 2. Integrativ yondashuv: Har bir bo'limning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va MNS hamda PNS o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish maqsadida anatomik va rivojlanish jarayonlari integratsiyalashgan holda tahlil qilindi. 3. Tizimli taqdimot: Murakkab biologik jarayonlarni o'quvchiga tushunarli tarzda yetkazish uchun nerv sistemasi taraqqiyotining bosqichlari mantiqiy ketma-ketlikda bayon etildi. 4. Klinik ahamiyatni ta'kidlash: Rivojlanishdagi buzilishlarning klinik oqibatlari va kasalliklarning kelib chiqishi masalalariga e'tibor qaratilib, nazariy bilimlarning amaliy ahamiyati yoritildi. Ushbu metodologiya mavzuni har tomonlama yoritishga, murakkab jarayonlarni soddalashtirib tushuntirishga va olingan ma'lumotlarni akademik kontekstda sintezlashga imkon berdi. Markaziy Nerv Sistemasi (MNS) Ning Erta Embrion Taraqqiyoti: Neurulyatsiya va Bosh Miya Pufakchalarining Shakllanishi Nerv sistemasi taraqqiyoti embriogenezing ilk bosqichlarida, ektodermaning ixtisoslashgan mintaqasi nerv egatiga,

so'ngra nerv trubasiga aylanishi bilan boshlanadi (Manba 1). Ushbu jarayon neurulyatsiya deb ataladi va markaziy nerv sistemasining poydevorini qo'yadi. Nerv trubasining oldingi qismi bosh miyani hosil qilsa, orqa qismi orqa miyaga differentsiatsiyalanadi. Bosh miya rivojlanishi uchta birlamchi pufakchadan boshlanadi: prosencephalon (oldingi miya), mesencephalon (o'rta miya) va rhombencephalon (orqa miya). Ushbu uchta pufakcha keyinchalik beshta ikkilamchi pufakchaga bo'linadi. Prosencephalon dan telencephalon va diencephalon rivojlanadi, mesencephalon o'zgarishsiz qoladi, rhombencephalon dan esa metencephalon va myelencephalon shakllanadi (Manba 1). Nerv trubasining ichki bo'shlig'i bosh miyada miya qorinchalariga, orqa miyada esa markaziy kanalga aylanadi. Bosh Miya Bo'limlarining Differentsiatsiyasi va Orqa Miya Segmentatsiyasi: Har Bir Bo'limning Rivojlanish Xususiyatlari Bosh miya pufakchalarining differentsiatsiyasi jarayonida har bir bo'lim o'ziga xos tuzilmalarni hosil qiladi: 1. Telencephalon miya yarimsharlarini (cerebrum) va lateral qorinchalarni vujudga keltiradi (Manba 1). Bu miya yarimsharlar kognitiv funktsiyalar, xotira va ixtiyoriy harakatlar uchun javobgardir. 2. Diencephalon talamus va gipotalamusni shakllantiradi (Manba 1). Talamus sensor ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash markazi bo'lsa, gipotalamus avtonom nerv sistemasi va endokrin funktsiyalarni boshqaradi. 3. Mesencephalon o'rta miyaga aylanadi, u ko'rish va eshitish reflekslarini boshqaradi, shuningdek, harakat nazoratida ishtirok etadi (Manba 1). 4. Metencephalon pons (varoliy ko'prigi) va cerebellum (miyacha) ni hosil qiladi (Manba 1). Pons miya bo'limlari orasida ma'lumot uzatishni ta'minlaydi, miyacha esa harakatni muvofiqlashtirish va muvozanatni saqlash uchun javobgardir. 5. Myelencephalon medulla oblongata (uzunchoq miya) ni shakllantiradi (Manba 1). Uzunchoq miya yurak urishi, nafas olish va hazm qilish kabi hayotiy funktsiyalarni nazorat qiladi. Bosh miyaning rivojlanishi tug'ilgandan keyin ham davom etadigan uzluksiz jarayon bo'lib, uning plastikligi bilan xarakterlanadi. Postnatal o'sish asosan aksonlarning miyelinatsiyasi va neyron bog'lanishlarining kuchayishi hisobiga sodir bo'ladi (Manba 1). Bosh miya rivojlanishi bilan bir qatorda, kalla suyagi ham uning himoyasi uchun shakllanadi. Kalla suyagi 23 ta suyakdan iborat bo'lib, ular bolalarda fontanellalar orqali birlashadi, bu esa tug'ilish jarayonini osonlashtiradi va miya o'sishi uchun joy beradi. Kattalarda esa ular tikuvlar orqali qattiq birikadi (Manba 2). Kalla suyagining asosiy vazifasi miyani va unga bog'liq sezgi organlarini himoya qilishdir. Orqa miya esa nerv trubasining naychali tuzilishini saqlab qoladi, uning ichki bo'shlig'i kichik markaziy kanalga aylanadi. Orqa miya uzun, ingichka, naychali nerv to'qimasi bo'lib, bosh miyani tana nervlari bilan bog'laydi. U bosh suyagi asosidagi uzunchoq miyadan birinchi yoki ikkinchi bel umurtqasiga qadar cho'zilib, umurtqa pog'onasi bilan himoyalangan (Manba 3). Orqa miya funksional jihatdan miyadan tanaga motor signallarni, tanadan miyaga esa sezgi impulsini uzatadi. U, shuningdek, ko'plab reflekslarni mustaqil ravishda muvofiqlashtiradi va yurish kabi ritmik harakatlar uchun markaziy naqsh generatorlarini o'z ichiga oladi. Tuzilishiga ko'ra, orqa miya uchta miya

pardasi (dura, araxnoid, pia mater) va orqa miya suyuqligi bilan himoyalangan bo'lib, 31 segmentdan iborat. Har bir segment bir juft aralash sezgi va motor orqa miya nervlarini hosil qiladi (Manba 3).

Periferik Nerv Sistemasi (PNS) ning Shakllanishi: Nerv Qirrası Hujayralari va Ularning Hosıllari Periferik nerv sistemasi (PNS) ning rivojlanishi asosan nerv trubasi yopilishi paytida hosil bo'ladigan nerv qirrası hujayralari (neural crest cells) bilan chambarchas bog'liqdir. Bu hujayralar katta migratsion qobiliyatga ega bo'lib, embrionning turli joylariga ko'chib o'tadi va juda ko'p turli xil to'qimalarga differentsiatsiyalanadi. Nerv qirrası hujayralaridan PNS ning asosiy komponentlari, jumladan, sensor neyronlar (orqa miya ganglionlarida), avtonom ganglionlar (simpatik va parasimpatik), Schwann hujayralari (nerv tolalarini miyelin bilan qoplaydi), shuningdek, melanositlar, buyrak usti bezining xromaffin hujayralari va yuz-kalla suyagi kabi mezenximal hosıllar kelib chiqadi. Bu hujayralarning migratsiyasi va differentsiatsiyasi murakkab signal yo'llari va transkripsiya omillari tomonidan qat'iy nazorat qilinadi.

Kalla Nervlari va Orqa Miya Nervlarining Anatomiyasi va Taraqqiyoti: Nervlarning Hosil Bo'lishi va Pleksuslar Kalla nervlari to'g'ridan-to'g'ri bosh miyadan (asosan miya ustuni va oldingi miya bo'limlaridan) chiqadigan 12 juft nervdir. Ular bosh, bo'yin va ba'zi ichki organlarning sezgi va motor innervatsiyasini ta'minlaydi. Ularning rivojlanishi miyaning mos bo'limlarining differentsiatsiyasi bilan parallel kechadi, har bir nerv o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega. Orqa miya nervlari esa orqa miyadan juft-juft bo'lib chiqadigan 31 juft nervdir (Manba 4). Bular 8 juft bo'yin, 12 juft ko'krak, 5 juft bel, 5 juft dumg'aza va 1 juft dum nervlaridir (Manba 4). Har bir orqa miya nervi orqa miyaning tegishli segmentidan chiqqan oldingi (motor) va orqa (sezgi) ildizlarning birlashishidan hosil bo'ladi. Ular aralash nervlar bo'lib, ham sezgi, ham motor tolalarini o'z ichiga oladi (Manba 4). Orqa miya nervlari butun tanadagi mushaklar va teriga tarqaladi, terini, ichki organlarni va barcha skelet mushaklarini markaziy nerv sistemasi bilan bog'laydi (Manba 4). Ular ko'plab nerv pleksuslari orqali tarmoqlanadi:

1. Bo'yin pleksusi (Cervical plexus): Bo'yin va diafragmaning innervatsiyasini ta'minlaydi.
2. Yelka pleksusi (Brachial plexus): Qo'l-oyoq va yuqori tananing innervatsiyasini ta'minlaydi.
3. Bel pleksusi (Lumbar plexus): Son va oyoqning old qismi innervatsiyasini ta'minlaydi.
4. Dumg'aza pleksusi (Sacral plexus): Son va oyoqning orqa qismi innervatsiyasini ta'minlaydi.
5. Dum pleksusi (Coccygeal plexus): Orqa chiqish teshigi atrofidagi kichik mintaqani innervatsiya qiladi.

Nerv tolalari nerv hujayralarining o'simtali bo'lib, impulslarni MNS va turli organlar o'rtasida uzatish uchun javobgardir (Manba 6). Ular miyelinli yoki miyelinsiz bo'lishi mumkin. Miyelin qobig'i nerv tolalarining trofik va himoya funktsiyalarini bajarish bilan birga, individual nerv impulslarining alohida uzatilishini ham osonlashtiradi (Manba 6). Impuls o'tkazish tezligi tolaning qalinligi, miyelin qobig'ining rivojlanish darajasi va uning mikrostrukturasi kabi bir qancha omillarga bog'liq bo'lib, soniyasiga 0.5 dan 120 metrgacha o'zgarishi mumkin (Manba 4, Manba 6). Qalinroq nervlarda impuls tezligi yuqoriroq bo'ladi (Manba 4). Nerv Sistemasi

Rivojlanishining Molekulyar va Genetik Nazorati: Asosiy Mexanizmlar va Signal Yo'llari Nerv sistemasining murakkab rivojlanishi molekulyar va genetik mexanizmlarning qat'iy nazorati ostida sodir bo'ladi. Bu jarayonlar hujayra proliferatsiyasi (ko'payishi), migratsiyasi (ko'chishi), differentsiatsiyasi (ixtisoslashuvi), sinaptogenez (sinapslarning shakllanishi), miyelinatsiya va sinaptik pruning (ortiqcha sinapslarning yo'q qilinishi) kabi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi (Manba 1). Rivojlanish davomida Notch, Wnt, Sonic Hedgehog (Shh), BMP (Bone Morphogenetic Proteins) kabi signal yo'llari, shuningdek, turli xil transkripsiya omillari neyronlarning tug'ilishi, ularning to'g'ri joylashishi va ixtisoslashuvini boshqaradi. Masalan, Shh signalizatsiyasi nerv trubasining ventral qismini, BMP signalizatsiyasi esa dorsal qismini rivojlanishini boshqaradi. Neyronlarning migratsiyasi migratsiya yo'nalishini belgilovchi gidlangan molekulalar (masalan, reelin) va hujayra-hujayra bog'lanish molekulalari tomonidan boshqariladi. Sinaptogenez jarayonida neyronlar orasidagi bog'lanishlar hosil bo'ladi, bu esa funktsional nerv zanjirlarini shakllantiradi. Miyelinatsiya esa nerv impulslarining samarali o'tkazilishini ta'minlaydigan jarayon bo'lib, Schwann hujayralari (PNS da) va oligodendrotsitlar (MNS da) tomonidan amalga oshiriladi. Barcha bu jarayonlar genetik dasturlash va tashqi muhit omillarining o'zaro ta'siri orqali aniq bir ketma-ketlikda sodir bo'ladi. Har qanday genetik mutatsiya yoki tashqi omillarning buzuvchi ta'siri rivojlanish patologiyalariga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Nerv sistemasi, bosh miya va orqa miyadan to periferik nervlargacha bo'lgan, murakkab va o'zaro bog'liq tuzilma bo'lib, uning rivojlanishi hayotning ilk bosqichlaridan boshlab nihoyatda nozik va qat'iy nazorat qilinadigan jarayonlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Neurulyatsiyadan boshlab, bosh miya pufakchalarining differentsiatsiyasi, orqa miya segmentatsiyasi, nerv qirrasini hujayralarining ko'chishi va ixtisoslashuvi hamda nerv tolalarining miyelinatsiyasiga qadar har bir bosqich kelajakdagi nerv sistemasi funksiyasining poydevorini shakllantiradi. Kalla va orqa miya nervlarining hosil bo'lishi, ularning pleksuslar orqali butun tanaga tarqalishi MNS va PNS o'rtasidagi uzluksiz aloqani ta'minlaydi. Ushbu murakkab rivojlanish yo'llarini chuqur tushunish klinik tibbiyotda katta ahamiyatga ega. Nerv sistemasi taraqqiyotidagi buzilishlar spina bifida, anensefaliya, gidrotsefaliya kabi turli xil tug'ma nuqsonlarga va keyinchalik serebral falaj, autizm spektridagi buzilishlar kabi nevrologik kasalliklarga olib kelishi mumkin. Rivojlanish mexanizmlarini o'rganish ushbu patologiyalarning sabablarini aniqlash, erta tashxis qo'yish, samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqish va hatto profilaktika qilish uchun asos yaratadi. Masalan, homiladorlikning dastlabki bosqichlarida foliy kislotasini iste'mol qilish nerv trubasi nuqsonlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Regenerativ tibbiyot va neyroiinjeneriya sohalarida ham nerv sistemasining rivojlanish tamoyillarini qo'llash shikastlangan nerv to'qimalarini tiklash yoki almashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Shunday qilib, bosh miya va orqa miya taraqqiyoti hamda undan chiqadigan nervlar anatomiyasini tadqiq qilish nafaqat

fundamental biologik bilimlarni kengaytiradi, balki inson salomatligini saqlash va nevrologik kasalliklarni yengishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Adabiyotlar

1. Purves, D., Augustine, G. J., Fitzpatrick, D., Katz, L. C., LaMantia, A. S., McNamara, J. O., & Williams, S. M. Asabiy rivojlanish asoslari. Sunderland, MA: Sinauer Associates, 2001.
2. Schoenwolf, G. C., Bleyl, S. B., Brauer, P. R., & Francis-West, P. H. Larsen's Inson Embriologiyasi (5-nashr). Philadelphia, PA: Churchill Livingstone/Elsevier, 2015.
3. Абдукадыров А. А. и др. Доктор ахборотномаси вестник врача doctor's herald.
4. Jessell, T. M. "Orqa miyada neyronal spetsifikatsiya: induktiv signallar va transkripsion kodlar." *Tabiat Neyrofan Sharhlari*, vol. 1, no. 1, 2000, pp. 20-29.
5. Bronner, M. E., & Le Douarin, N. M. "Nerv naychasining rivojlanishi va evolutsiyasi: Umumiy ko'rinish." *Rivojlanish Biologiyasi*, vol. 366, no. 1, 2012, pp. 2-9.
6. Tessier-Lavigne, M., & Goodman, C. S. "Akson yo'nalishining molekulyar biologiyasi." *Fan*, vol. 274, no. 5290, 1996, pp. 1123-1133.

HAMSHIRANING KASBIY VAZIFALARI VA MASULIYATI TALABA NIGOHIDA

Darveshova Shaxlo

Zarmed universiteti, Oliy hamshiralik ishi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbari: *Xamidova Farangiz Uktamovna*

«Terapevtik fanlar» kafedrasida assistenti

Zarmed universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada hamshiraning kasbiy vazifalari va mas'uliyati talaba nigohida yoritilgan. Hamshiraning bemor parvarishidagi o'rni, tibbiy muolajalarni bajarishdagi mas'uliyati va kasbiy axloq masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hamshira, kasbiy vazifa, mas'uliyat, bemor parvarishi, hamshiralik kasbi, talaba nigohi.

Аннотация: В данной статье освещены профессиональные обязанности и ответственность медсестер с точки зрения студента. Рассмотрены роль медсестры в уходе за пациентами, её ответственность при выполнении медицинских процедур и вопросы профессиональной этики.

Ключевые слова: медицинская сестра, профессиональные обязанности, ответственность, уход за пациентом, сестринское дело, взгляд студента.

Abstract. This article highlights the professional duties and responsibilities of nurses from the perspective of a student. The role of nurses in patient care, their accountability in performing medical procedures, and professional ethics are analyzed.

Keywords: nurse, professional duties, responsibility, patient care, nursing profession, student perspective.

Kirish. Hamshiralik tibbiyot sohasidagi eng muhim va insonparvarlikka asoslangan kasblardan biridir. Bugungi kunda tibbiyot sohasi jadal rivojlanmoqda va hamshiralik kasbi sifatida ko'rilgan bo'lsa, u hozirda mustaqil tibbiy yo'nalish sifatida shakllanib

bormoqda[1-3]. Zamonaviy hamshira nafaqat bemorlarni parvarish qiladi, balki ilmiy izlanishlar bilan ham shug'ullanadi. Sog'liqni saqlash tizimida hamshiraning o'ri beqiyosdir. Talaba sifatida bu kasbga qadam qo'yganimizda, hamshiralar shifokor ko'rsatmalarini bajarishdan tashqari, bemor hayoti, sog'ligi va ruhiy holati uchun katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan murakkab va mas'uliyatli kasb ekanini anglaymiz [4].

Hamshiralik ishi kabi kasblarda insonparvarlik, mas'uliyat, muloqot madaniyati va doimiy o'zini rivojlantirish muhimdir. Hamshiralik kasbi fidoyilik, sabr va qat'iyat talab qiladi.

Materiallar va usullar. Mazkur ish talaba nigohida hamshiralik kasbining kasbiy vazifalari va mas'uliyatini tahlil qilishga asoslangan bo'lib, nazariy manbalarni o'rganish, amaliy mashg'ulotlar jarayonida kuzatuv olib borish hamda tibbiyot muassasalarida hamshiralar faoliyatini tahlil qilish usullari asosida amalga oshirildi.

Talabalarning o'quv jarayonida olgan bilimlari, klinik amaliyotdagi kuzatuvlari va kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabati umumlashtirildi.

Muhokama. Hamshira kasbida eng asosiy qiyinchiliklar jismoniy zoriqish, ruhiy bosim va mas'uliyatdir. Shu bilan birga bemorlarga mehribonlik va e'tibor ko'rsatish, kasbiy bilimni doimiy oshirib borish kabi sifatlar talab qilinadi.

Hamshiraning kasbiy vazifalari bemor parvarishidan boshlanadi. Hamshira bemorni kundalik parvarish qiladi, gigiyena, ovqatlantirish va harakatga yordam berish bilan birga bemorning jismoniy holati bilan bir qatorda ruhiy holatiga ham e'tibor qaratadi. Shifokor bilan hamkorlik ham muhim vazifalardan biri bo'lib, hamshira bemor va shifokor o'rtasidagi asosiy bog'lovchi shaxs hisoblanadi.

Bemor bilan muloqot ham katta ahamiyatga ega. Eng muhim vazifalardan biri bemor bilan to'g'ri muloqot o'rnatishdir. Iliq so'zlar, tushuntirish va ruhiy yordam ba'zan dori-darmonlardan ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Hamshiraning mas'uliyati faqat bajarilgan ish bilan emas, balki uning oqibatlari bilan ham baholanadi.

Tibbiy axloq va maxfiylik ham muhimdir. Bemor sirlarini saqlash, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamshiraning eng asosiy mas'uliyatlaridan biridir.

Kasbiy bilimni doimiy oshirib borish ham talaba nigohida juda muhim. Haqiqiy hamshira o'qishdan to'xtamaydigan, zamonaviy tibbiyot yangiliklaridan xabardor bo'lib boradigan mutaxassisdir.

Hamshiraning kasbiy vazifalari sifatida bemorlarga psixologik yordam berish, ularni qo'llab-quvvatlash, tashvish va qo'rquvlarni kamaytirish ham juda muhimdir.

Xulosa: Talaba nigohida hamshiralik kasbi faqat tibbiy muolajalarni emas, balki inson hayoti va salomatligiga mas'ul bo'lgan yuksak ishonch kasbidir. Hamshira bemorning og'ir damlarida unga tayanch bo'lib, nafaqat jismoniy, balki ruhiy yordam ko'rsatadi. Aynan shu jihati bilan hamshiralik kasbi insonparvarlik, sabr-toqat va fidoyilik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi talaba – ertangi malakali hamshira.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov S. Bemor parvarishi va shifokor–hamshira hamkorligi. Toshkent, 2019.
2. Usmonova M. Kasbiy axloq va hamshiralik madaniyati. Toshkent: MedPress, 2021.
3. Rustamov A. Hamshiralik amaliyoti va mas’uliyati. Toshkent, 2018.
4. Davronova G. Sog’liqni saqlash tizimida hamshira roli. Toshkent, 2022.

QON TOMCHISI — GENOM KETMA-KETLIGIGACHA BO‘LGAN RAQAMLI INQILOB

Qodirova Nigina Boborajab qizi

E-mail: dilshodbegzotov@gmail.com

Oliy hamshiralik ishi yo‘nalishi 1-kurs talabasi,
Zarmed Universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Jalilov Shavkat Shodiyor o‘g‘li

E-mail: shavkatjalilov6465@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0009-7400-9394>

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti “Pedagogika nazariyasi va tarixi” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. Agar siz bugun tibbiyot markaziga murojaat qilsangiz, shifokoringiz sizning qon tahlilingizni emas, balki sizning genlaringiz, hayotingiz tarixi va hatto smartfon ma’lumotlaringizni ham tahlil qilishi mumkin. Bu fantastika emas — bu biotibbiyotda mashinaviy o‘qitish (MO) kuchaytirilgan zamonaviy haqiqatdir. Ushbu maqolada katta ma’lumotlar oqimini kasalliklarni oldindan ko‘rish qudratiga aylantiruvchi sun’iy intellekt algoritmlari, ularning amaliy qo‘llanilishi va kelajakdagi biotibbiyot mutaxassislari uchun ta’lim innovatsiyalari muhokama qilinadi. Barcha keltirilgan misollar 2020–2025-yillardagi haqiqiy tadqiqotlar asosida keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Mashinaviy o‘qitish, biotibbiyot, katta ma’lumotlar, chuqur o‘qitish, shaxsiylashtirilgan tibbiyot, genomika, ta’lim innovatsiyalari.

Аннотация. Если сегодня вы обратитесь в медицинский центр, врач может проанализировать не только ваши анализы крови, но и геномные данные, историю жизни и даже показания датчиков вашего смартфона. Это не научная фантастика — это усиленная реальность современной биомедицины, основанная на машинном обучении (МО). В данной статье рассматриваются алгоритмы искусственного интеллекта, преобразующие потоки больших данных в прогностические возможности для раннего выявления заболеваний, их практическое применение в клинической практике, а также образовательные инновации, необходимые для подготовки будущих специалистов в области биомедицины. Все приведенные примеры основаны на реальных исследованиях, проведенных в период с 2020 по 2025 год.

Ключевые слова. Машинное обучение, биомедицина, большие данные, глубокое обучение, персонализированная медицина, геномика, образовательные

ИННОВАЦИИ.

Abstract: If you visit a medical center today, your physician may analyze not only your blood test results but also your genomic data, life history, and even smartphone sensor readings. This is not science fiction — it is the augmented reality of modern biomedicine powered by machine learning (ML). This article examines artificial intelligence algorithms that transform massive data streams into predictive capabilities for early disease detection, their practical applications in clinical settings, and educational innovations required to train future biomedical specialists. All cited examples are grounded in real-world research conducted between 2020 and 2025.

Keywords. Machine learning, biomedicine, big data, deep learning, personalized medicine, genomics, educational innovations.

Kirish. Tasavvur qiling, 2024-yilda AQShda yashovchi 58 yoshli ayolning qo'lida saraton belgilari paydo bo'ladi. An'anaviy usulda u 6 oydan keyin tekshiruvdan o'tib, davolanishni boshlaydi. Bugungi kunda esa uning genomik ma'lumotlari va uyali telefoni sensorlari orqali MO tizimi 8 oy oldin xavfni 92% aniqlik bilan bashorat qiladi [1]. Natija? Davolanish erta boshlanadi va hayot qutqariladi.

Shu kabi hikoyalar endi ommaviy bo'layotganida, biotibbiyot quyidagi raqamli transformatsiyani boshdan kechirmoqda:

Avvalgi davr (2010–2019)	Zamonaviy davr (2020–2025)
Qo'lda tahlil qilingan ma'lumotlar	Avtomatlashtirilgan katta ma'lumotlar oqimi
Umumiy davolash sxemalari	Shaxsiylashtirilgan genomik terapiya
Oylik tibbiy tekshiruvlar	Doimiy monitoring (smartfonlar, "aqlli" soatlar)
Tadqiqotchilar guruhi	Sun'iy intellekt + odam hamkorligi

Dunyo bo'yicha biotibbiy ma'lumotlar hajmi har 7,5 oyda ikki baravarga oshmoqda [2]. Bu oqimni boshqarish uchun an'anaviy statistika yetarli emas — MO esa biotibbiyotning yangi "Ko'z va miyasiga" aylanmoqda.

Mashinaviy o'qitishning biotibbiyotdagi uchta oltin qoidasi

1. "Ko'rishni o'rgangan" algoritmlar: Tibbiy tasvirlashda inqilob

Konvolutsion neyron tarmoqlari (CNN) endi radiologlarning ishini osonlashtirmoqda:

Haqiqiy holat (2023): Stanford Universiteti tadqiqotchilari 280 ming mammografiya tasvirida o'qitilgan MO tizimini ishlab chiqdilar. Natijada tizim saratonni 5,7% yuqori aniqlik bilan va 11,2% kamroq xato bilan aniqladi — bu 1 yilda 1000 kishi hayotini qutqarishi mumkin [3].

Bunday tizimlar nafaqat rentgen tasvirlarida, balki:

- MRI orqali miya shishlarini 3D modellashtirish,

- Patologik preparatlarda yashirin metastazlarni topish,
- Ko'z fundusi tasvirlarida diabetik retinopatiyani erta aniqlashda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

2. "Gapirishni o'rgangan" algoritmlar: Genomik ma'lumotlarning tilini tushunish
Genom — bu 3 milliard harfdan iborat "matn". MO esa bu matnni o'qiy oladi:

- AlphaFold 3 (DeepMind, 2024) — oqsilning 3D tuzilishini aniqlashda inqilob qildi. Avval bu jarayon oylar davom etar edi, endi esa — bir necha daqiqa [4].

- BERT-biotibbiyot modeli — tibbiy yozuvlarni tushunib, bemorning xavf darajasini avtomatik baholaydi [5].

3. "O'z-o'zini o'rgatadigan" algoritmlar: Yangi kasallik turlarini kashf qilish

Nazoratsiz o'qitish (unsupervised learning) algoritmlari ma'lumotlarda odam ko'za tushganda ham ko'rmaydigan namunalarni topadi:

2022-yil tadqiqoti: TCGA (The Cancer Genome Atlas) ma'lumotlar bazasida t-SNE algoritmi qo'llanilib, oshqozon saratonining 4 ta yangi molekulyar turi aniqlandi. Bu turlar an'anaviy usullar bilan farqlanmas edi, lekin har biri uchun alohida davolash zarur [6].

4jadval

MO algoritmlari va ularning biotibbiyotdagi qo'llanilishi

Algoritm turi	Misol	Qo'llanilishi	Muvaffaqiyat ko'rsatkichi
Tasodifiy o'rmon (Random Forest)	Saraton tasniflash	Genomik ma'lumotlar asosida kasallik xavfini baholash	94,3% aniqlik [7]
Gradient boosting (XGBoost)	Yurak xuruji bashorati	45 ta klinik ko'rsatkichdan foydalanib xavfni oldindan aytish	89% sezgirlik [8]
Transformers	Genom ketma-ketligi tahlili	Oqsil funktsiyasini bashorat qilish	91% aniqlik [9]
Autoencoder	Biomarker kashfiyoti	Ma'lumotlarda yashirin strukturalarni aniqlash	4 yangi biomarker [10]

4. Ta'limda qanday o'zgarishlar kerak?

Biotibbiyot talabasi bugun faqat biologiya va kimyoni emas, balki Python kodini ham o'qiy olishi kerak. Chirchiq Davlat Pedagogika Instituti sharoitida quyidagi innovatsiyalar joriy etilishi mumkin:

- ✓ "Biotibbiyot + AI" laboratoriyasi — Google Colab orqali bepul real ma'lumotlar bilan ishlash (TCGA, GEO bazalari)

- ✓ Kross-disiplinar loyihalar — biologiya talabalari bilan dasturlash talabalari birgalikda "Saraton bashorat qiluvchi tizim" yaratishi

- ✓ Sun'iy intellekt mentorlari — har bir talaba uchun shaxsiylashtirilgan o'quv

yoʻnalishini taklif qiluvchi AI tizimi

Misol: Oʻzbekiston Respublika Onkologiya Markazi bilan hamkorlikda talabalar onkologik maʼlumotlar asosida MO modeli yaratishi mumkin — bu amaliy koʻnikma va ilmiy ishning uygʻunligi.

Xulosa. Mashinaviy oʻqitish biotibbiyotni "taxminiy fan"dan aniq bashorat qiluvchi fanga aylantirmoqda. Lekin muhim eslatma: AI shifokor oʻrniga emas, balki uning eng aqlli yordamchisi sifatida ishlaydi. Kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti — biologiya, tibbiyot va sunʼiy intellektni birlashtiruvchi mutaxassislarni tarbiyalashda yotadi.

Chirchiq shahridagi kichik laboratoriyadan boshlab, dunyo miqyosidagi tibbiy markazlargacha — har bir qadamda maʼlumotlar tahlili va MO inson salomatligini himoya qilishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Va bu yoʻlda birinchi qadam — zamonaviy taʼlimdan boshlanadi.

Adabiyotlar

- 1.Esteva, A., et al. (2023). Deep learning for digital pathology image analysis: A comprehensive tutorial with selected use cases. NPJ Digital Medicine, 6(1), 45.
- 2.Murdoch, T. B., & Detsky, A. S. (2022). The inevitable application of big data to health care. JAMA, 327(18), 1795–1796.
- 3.Yala, A., et al. (2023). A deep learning model to detect breast cancer earlier. Radiology: Artificial Intelligence, 5(2), e220263.
- 4.Jumper, J., et al. (2024). Highly accurate protein structure prediction with AlphaFold 3. Nature, 626(7998), 70–79.
- 5.Lee, J., et al. (2022). BioBERT: a pre-trained biomedical language representation model. Bioinformatics, 38(4), 1217–1222.
- 6.Hoadley, K. A., et al. (2022). Multiplatform analysis of 12 cancer types reveals molecular classification within and across tissues of origin. Cell, 185(15), 2775–2790.
- 7.Chen, R. J., et al. (2021). Scaling vision transformers to gigapixel images via hierarchical self-supervised learning. CVPR, 11557–11567.
- 8.Al-Maadeed, S., et al. (2022). Machine learning for cardiovascular disease prediction using EHR data. IEEE Access, 10, 45678–45690.
- 9.Elnaggar, A., et al. (2021). ProtTrans: Towards cracking the language of life's code through self-supervised deep learning. IEEE/ACM Transactions on Computational Biology, 18(3), 1259–1273.
10. Chaudhary, K., et al. (2021). Deep learning-based multi-omics integration robustly predicts survival in liver cancer. Clinical Cancer Research, 27(8), 2299–2307.

СОВРЕМЕННЫЕ РЕКОМЕНДАЦИИ, СТАНДАРТЫ В ТЕОРИИ И ПРАКТИКЕ МЕДИКО-БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК

Рашидова Г. А

Студентка 2 курса лечебного факультета

Университет Зармед, Бухара, Узбекистан

Аннотация. Современные медико-биологические науки являются основой развития эффективной системы здравоохранения и внедрения научно обоснованных методов профилактики, диагностики и лечения заболеваний. В Республике Узбекистан, несмотря на проводимые реформы, сохраняется ряд актуальных проблем, связанных с недостаточной интеграцией научных достижений в клиническую практику, ограниченным внедрением современных

клинических рекомендаций и необходимостью повышения уровня профессиональной подготовки медицинских кадров. В статье рассматриваются ключевые направления развития медико-биологических наук, анализируются существующие проблемы и обосновывается необходимость внедрения современных стандартов, национальных клинических рекомендаций и программ непрерывного медицинского образования. Отмечается значимость научных исследований и международного сотрудничества для повышения качества медицинской помощи и укрепления научного потенциала страны.

Ключевые слова: медико-биологические науки, здравоохранение, клинические рекомендации, медицинское образование, научные исследования, Узбекистан.

Abstract. Modern medical and biological sciences play a key role in the development of an effective healthcare system and in the implementation of scientifically grounded methods of disease prevention, diagnosis, and treatment. In the Republic of Uzbekistan, despite ongoing reforms, a number of pressing challenges remain, including insufficient integration of scientific achievements into clinical practice, limited implementation of modern clinical guidelines, and the need to improve the professional training of medical personnel. This article examines the main directions of development of medical and biological sciences, analyzes existing problems, and substantiates the necessity of introducing modern standards, national clinical guidelines, and continuous medical education programs. The importance of scientific research and international collaboration for improving the quality of healthcare services and strengthening the country's scientific potential is emphasized.

Keywords: medical and biological sciences, healthcare system, clinical guidelines, medical education, scientific research, Uzbekistan.

Введение. Современные медико-биологические науки играют ключевую роль в развитии системы здравоохранения любого государства. Узбекистан, как и многие другие страны, сталкивается с рядом проблем в этой области, что требует внедрения новых стандартов и рекомендаций для улучшения качества медицинских услуг и повышения эффективности научных исследований [1-5].

Одной из главных проблем, с которыми сталкивается Узбекистан в области медико-биологических наук, является недостаточный уровень интеграции научных достижений в практическое здравоохранение. Это проявляется в недостатке современных методов диагностики, лечения, а также в отсутствии актуальных клинических рекомендаций, основанных на больших данных и современных исследованиях [6-10]. Многие заболевания, такие как сердечно-сосудистые и онкологические, требуют комплексного подхода, который сейчас, к сожалению, не всегда реализуется.

Кроме того, уровень квалификации медицинских работников также часто

остается на недостаточно высоком уровне, что может быть связано с недостатками в образовательной системе и недостатком практических навыков. Несмотря на наличие медицинских вузов, необходимо уделять больше внимания повышению квалификации специалистов, а также внедрению новых образовательных стандартов, соответствующих мировым требованиям.

Для решения обозначенных проблем необходимо разработать и внедрить современные рекомендации и стандарты в медико-биологических науках. Важным шагом может стать создание национальной системы клинических рекомендаций, учитывающей как международные стандарты, так и особенности и потребности населения Узбекистана.

Также следует акцентировать внимание на необходимости повышения квалификации медицинских работников через внедрение программ непрерывного медицинского образования, включающих семинары, тренинги и курсы по современным методам лечения и диагностики. Важную роль играет и обмен практическим и теоретическим опытом между медицинскими работниками Узбекистана и зарубежных стран.

Важно развивать научные исследования в области медицины и биологии, создавать условия для привлечения молодых ученых и финансирования их проектов. Установление партнерств с международными исследовательскими центрами и университетами позволит значительно расширить научный потенциал и профессиональный опыт специалистов.

Обсуждение. Представленный в работе анализ позволяет выделить ряд ключевых проблем, характерных для современного состояния медико-биологических наук и системы здравоохранения Узбекистана. Одной из наиболее значимых является недостаточная интеграция результатов научных исследований в практическое здравоохранение. Несмотря на активное развитие биомедицинских технологий и доказательной медицины в мире, внедрение научных достижений в клиническую практику осуществляется ограниченно, что снижает эффективность медицинской помощи и потенциал научных разработок.

Существенное значение имеет и неоднородный уровень подготовки медицинских кадров. Хотя медицинские вузы обеспечивают базовое теоретическое образование, уровень практических навыков и доступ к современным клиническим рекомендациям остаются недостаточными. Подобные проблемы отмечаются и в других странах с развивающейся системой здравоохранения, где ограниченные возможности непрерывного медицинского образования негативно отражаются на качестве оказания медицинских услуг.

Отсутствие единой национальной системы клинических рекомендаций также усложняет стандартизацию медицинской помощи. Международные протоколы не всегда могут быть напрямую применены в условиях национальной системы

здравоохранения вследствие различий в эпидемиологических, экономических и ресурсных факторах. В связи с этим разработка адаптированных, научно обоснованных национальных клинических рекомендаций является необходимым шагом для повышения качества диагностики и лечения.

Отдельного внимания заслуживает вопрос развития научных исследований и вовлечения молодых специалистов в научную деятельность. Раннее приобщение студентов и молодых врачей к исследовательской работе способствует формированию клинического мышления, повышению научной грамотности и укреплению кадрового потенциала отрасли. Международное сотрудничество с научно-исследовательскими центрами и университетами может способствовать обмену опытом и повышению методологического уровня исследований.

Таким образом, обсуждаемые проблемы свидетельствуют о необходимости комплексного подхода, направленного на развитие медико-биологических наук, совершенствование медицинского образования и внедрение научно обоснованных стандартов в клиническую практику. Реализация данных мер будет способствовать формированию эффективной системы здравоохранения и улучшению показателей здоровья населения.

Заключение. Можно отметить, что внедрение современных рекомендаций и стандартов, повышение квалификации медицинских работников и активное развитие научных исследований являются ключевыми факторами улучшения системы здравоохранения Узбекистана. Эти меры помогут повысить качество медицинского обслуживания и эффективно использовать достижения науки ради здоровья населения.

Список литературы

1. World Health Organization. Global Strategy on Human Resources for Health: Workforce 2030. Geneva: WHO; 2016.
2. World Health Organization. Strengthening health systems through evidence-based clinical guidelines. Geneva: WHO; 2019.
3. Frenk J, Chen L, Bhutta ZA, et al. Health professionals for a new century: transforming education to strengthen health systems in an interdependent world. *The Lancet*. 2010;376(9756):1923–1958.
4. Institute of Medicine (US). Clinical Practice Guidelines We Can Trust. Washington (DC): National Academies Press; 2011.
5. Sackett DL, Rosenberg WM, Gray JA, Haynes RB, Richardson WS. Evidence based medicine: what it is and what it isn't. *BMJ*. 1996;312(7023):71–72.
6. World Bank. Improving Health System Performance: Evidence-Based Approaches. Washington, DC: World Bank; 2020.
7. Greenhalgh T, Howick J, Maskrey N. Evidence based medicine: a movement in crisis? *BMJ*. 2014;348:g3725.
8. OECD. Health at a Glance: Asia/Pacific 2022. Measuring Progress Towards Universal Health Coverage. Paris: OECD Publishing; 2022.
9. Cook DA, West CP. Perspective: reconsidering the focus on “outcomes research” in medical education. *Academic Medicine*. 2013;88(2):162–167.
10. World Health Organization. Research for universal health coverage: World Health Report 2013. Geneva: WHO; 2013.

TEMIR YETISHMOVCHILIGI ANEMIYASI: YASHIRIN CHARCHOQLARDAN SOG'LOM HAYOT SARI.

Axtamova M. F.

Davolash ishi yo'nalishi, 1-kurs talabasi

Zarmed universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dunyo aholisi orasida eng ko'p tarqalgan patologik holatlardan biri — temir yetishmovchiligi anemiyasi tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi kasallikning kelib chiqish sabablari, uning organizmga ko'rsatadigan salbiy ta'siri va zamonaviy tashxislash usullarini yoritishdan iborat. Izlanishlarim davomida temir moddasining gemoglobin sintezidagi o'rni va hujayralarni kislorod bilan to'yintirishdagi ahamiyatini ko'rib chiqdim. Shuningdek, maqolada anemiyaning klinik belgilari, profilaktika chora-tadbirlari va ratsional ovqatlanish tamoyillariga alohida urg'u berilgan. Mazkur ish temir tanqisligini barvaqt aniqlash va aholining tibbiy madaniyatini oshirish orqali salomatlikni tiklash bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: gemoglobin, ferritin, temir tanqisligi, mikrositoz, gipoxromiya, profilaktika.

Аннотация. В статье анализируется одно из наиболее распространённых патологических состояний среди населения мира — железодефицитная анемия. Целью работы является рассмотрение причин возникновения заболевания, его негативного влияния на организм, а также современных методов диагностики. В ходе исследования проанализирована роль железа в синтезе гемоглобина и обеспечении клеток кислородом. Кроме того, в статье особое внимание уделено клиническим проявлениям анемии, мерам профилактики и принципам рационального питания. Представленная работа содержит практические рекомендации, направленные на раннее выявление дефицита железа и повышение уровня медицинской грамотности населения с целью восстановления и сохранения здоровья.

Ключевые слова: гемоглобин, ферритин, дефицит железа, микроцитоз, гипохромия, профилактика.

Abstract. This article analyzes one of the most widespread pathological conditions among the world's population—iron deficiency anemia. The aim of the study is to examine the causes of the disease, its negative impact on the human body, and modern diagnostic methods. The role of iron in hemoglobin synthesis and in ensuring adequate oxygen delivery to cells is analyzed. Special attention is given to the clinical manifestations of anemia, preventive measures, and principles of rational nutrition. The study also provides practical recommendations for the early detection of iron deficiency and for improving public medical awareness in order to maintain and restore health.

Keywords: hemoglobin, ferritin, iron deficiency, microcytosis, hypochromia,

prevention.

Kirish. Siz hech o'zingizni sababsiz charchagan, uyquga to'ymaydigan yoki diqqatingizni jamlashga qiynaladigan holatda his qilganmisiz? Ko'pincha biz buni ish ko'pligi yoki stressga yo'yamiz [1-5]. Biroq, bu belgilar ortida organizmimizdagi jiddiy muammo – temir yetishmovchiligi anemiyasi yashiringan bo'lishi mumkin. Dunyo miqiyosida har uch kishidan biri ushbu holatdan aziyat chekadi. Temir nafaqat qonning “bo'yog'i”, balki u butun tanamizni kislarod bilan ta'minlovchi energiyadir [6-9].

Ushbu maqolada men temir tanqisligi nega yuzaga kelishi va undan qanday qutilish mumkinligi haqida o'z izlanishlarim va kuzatuvlarimni bayon qilaman.

Muammoning mohiyati va sabablari. Temir yetishmovchiligi anemiyasi – bu organizmda temir moddasi kamayishi natijasida gemoglobin hosil bo'lishining buzilishidir. Gemoglobin esa o'pkadan kislarodni olib, uni har bir hujayramizga yetkazib beradi. Agar temir kam bo'lsa, hujayralar “bo'g'ila” boshlaydi.

Nima uchun bu holat yuzaga keladi? Birinchidan, bizning noto'g'ri ovqatlanishimiz. Ko'pchilik “kamqonman” deb olma yoki anor yeyishni boshlaydi, lekin aslida bizga “gemli temir”, ya'ni go'sht mahsulotlari ko'proq kerak.

Ikkinchidan, surunkali qon yo'qotishlar (masalan, ayollarda fiziologik jarayonlar) zaxiralarni tugatadi. Uchinchidan esa, oshqozon-ichak tizimidagi muammolar sababli biz yegan ovqatdagi temir qonga so'rilmaydi.

Klinik belgilar: Tanamiz nimadan shikoyat qiladi? Anemiya “ayyor” kasallikdir, u sekin-asta rivojlanadi. Men ko'p kuzatgan belgilar orasida:

Teri shilliq qavatlarning oqarishi: Ayniqsa ko'z kon'yuktivasi va lablar rangsizlanadi.

Sideropenik sindrom: Tirnoqlar mo'rt bo'lib qoladi, sochlar to'kiladi, og'iz burchaklarida bitmaydigan yaralar (zaydalar) paydo bo'ladi. G'alati ishtaha: Odamning bo'r, kesak yoki xom xamir yegisi kelishi – bu aniq temir tanqisligi belgisidir.

Diagnostika va davolashdagi xatolar. Ko'pchilik faqat umumiy qon tahlili (gemoglobin) bilan cheklanadi. Ammo bu xato. Organizmdagi haqiqiy holatni bilish uchun ferritin (temir zaxirasi) tahlilini topshirish shart. Gemoglobin normal bo'lsa-yu ferritin past bo'lsa, bu “yashirin anemiya” deyiladi.

Davolashda esa sabr kerak. Faqat dieta bilan (go'sht, jigar yeb) anemiyani davolab bo'lmaydi – u faqat profilaktika uchun. Mavjud tanqislikni shifokor tavsiya qilgan temir preparatlari bilan kamida 3–6 oy davomida to'ldirish lozim. Shuni yodda tutish kerakki, temir preparatlarini choy yoki kofe bilan ichish ularning so'rilishini 70–80% ga kamaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, temir yetishmovchiligi anemiyasi bu shunchaki tashxis emas, balki hayot sifatining pasayishidir. Izlanishlarim natijalarini umumlashtirilgan holda shuni ta'kidlash lozimki, temir yetishmovchiligi anemiyasi ko'p omilli patologiya

bo'lib, unga qarshi kurashish kompleks yondashuvni talab etadi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, anemiyani barvaqt aniqlashda nafaqat standart gematologik tahlillar, balki metabolik markerlarni (ferritin, transferin) tekshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Profilaktika choralarini takomillashtirish uchun aholi o'rtasida nutritiv savodxonlikni oshirish, oziq-ovqat mahsulotlarini temir preparatlari bilan boyitish va xavf guruhidagi shaxslarni (ayollar va bolalar) muntazam ko'rikdan o'tkazish zarur. Kelajakda tadqiqotlar temirning hujayra darajasidagi transport oqsillari va gepsidin gormonining anemiyani boshqarishdagi rolini yanada chuqurroq o'rganishga yo'naltirilishi lozim. Bu esa har bir bemor uchun individual va samarali davolash algoritmlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Ahmedov A. "Gematalogiya asoslari", 2022.
2. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO) ma'ruzalari, 2023.
3. Ichki kasalliklar propedevtikasi, o'quv qo'llanma, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi klinik bayonnomalari.
5. Sh A. N., Mukhamadiev N. Q. Assessment of Hemodynamic Parameters by Type of Anemia in Children with Chronic Kidney Disease //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2024. – T. 5. – №. 4. – C. 230-238.
6. Абдукадыров А. А. и др. Доктор ахборотномаси вестник врача doctor's herald.
7. Shuxratovna A. N. Comparative Analysis of Iron Metabolism Parameters in Children with Chronic Kidney Disease with and without Anemia.
8. Shuxratovna A. N. Evaluation of hemodynamic parameters after treatment of functional anemia in children with chronic kidney disease //Frontline Medical Sciences and Pharmaceutical Journal. – 2024. – T. 4. – №. 10. – C. 38-47.
9. "Journal of Hematology Oncology", zamonaviy davolash usullari, 2024.
11. World Health Organization. Research for universal health coverage: World Health Report 2013. Geneva: WHO; 2013.

HAMSHIRALIK AMALIYOTIDA BEMOR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI

Soliyeva Shahzoda Zohid qizi

Zarmed universiteti, Oliy hamshiralik ishi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: *Xamidova Farangiz Uktamovna*

Terapevtik fanlar kafedrasida assistenti

Zarmed universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan eng muhim vazifalaridan biri - bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ularning xavfsizligini ta'minlashdir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti statistik ma'lumotlarga ko'ra, tibbiy yordam jarayonida yuz beradigan xatoliklar va noxush holatlar ko'plab bemorlarning sog'lig'iga zarar yetkazmoqda. Shu sababli, bemor xavfsizligini ta'minlash masalasi global miqyosda dolzarb yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Kalit so'zlar: Hamshiralik ishi, bemor xavfsizligi, infeksiya nazorati, dori vositalari,

klinik protokollar, sogʻliqni saqlash, zamonaviy texnologiyalar, hamshira malakasi, xalqaro tajriba.

Аннотация. В последние годы одной из важнейших задач, стоящих перед системой здравоохранения, является повышение качества оказываемой пациентам медицинской помощи и обеспечение их безопасности. По данным Всемирной организации здравоохранения, ошибки и неблагоприятные события, возникающие в процессе оказания медицинской помощи, наносят ущерб здоровью значительного числа пациентов. В связи с этим проблема обеспечения безопасности пациента рассматривается как одно из наиболее актуальных направлений в глобальном масштабе.

Ключевые слова: сестринское дело, безопасность пациента, инфекционный контроль, лекарственные средства, клинические протоколы, здравоохранение, современные технологии, квалификация медицинской сестры, международный опыт.

Abstract. In recent years, one of the most important tasks facing the healthcare system has been to improve the quality of medical care provided to patients and to ensure their safety. According to statistical data from the World Health Organization, errors and adverse events occurring during the provision of medical care cause harm to the health of many patients. Therefore, ensuring patient safety is considered a highly relevant issue on a global scale.

Keywords: nursing, patient safety, infection control, medications, clinical protocols, healthcare, modern technologies, nurse competence, international experience.

Kirish. Hamshiralik xodimlari tibbiy xizmatning asosiy tayanchi hisoblanadi. Ular bemor bilan bevosita muloqot qiluvchi, davolash-parvarish jarayonini amalda ta'minlovchi mutaxassislar bo'lib, bemor xavfsizligi darajasini belgilovchi eng muhim inson resursi sanaladi. Bugungi kunda hamshiralik ishi faqat parvarish bilan chegaralanib qolmay, balki profilaktika, sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, ta'limiy faoliyat va psixologik qo'llab-quvvatlash kabi keng qamrovli yoʻnalishlarni ham oʻz ichiga olmoqda [3-5].

Bemor xavfsizligi - bu tibbiy yordam jarayonida bemorga zarar yetkazilishining oldini olishga qaratilgan kompleks chora- tadbirlar tizimi [1,2]. U quyidagi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi:

Infeksion nazorat - kasalxonada yuqumli kasalliklarning tarqalishining oldini olish;

Texnik xavfsizlik - tibbiy asbob- uskunalaridan toʻgʻri foydalanish;

Favqulotda yordam koʻrsatish - hayot uchun xavfli vaziyatlarda tezkor chora koʻrish;

Bemor xavfsizligi tibbiy yordam sifatining eng muhim koʻrsatkichi boʻlib, uni ta'minlash sogʻliqni saqlash tizimida xizmat koʻrsatish darajasini belgilaydi.

Hamshiralarning roli

Hamshiralar - bemor xavfsizligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydigan mutaxassislardir. Chunki ular:

Bemor bilan uzluksiz muloqotda bo'ladi - hamshiralar bemorning ahvolini doimiy kuzatadi, holatidagi o'zgarishlarni tezda aniqlaydi va shifokorga xabar beradi.

Davolash- profilaktik jarayonlarni amalga oshiradi- in'ektsiya, infuziya, bog'lam, fizioterapiya kabi ko'plab manipulyatsiyalarni to'g'ri va xavfsiz bajaradi;

Favqulotda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatadi- yurak massaji, sun'iy nafas berish, defibrillyatsiya kabi muolajalarni bajarishga tayyor bo'lishi zarur.

Bemor xavfsizligiga tahdid soluvchi muammolar

Bugungi kunda hamshiralik amaliyotida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular bemor xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

Stress va charchoq- yuqori ish bosimi, tungi navbatchilik va psixologik zo'riqish xatoliklar ehtimolini oshiradi.

Malaka yetishmovchiligi- zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi.

Infeksion nazorat qoidalariga rioya qilinmasligi- antiseptika va aseptika talablariga e'tibor yetarli bo'lmagan hollarda kasalxona ichi infeksiyalari tarqaladi.

Bemor xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar.

Muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib borish dolzarb hisoblanadi:

Kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish muntazam ravishda amaliy treninglar va simulyatsion mashg'ulotlar o'tkazish; xalqaro standartlar asosida o'quv dasturlarini joriy etish.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish elektron tibbiy kartalar, xavfsizlik tizimlari, avtomatlashtirilgan dori hisoboti dasturlarini qo'llash.

Hamshiralik ishida bemor xavfsizligi bo'yicha xalqaro tajriba. Rivojlanagan mamlakatlarda bemor xavfsizligi bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqilgan. Masalan:

Yaponiyada - " Zero harm" konsepsiyasi asosida infeksiyalar va xatoliklarni kamaytirish choralari;

Yevropa davlatlarida- elektron kuzatuv tizimlari va avtomatlashtirilgan dori tarqatish apparatlari keng qo'llaniladi.

Xulosa. Hamshiralik amaliyotida bemor xavfsizligini ta'minlash-bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu nafaqat kasbiy malaka va tajriba, balki mas'uliyat, insonparlik va doimiy o'qib o'rganishni talab etadi. Hamshiralarning bilim va ko'nikmalari zamon talabiga mos bo'lishi, ular xalqaro standartlarga asoslangan klinik protokollarni amaliyotga tatbiq etishi lozim.

Adabiyotlar

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). Patient Safety: Global Action on Patient Safety. Geneva: World Health Organization, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi: 2022-2026 yillarga mo'ljallangan sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish strategiyasi. Toshkent, 2022.
4. O'zbekiston hamshiralik ishi assotsiatsiyasi materiallari. Hamshiralik faoliyatida sifat va xavfsizlik masalalari. Toshkent, 2023.
5. European Society for Quality in Healthcare. Patient Safety Strategies in Nursing Practice. Brussel, 2019.

XITOZAN (BOMBYX MORI) GIDROKSIAPATITINING BROYLAR JO'JALARI ICHAK MIKROFLORASIDAGI LAKTO VA BIFIDOBAKTERIYALAR SONIGA TA'SIRI

Toshmurodov Diyor Sobir o'g'li

Zarmed universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Eshimov Dusmurat XXX

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Tajriba uchun Ross 308 krossiga mansub 100 bosh jo'jalar olinib 4 ta guruh tuzildi. Har bir guruhda 25 boshdan bo'lib, jumladan: 1-guruh jo'jalari qiyosiy nazorat guruhi bo'lib 42 kunlik tajriba oxirigacha xo'jalik ratsioni bilan oziqlantirildi. 2, 3, 4-guruhlar tajriba jo'jalari hisoblanib xitozan gidroksiapatit immunomadulyatorining 70/30 fraksiyasini 15-25 kun oralig'ida 10 kun davomida Rost (RO-6-5) ozuqa ratsioniga, keyinchalik 32-42 kun oralig'ida yana 10 kun davomida Finish (RO-6) oziqa ratsioniga qo'shib berildi. 2- tajriba guruhiga 0,4 g/kg, 3- tajriba guruhiga 0,7 g/kg, 4- tajriba guruhiga 1,0 g/kg oziqasiga qo'shib berildi. Preparatlarning samaradorlik ko'rsatkichlari tajriba davomida lakto va bifidobakteriyalarining soni bilan aniqlandi.

Kalit so'zlar: xitozan, immunomadulyator, mikroflora, laktobakteriya, bifidobakteriya, oshqozon-ichak trakti.

Аннотация. Для проведения эксперимента были отобраны 100 цыплят кросса Ross 308 и сформированы 4 группы. В каждой группе содержалось по 25 голов. Цыплята 1-й группы служили сравнительной контрольной группой и до окончания 42-дневного опыта получали стандартный хозяйственный рацион. 2-я, 3-я и 4-я группы являлись опытными. В рацион цыплят этих групп добавляли иммуномодулятор хито-зан-гидроксиапатит фракции 70/30: в возрасте 15–25 дней в течение 10 дней — в составе стартового корма Rost (RO-6-5), затем в возрасте 32–42 дней в течение ещё 10 дней — в составе финишного корма Finish (RO-6). Во 2-й опытной группе препарат добавляли из расчёта 0,4 г/кг корма, в 3-й группе — 0,7 г/кг, в 4-й группе — 1,0 г/кг корма. Эффективность применения препаратов в ходе эксперимента оценивали по количеству лакто- и бифидобактерий.

Ключевые слова: хитозан, иммуномодулятор, микрофлора, лактобактерии, бифидобактерии, желудочно-кишечный тракт

Abstract. For the experiment, 100 chicks of the Ross 308 cross were selected and divided into four groups, with 25 chicks in each group. The chicks of Group 1 served as the comparative control group and were fed a standard farm diet until the end of the 42-day experiment. Groups 2, 3, and 4 were experimental groups. An immunomodulator, chitosan hydroxyapatite (70/30 fraction), was added to the diet of the experimental groups: from days 15 to 25 for 10 days as part of the starter feed Rost (RO-6-5), and subsequently from days 32 to 42 for another 10 days as part of the finisher feed Finish (RO-6). The additive was administered at doses of 0.4 g/kg of feed in the 2nd experimental group, 0.7 g/kg in the 3rd group, and 1.0 g/kg in the 4th group. The effectiveness of the preparations during the experiment was evaluated based on the counts of lactobacilli and bifidobacteria.

Keywords: chitosan, immunomodulator, microflora, lactobacilli, bifidobacteria, gastrointestinal tract.

Kirish. Respublikada parrandachilik sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ichki va tashqi bozorlarga yo'naltirish uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, parrandachilik xo'jaliklarining ozuqaga bo'lgan talabini barqaror ta'minlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish, sohaga keng aholi qatlamlarini jalb etish va huquqiy madaniyatini oshirish, shuningdek, tarmoqda ilmiy-texnik yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida davlatimiz tomonidan parrandachilikka juda katta e'tibor qaratilmoqda [1, 2].

Bugun dunyodagi kabi mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda parrandachilikni rivojlantirish muhim omil hisoblanib, aholini parhez parranda go'shti va oqsilga boy tuxum bilan ta'minlashda sohaning beqiyos o'rni mavjud.

Shu sababli parrandashunoslar oldiga juda katta vazifalar yuklanadi: parrandalar bosh soni va ulardan olinadigan mahsulot sifati va miqdorini oshirish, ularning irsiy potensialini yaxshilash, parrandalarni saqlash va oziqlantirishning resurs tejankor texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilish va mahsulot birligiga sarf harajatlarni kamaytirish kabi vazifalarni yuklaydi [3, 4, 5].

Ovqat hazm qilish tizimining sog'lom ishlashi uchun uning mikrobiotsenozining normal holati muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy chorvachilikning muhim muammosi bu tabiiy biokorrektorlar yordamida foydali mikrofloraning ustunligini maqsadli shakllantirishdir [6].

Ichak salomatligi - bu oziqlanish muammolarini o'z ichiga olgan murakkab mavzu mikrobiologiya, fiziologiya va ishlab chiqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [7].

Xitozan gidroksiapatit boshqa biologik faol moddalar (limon va askorbin kislotalari, E, K, A vitaminlari) bilan birgalikda parrandalarning immunitet holatini oshiradi.

Xitozan gidroksiapatit oshqozon-ichak traktida ozuqa moddalarining so'rilishini

yaxshilash, ichki yog‘ni kamaytirish kabi ta’sirlar mavjud [8].

Materiallar va tadqiqotlar. Ilmiy tadqiqot ishlari Samarqand shahar “Afrosiyob parranda” MChJ ning parrandachilik fermasida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida Ross -308 krossiga mansub bir kunlik jo‘jalar olindi. Jo‘jalar 15 kunlik bo‘lganida oddiy tarozida o‘lchanib analoglar bo‘yicha 4 ta guruh tuzildi. Har bir guruhda 25 boshdan bo‘lib tirik vaznidagi farq ± 15 gr. Jumladan: 1-guruh jo‘jalari qiyosiy nazorat guruhi bo‘lib 42 kunlik tajriba oxirigacha xo‘jalik ratsioni bilan oziqlantirildi. 2, 3, 4-guruhlar tajriba guruh jo‘jalari hisoblanib xitozan gidroksiapatit immunomadulyatorining 70/30 fraksiyasini 15-25 kun oralig‘ida 10 kun davomida Rost (RO-6-5) ozuqa ratsioniga, keyinchalik 32-42 kun oralig‘ida yana 10 kun davomida Finish (RO-6) oziqa ratsioniga qo‘shib berildi. 2- tajriba guruhiga 0,4 g/kg, 3- tajriba guruhiga 0,7 g/kg, 4-tajriba guruhiga 1,0 g/kg oziqasiga qo‘shib berildi.

Ko‘richak ximusidagi laktobakteriyalar va bifidobakteriyalar sonini aniqlash maqsadida klassik mikrobiologik hisoblash usullaridan biri — Koxxning qatlamli ekish (plato-count) metodidan foydalanildi.

Preparatning samaradorlik ko‘rsatkichlari tajriba davomida olingan lakto va bifidobakteriyalarining soni bilan aniqlandi.

Natijalar. Xitozan (*bombyx mori*) gidroksiapatit kompozitlarini tajriba guruhlariga belgilangan miqdor va muddatda berilganda ichak mikroflorasida quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi. Olingan ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan (1 jadval).

1 jadval

Xitozan (*bombyx mori*) gidroksiapatit kompozitlarining broyler jo‘jalari ichak mikroflorasidagi lakto- va bifidobakteriyalar soniga ta’siri

Yoshi	1-nazorat guruhi	2-tajriba guruhi	3-tajriba guruhi	4-tajriba guruhi
1 kun	$2,16 \times 10^7 \pm 0,4 \times 10^7$	$2,16 \times 10^7 \pm 0,4 \times 10^7$	$2,16 \times 10^7 \pm 0,4 \times 10^7$	$2,16 \times 10^7 \pm 0,4 \times 10^7$
20 kun	$1,34 \times 10^8 \pm 0,7 \times 10^8$	$4,36 \times 10^7 \pm 0,4 \times 10^7$	$2,45 \times 10^8 \pm 0,1 \times 10^8$	$2,11 \times 10^8 \pm 0,2 \times 10^8$
30 kun	$2,29 \times 10^7 \pm 1,2 \times 10^7$	$2,40 \times 10^8 \pm 1,3 \times 10^8$	$3,21 \times 10^7 \pm 1,7 \times 10^7$	$1,8 \times 10^8 \pm 0,4 \times 10^8$
40 kun	$1,37 \times 10^9 \pm 0,3 \times 10^9$	$4,15 \times 10^{10} \pm 0,5 \times 10^{10}$	$4,88 \times 10^{10} \pm 1,1 \times 10^{10}$	$3,98 \times 10^{10} \pm 0,6 \times 10^{10}$

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan preparat Xitozan (*bombyx mori*) gidroksiapatit kompozitlari lakto- va bifidobakteriyalar tarkibiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. 20-kungacha tegishli yoshdagi to‘liq ozuqa olgan nazorat guruhidagi jo‘jalarda lakto va bifidobakteriyalar miqdori ko‘paygan, keyin 30-kungacha pasayish kuzatilgan. Tajribaning 40-kuniga kelib bakteriyalar soni yana ko‘paygan. 1 g axlatda $2,29 \times 10^7$ dan $1,37 \times 10^9$ gacha.

Tabiiy Xitozan (*bombyx mori*) gidroksiapatit kompozitlarini olgan broyler jo‘jalarining barcha tajriba guruhlarida preparatni qo‘llash davrida lakto- va

bifidobakteriyalarning ko'payishi qayd etilgan, ammo eng katta o'sish 3-tajriba guruhida kuzatilgan. Xitozan (*bombyx mori*) gidroksiapatitini 0,7 g/kg dozada qabul qilganda lakto- va bifidobakteriyalar soni $3,21 \times 10^7$ dan $4,88 \times 10^{10}$ gacha ko'paydi.

Muhokama. Tadqiqot ishining maqsadi Xitozan (*bombyx mori*) gidroksiapatit kompozitining tez o'sadigan Ross-308 broyler jo'jalarining oshqozon-ichak mikroflorasiga ta'sirini o'rganishdan iborat edi, shuningdek, parrandalarni saqlash sharoitiga qarab, uni mahsuldorligiga ta'sir doirasi o'rganildi. Xitozan (*bombyx mori*) gidroksiapatit kompoziti ozuqaning hazm bo'lishini yaxshilash, qishloq xo'jaligi hayvonlari, jumladan, parrandalarning xavfsizligi, o'sishi va mahsuldorligini oshirish uchun ishlatiladi [9, 10].

Mazkur preparat ichak mikroflorasi faoliyatini yaxshilash uchun kompozitsiya hisoblanadi. Sintezlangan moddalar (fermentlar, aminokislotalar va boshqa biologik faol moddalar) patogen va zararli mikrofloraning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, metabolismni faollashtiradi, natijada ozuqaning hazm bo'lishi yaxshilanadi va xavfsizligi ortadi.

Xulosa. Tabiiy kelib chiqishi Xitozan (*bombyx mori*) gidroksiapatit kompozitlari broyler tovuqlarining ichak mikrobiotsenoziga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. U parrandalar organizmi uchun profilaktik va terapevtik maqsadlarda ishlatilishi mumkin, chunki u zararli mikrofloraning o'sishiga to'sqinlik qiladi, ichaklardagi fiziologik muhitni normallashtirishga yordam beradi va ovqat hazm qilish tizimidagi turli guruhlarining mikroorganizmlari muvozanatini tiklaydi.

Adabiyotlar

1. D. Toshmurodov, D. Eshimov, D. Ibragimov, Q. Ergashev // "Xitozan bombyx mori gidroksiapatiti nano kompozitlarining broyler tovuqlari qonining morfologik ko'rsatkichlari va leykositar formulasiga ta'sirini o'rganish"// Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali 2022/11/22 B. 298-300.
2. D. Toshmurodov, S. Aliyarov, D. Yeshimov, D. Ibragimov, Effect of chitozan bombyx mori immunomodulator on the physiological state of chickens European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 10, October 2021, ISSN: 2660-5643 P. 6-9.
3. Б.Ф. Бессарабов. Лабораторная диагностика клинического и иммунобиологического статуса у сельскохозяйственной птицы / Б.Ф.Бессарабов, С.А.Алексеева, Л.В.Клетикова. – М.: КолосС, 2008. – 151 с.
4. Е.А. Алексеева, Влияние биологически активных веществ на иммунную защиту цыплят и кур-несушек / Е.А. Алексеева, Т.Ю. Гаврилова, Л.В. Клетикова //Свободные радикалы, антиоксиданты и здоровье животных: мат. межд. науч.- практ. конф. – Воронеж, 2006. – С. 345-350.
5. М.Е. Дмитриева, Ветеринарное благополучие – залог рентабельной работы птицеводческого предприятия / М.Е. Дмитриева // Птица и птицепродукты. –2014. – №1. – С. 23-25.
6. И.А. Рубинский. Иммунные стимуляторы в ветеринарии / И.А. Рубинский, О.Г. Петрова // Монография. – 2012. – 270 с.
7. Руководство по кормлению сельскохозяйственной птицы / И.А. Егоров, В.А. Манукян, Т.М. Околелова, Т.Н. Ленкова [и др.] // Под общей редакцией В.И. Фисинина и И.А. Егорова. – Сергиев Посад, 2015. – 199 с.
8. Q.X. Ergashev Bombyx mori xitozanining gidroksiapatit bilan kompozitlarining sintezi va xossalari// Diss. Kimyo fanlari bo'yicha PhD. Toshkent. 2021. С. 19-22.
9. И.В. Жуков, Изучение причин нарушений обмена веществ и низкой напряженности специфического иммунитета у кур-несушек / И.В. Жуков, А.А.Ушкова // Вестник Воронежского государственного университета инженерной технологии. – 2015. – №4. – С. 125-128.
10. М. Г. Петраш. Птицеводство России. История. Основные направления. Перспективы развития / М. Г. Петраш [и др.] – М.: КолосС, 2004. – 297 с.
11. Дуктов, А.П. Биополимеры, иммуностимуляторы и пробиотики в бройлерном птицеводстве / А.П. Дуктов, П.А. Красочко, И.С. Серуаков, В.И. Еремец [и др.] // Монография. – Горки, 2016. – с. 289.

EKOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLAR

Rahmonkulova Amira Ibrohim qizi

Oliy hamshiralik ishi yoʻnalishi talabasi

Zarmed universiteti, Samarqand, Oʻzbekiston

Annotatsiya. Mutaxassislik atamalarining katta qismini ekologik terminlar tashkil qiladi. Mazkur maqolada ekologiya faning kelip chiqishi uning turlari va oʻzbek allomalarimizning tabiat haqidagi fikrlari keltirib oʻtilgan. Ekologiya fani va uning qisqacha tarixi, uning boʻlimlari. Oʻzbekistonda oʻsimliklar va hayvonlarni oʻrganish ekologiyasi, muhit va ekologik omillar, ekosistemalar, populyatsiyalar ekologiyasi, biosfera haqida taʼlimot, inson ekologiyasi, tabiatni muhofaza qilish masalalari, Oʻzbekiston Qizil kitobiga kiritilgan oʻsimlik va hayvonlar tabiatni muhofaza qilishdagi xalqaro hamkorlik va ularning amaldagi faoliyati keng yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar. Populatsiyalar, turlar, biotsenozlar, biogetsenozlar, bioagronomiya.

Аннотация. Значительную часть терминологии различных специальностей составляют экологические термины. В данной статье рассмотрены происхождение науки экологии, её основные виды, а также взгляды узбекских учёных-мыслителей на природу и окружающую среду. Освещены краткая история экологии и её основные разделы, экология изучения растений и животных в Узбекистане, экологические факторы и среда обитания, экосистемы, экология популяций, учение о биосфере, экология человека и вопросы охраны природы. Особое внимание уделено растениям и животным, занесённым в Красную книгу Узбекистана, а также международному сотрудничеству в области охраны природы и его практической деятельности.

Ключевые слова. Популяции, виды, биоценозы, биогеноценозы, биоагрономия.

Abstract. A significant portion of professional terminology consists of ecological terms. This article discusses the origin of ecology as a science, its main types, and the views of Uzbek scholars and thinkers on nature and the environment. The paper highlights the brief history of ecology and its main branches, the ecology of studying plants and animals in Uzbekistan, environmental factors and habitats, ecosystems, population ecology, the concept of the biosphere, human ecology, and issues of nature conservation. Special attention is given to plant and animal species included in the Red Book of Uzbekistan, as well as to international cooperation in the field of environmental protection and its practical activities.

Keywords. Populations, species, biocenoses, biogeocenoses, bioagronomy.

Kirish. Jamiyati jadal rivojlanib borayotgan bir davrda tabiiy muvozanatni, yaʼni ekologik holatni yaxshilash, tabiatni muhofaza qilish dunyo miqyosiga ega boʻlgan muammo boʻlib qolmoqda. Inson tabiatning bir boʻlagi. Shuning uchun tabiatni

muhofaza qilish, uning boyliklaridan rejali va samarali foydalanish insonlarning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bundan ko`rinadiki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni kishilar baxt-saodati uchun xizmat qildirish muhim ilmiy va ijtimoiy - iqtisodiy muammo bo`lib, uni hal etishda, ya`ni tabiat bilan jamiyat orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda inson hayoti uchun va kelajak avlod manfaatlarini ko`zlab optimallashtirishda tabiiy fanlarning ahamiyati kattadir. Tabiiy boyliklarning xo`jalik muomalasiga kiritish va ulardan inson ehtiyojiga ko`proq sarf qilish kuchaygan sari ming yillar davomida barqaror bo`lib kelgan ekologik muvozanat buzilib, inson bilan tabiat o`rtasidagi munosabat murakkablashib, joylarda ekologik holat keskinlashib bormoqda [1].

Respublikada ekologik muammolar ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni rejalashtirish jarayonida uning ketidan keladigan noxushliklarni oldindan ko`rmaslik oqibatida kelib chiqdi. Chunonchi, 60-70 yillarda suv resurslarining haddan tashqari ko`p miqdorda samarasiz ishlatilishi qanday oqibatlarga olib kelishi o`ylab ham ko`rilmagan. Sug`oriladigan erlarda eng yuqori miqdorda turli zaharli kimyoviy moddalardan foydalanish, almashlab ekishni bo`g`ib qo`yish, paxta yakkahokimligiga keng yo`l ochish, erlarning meliorativ sharoitiga e`tibor bermaslik, chorvalar mahsuldorligini oshirish to`g`risida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirmaslik — joylarning tabiiy ekologik muhitlariga qarab turli mahalliy muammolarning qelib chiqishiga sabab bo`ldi [2].

Ekologiya tabiiy fanlar ichidagi mustaqil fan bo`lib, u tirik organizmlarning yashash sharoiti va ularning o`zi yashab turgan muxit bilan o`zaro murakkab munosabatlari hamda shu asosda vujudga keladigan qonuniyatlarini o`rganadi. Ch. Darvin turlararo munosabatlar xususida qimmatli fikrlar bayon qilgan bo`lsa-da, «ekologiya» tushunchasi fanga birinchi bo`lib 1866 yilda nemis biolog e. Gekkel tomonidan kiritilgan [3]. «Ekologiya»—yunoncha so`z bo`lib, uning ma`nosi tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o`zaro munosabatini bildiradi. Populyatsiyalar, turlar, biotsenozlar, biogeotsenozlar va biosfera kabi tushunchalar ekologiya fanining nazariy asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham ko`pincha umumiy ekologiya to`rt bo`limga bo`lib o`rganiladi, ya`ni autekologiya, populyatsion ekologiya, sinekologiya va biosfera haqidagi ta`limotlardir.

1. Autekologiya («autos»—yunoncha so`z bo`lib, «o`zi»degan ma`noni bildiradi) ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan munosabatlarini, turlarning qanday muhitga ko`proq va uzviy moslashganlini yoritadi.

2. Populyatsion ekologiya («populyas`on»— frantsuzcha so`z bo`lib, «aholi» degan ma`noni bildiradi) populyatsiyalar dinamikasi, ma`lum sharoitlarda turli organizmlar sonining o`zgarishi (biomassa dinamikasi) sabablarini tekshiradi.

3. Sinekologiya («sin»— yunoncha so`z bo`lib, uning ma`nosi «birgalikda» demakdir) biogeotsenozlarning tuzilishi va xossalarini, ayrim o`simlik va hayvon

turlarining o'zaroaloqalarini hamda ularning tashqi muhit bilan bo'lgan munosabatlarini o'rganadi.

4.Ekosistemalarni tadqiq qilishning rivojlanishi ekologiyaning yangi bir bo'limini, ya'ni biosfera (yunoncha «bios»— «hayot», «sfera»—«shar») haqidagi ta'limotni vujudga keltirdi. Ushbu ta'limotning asoschisi V. I. Vernadskiy hisoblanadi. Sayyoramizda tarqalgan organizmlar, ya'ni yer qobig'idagi mavjudotlar tizimi biosfera deb ataladi.)

Umumiy ekologiya fani bir necha tarmoqlarga ajratiladi. 1. Dinamik ekologiya. 2.Kosmik ekologiya. 3.«Katta» global megoekologiya. 4. Analitik ekologiya. 5.Amaliy ekologiya. 6.Sanoat, muhandislik va qishloq xo'jalik ekologiyasi. 7. Tibbiyot ekologiyasi «noozogeografiya». 8.Bioekologiya. 9.Landshaftlar ekologiyasi. 10.Inson ekologiyasi. (1921yil Borjee va Park). 11.Evolyutsion ekologiya.12. Demoekologiya. 13. Ijtimoiy ekologiya. 14. Shaharlar ekologiyasi.

XVII—XVIII asrlardagi ekologik ma'lumotlar tirik organizmlarning ayrim guruhlarini o'rganishga qaratilgan edi. XVIII asrda Rossiya o'lkasi bo'ylab o'tkazilgan sayohatlar natijalariga asoslanib, ko'pchilik sayyohlar (S. P. Krasheninnikov, V. I. Lepexin, P. G. Pallaslar) o'simliklar va hayvonot dunyosi iqlimning o'zgarishiga qarab o'zgarishi haqidagi fikrlarni o'z asarlarida bayon etganlar. J- Byuffon (1707—1778) ning ishlarida hayvonlarning tuzilishiga tashqi muhitning ta'siri masalasi ko'tarilgan edi. J. B. Lamark (1774—1829) dastlabki evolyutsion ta'limotni o'rta tashladi va o'simlik hamda hayvonlarning evolyutsion o'zgarishlarida eng muhimi— tashqi muhit ta'siri deb hisobladi. XIX asrdagi ekologik ma'lumotlar (A. Gumbol'dt, 1769—1859) o'simliklar geografiyasida yangi ekologik yo'nalishni keltirib chiqardi.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod ztgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrining eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning (870—950) ilmiy-falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to'liq aniqlanmagan. Nemis olimi M, K. Brokkel'manning ro'yxatida Forobiyning turli sohalarga oid 180 ta asarining nomi keltiriladi. Bu asarlar bir necha guruhlariga bo'linadi. Shulardan 11 guruhga Forobiyning tabiatshunoslik ilmi, amaliy faoliyat va hunarmandchilik masalalariga oid asarlari kiritiladi

Beruniy «Saydana» degan asarida 1116 tur dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Har bir o'simlik, hayvon va minerallarning xossalari, tarqalishi va boshqa xususiyatlari keltirilgan. Beruniy yoshlik davrlaridan boshlaboq tabiat shaydosi bo'lgan

Abu Ali ibn Sino (980—1037) jahon madaniyatiga buyuk hissa qo'shgan olimlardan

biridir. Yirik entsiklopedist olim sifatida u o'z davri ilmining deyarli barcha sohalari bilan shug'ullangan. Turli yozma manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi eslatiladi. Bizgacha esa uning 240 ta asari etib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida «Tib qonunlari» shoh asari tibbiyot ilmining qomusi bo'lib, o'rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho'qqisi hisoblanadi

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483—1530) ning nomi aytilganda ba'zilar uni shoir deb biladi. Uning g'azallari juda jozibador, har kimga manzur. Ammo Bobur faqat shoirgina bo'lmay, balki podshoh, sarkarda, tarixchi va mashshoq, ovchi va bog'bon, sayyoh va tabiatshunos ham bo'lgan. Bobur asarlari bamisoli tagi yo'q bir xazinadir. «Boburnoma» Boburning eng yirik asaridir. Asarda Boburning ko'rgan kechirganlari, yurgan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urf-odatlar, hayvonoti, o'simliklari va boshqalar tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan o'ziga keragicha ma'lumot topadi. Asar muhim atamalar va toponimik manbalarga boy. Unda er, suv, havo, turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi. «Boburnomani o'qigan va o'rgangan har bir kishi uni tabiat va geografiyani yaxshi bilgan o'lkashunos va olim yozgan degan xulosaga keladi. Bobur o'lkani bilgan kishilarni hurmat qilgan, ularning qadriga etgan va ular bilan hamisha maslahatlashgan. «Biron safarga chiqishdan oldin er, suv bilur kishilarni chorlab, atrof va tomonlar surishtirilar edi». Bobur har bir hududni ma'lum bir tartibda tasvirlaydi [1].

Ekofogiya yunoncha «oikos» (eykos) — yashash joyi, makon va «logos» — fan, so'zidan olingan bo'lib, tirik organizmlarning tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatini o'rganadigan biologik fan hisoblanadi Ekologiya *umumiy* yoki *xususiy hamda tarmoqli* bo'ladk *Utnumiyekologiya* yoki *sinekologiya* har xil sistemalar (populatsiyalar, jamoalar va ekosistemalar)ning tuzilishini, xossalarini hamda ularning funksional qonun-qoidalarni, *xususiy* ekologiya yoki *autekologiya* esa ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan o'zaro munosabatini, turlarning muhitgako'proq va uzviy moslashganligini o'rganadi. *Xususiy* ekologiya — o'simlik va hayvonlar ekologiyasidan iborat Ekologik rauammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotiga, hayotida xo'jalik ahamiyatiga e'lonlik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (stixiyali talafotlar, iqlimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshq.) har qanday hodisalar tushuniladi.

Ekologik muammolar 3 guruhga bo'linadi.

1. Umumbashariy (global).
2. Mintaqaviy (regional).
3. Mahalliy (lokal)

Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday umumbashariy muammolarga ba'zi bir misollar keltirish mumkin: *-Issiqxona samarasi*. Ya'ni atmosfera

tarkibida issiqxona gazlarining (karbonatangidridi, metan, azot chala oksidi va shu kabilarning) ko'payishinatisida yer yuzi isib, iqlim o'zgarib bormoqda. Bu to'g'rida iqlim va unio'zgarishi bo'limida batafsil ma'lumotlar keltiriladi. *Ozon qatlaminin siyraklanishi*. Ozon qatlami atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, u iqlimga va yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Ozon quyosh nurlari ta'sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo'ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni yutib qolib, yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi

Chuchuk suv muammosi. Chuchuk suvning biosferadagi roli juda katta. Gidrosferada chuchuk suv miqdori juda oz bo'lib, u 2,8 %ni tashkil etadi. Chuchuk suv zaxirasi asosan qutblardagi muzliklardir Jamiyatning rivojlanishi bilan aholining chuchuk suvga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Bizning asrimizda chuchuk suvdan foydalanish 7 marta ortgan. Yiliga 3—3,5 km³ suv sarflanmoqda. XXI asrga borib ushbu ko'rsatkich 1,5—2 marta ortish imkoniga ega. Daryolaming umumiy yillik oqimi yer yuzi bo'yicha 50 ming km³. Ammo bunday foydalanishda chuchuk suv yetishmasligi aniq.

Tirik tabiatdagi o' simlik va hayvon turuari sonining qisqarishi muammosi. Yer yuzidagi hayotni ta'minlashda o'simliklar dunyosi, ayuiqsa, o'rmonlarning ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi vaqtda yer yuzi quruqligining 25 %ni o'rmonlar tashkil etadi. Ular shimoliy yarim sharda va tropik mintaqalarda tarqalgan. Biroq hozirgi kunda o'rmonlarning holatini yaxshi deb bo'lmaydi. Chunki, har yili 3 mlrd m³ hajmda o'rmonlar qirg'qilmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich yaqin yillar orasida 1,5 martaga ortislu" mumkin.

Insoniyatni, ayniqsa, tropik va subtropik o'rmonlar muammosi tashvishga solmoqda. U yerlarda yiliga dunyo miqyosidagi qirg'qilishi kerak bo'lgan o'rmonlarning yarmidan ko'pi kesib tashlanmoqda. 160 mln gektar tropik o'rmonlar vayron bo'lgan, atigi yiliga 11 mln gektar maydon tiklanmoqda. Floraning kamayib ketishi **Qizfl kitob** yaratilishiga sabab bo'ldi

Birgina Samarqand shahrida atmosfera havosini ifloslantirishda kimyo zavodi, «Chinni ishlab chiqaruvchi», «Xolodilnik (muzlatgich)», vino-spirt, konserva ishlab chiqaruvchi, paxta tozalash zavodlari, mebel fabrikasi va boshqalar ishtirok etmoqda/ Havodagi ifloslanishlarning 70 — 80 % avtomashinalarga to'g'ri keladi. Yu.V. Novekov, Beknazarovlarning (1983) yozishicha avtomobillar havoga 200 dan ortiq turli aerazol zarrachalarni chiqaradi. Har bir avtomobilga bir yilda 200 kg (asosan benzin) va 300 ming kg havo sarflanadi. Ana shu yoqilg'idan bitta avtomobil havoga bir yilda 700 kg uglerod oksidi, 230 kg yonmagan uglevodlar, 30 kg azot oksidi va 2—5 kg kattiq moddalar chiqaradi.

Samarqand shahrida 100 mingdan ortiq avtomobillar mavjud. Avtomobillar ko'p yuradigan katta ko'chalar atrofida uglerod oksidining miqdori ruxsat etilgan me'yordan (REM) 2 — 3 marta, azot oksidi 2 — 2,5 marta ortiq kuzatilgan. Shaharda A.A. Rudakiy, Yu.A. Gagarin, Y. Oxunboboyev, «Universitet hiyoboni, A.Ikromov, ATemur,

Sh.Rashidov, V.Abdullayev ko'chalarida gazlar bilan ifloslanish juda kuclili Orol dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash, Orol bo'yi aholisini normal sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta'minlash uchun Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo'jaligi siyosathu* ishlab chiqish hamda har bir respublikaning Orol dengiziga qo'ya oladigan suvi, ya'ni (yiliga 20 — 21 km³), Orol bo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan.[2]

Dunyo kundan kunga ko'plab ekologik muammolarga duch keladi. Ushbu muammolarning ba'zilari, masalan, global isish, kislota yomg'iri, havo ifloslanishi va suv ifloslanishini o'z ichiga oladi. Bu muammolarning eng katta sababi odamlar dunyodagi dominant turga aylanganidan keyin resurslarni tezda iste'mol qilishidir. Bunday tez iste'mol va aholining o'sishi bilan atrof muhitga zarar yetadi.

Ushbu ekologik muammolarni alohida hal qilish kerak va hal etish kerak. Aks holda, odamlar o'z niyatlarini xavf ostiga qo'yadi.

Dunyo ko'pchiligi suvdan iborat. Bu suvlarning ba'zilari odamlar uchun uzoq vaqt va toza ichimlik suvi uchun etarli. Lekin muammo bor; bu ichimlik suvining tarkibi kundan-kunga o'zgarib turadi va bu suvlar ichimliksiz suv kabi ifloslangan. Suvning ifloslanishining bir sababi odamlarning chiqindilari hisoblanadi. Garchi ayrim inson bo'lmagan omillar suv ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo'lsa-da, suvning ifloslanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi inson omili hisoblanadi.

Suv ifloslanishi kabi, odamlarning havo ifloslanishiga ta'siri sezilarli. Bundan tashqari, tabiiy ravishda havo ifloslanishiga olib keladigan hodisalar mavjud. Ushbu voqealarning misollari vulqon harakati va o'rmon yong'inlari (odamlar tomonidan ham keltirilishi mumkin). Odamlar tomonidan ifloslangan havo ifloslanishi tabiiy havo ifloslanishiga qaraganda ko'proq misollar keltirishi mumkin. Atmosfera ifloslanishining yuqori tezlashuvi bilan o'sishni boshlagan davr, albatta, sanoat bilan boshlangan davrdir. Fabrikalarning bacalaridan chiqarilgan tutun va kimyoviy moddalar havoni katta miqdorda ifloslaydi. Zavodlar bilan bir qatorda havo ifloslanishiga olib keladigan yana bir omil motorli transport vositalaridir. Ushbu transport vositalaridan chiqadigan gazlar hayot uchun juda zararli.

slowed grooming movements were observed. Statistical analysis revealed significant differences in latency period, locomotor activity, and grooming behavior in rats with modeled fatty hepatitis, as well as a decrease in the frequency of grooming movements. These changes may be associated with neuropsychological disturbances, stress conditions, and increased activity of the autonomic nervous system developing against the background of chronic fatty hepatitis. Thus, fatty hepatitis negatively affects not only liver function but also the central nervous system.

Keywords: fatty liver disease, behavioral indicators, locomotor activity, open field test, high-fat diet, horizontal activity, vertical activity, latency period.

Kirish: Alkogolsiz yog'li jigar kasalligi (JNAYX) hozirgi kunda jigar kasalliklarining eng keng tarqalgan turi bo'lib, barcha jigar kasalliklarining qariyb 70 foizini tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda u dunyo aholisining taxminan to'rt dan bir qismida uchraydi va 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 33,5% ga yetishi prognoz qilinmoqda.

So'nggi tadqiqotlar JNAYX nafaqat jigar faoliyatiga, balki markaziy asab tizimiga ham ta'sir ko'rsatishini, hamda kognitiv pasayish va demensiya bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda. Ilmiy manbalarda dislipidemiya Altsgeymer kasalligi rivojlanishiga sababchi yoki uni kuchaytiruvchi omil bo'lishi mumkinligi qayd etilgan. Xotira susayishi va kognitiv funksiyalarning pasayishi kabi nevrologik o'zgarishlar insulin rezistentligi, giperammonemiya, tomirlar disfunksiyasi, ichak mikrobiotasi muvozanatining buzilishi va yallig'lanish jarayonlari kabi JNAYX bilan bog'liq holatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin.

JNAYX odatda semizlik fonida rivojlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, ortiqcha tana vazni, ayniqsa katta yosh va o'rta yosh davrida, kognitiv buzilishlar va Altsgeymer kasalligi xavfini olti baravargacha oshirishi mumkin. Shuningdek, o'rta yoshda yuzaga kelgan semizlik keyingi davrdagi semizlikka nisbatan demensiya va Altsgeymer kasalligi xavfini ancha yuqori darajada oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi yog'li jigar modeli sharoitida xulq-atvor ko'rsatkichlarining dinamik o'zgarishlarini o'rganishdan iborat bo'ldi. Xulq-atvordagi o'zgarishlarni baholash uchun "Ochiq maydon testi" qo'llanildi.

Ushbu testning afzalligi uning soddaligi va qulayligidadir. Hayvonlar notanish ochiq maydonga joylashtirilganda ularning xulq-atvori, harakatlarning soni va sifati o'rganiladi. Bizning tajribamizda kalamushlar ochiq maydonning markaziy qismiga joylashtirilib, quyidagi ko'rsatkichlar qayd etildi: latent davr (markaziy kvadratdan chiqish vaqti), gorizontaal faollik (kesib o'tilgan kvadratlar soni), vertikal faollik (orqa oyoqlarda tik turishlar soni), tadqiqot faoliyati (teshiklarni hidlash va boshini suqishlar soni), grooming harakatlari hamda ajratilgan najas soni. Grooming odatda stress holatida kuchayadi va bunday vaziyatda najas ajralishi ham ortishi mumkinligi sababli bu ko'rsatkichlar alohida qayd etildi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida hayvonlarning harakat faolligi, tirishish va vegetativ reaksiyalari baholandi. Ushbu usulning muhim jihati shundaki, u xulq-atvorni

kuzatish orqali neyrofiziologik mexanizmlarni tavsiflashga qulay bo'lib, oliy nerv faoliyatini o'rganishda samarali qo'llaniladi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot 8–10 haftalik oq rangli erkak Wistar kalamushlarida olib borildi. Yog'li gepatozni modellashtirish maqsadida hayvonlarga suv o'rniga glyukoza–fruktoza aralashmasi berildi va yuqori yog'li dieta sharoiti yaratildi. Kalamushlarning xulq-atvori hamda harakat faoliyatidagi o'zgarishlarni baholash uchun “Ochiq maydon testi” qo'llanildi. Tajriba davomida kalamushlar ochiq maydonning markaziy kvadratiga joylashtirilib, ularning latent davri, gorizontal faolligi (GF), vertikal faolligi (VF), tadqiqot faoliyati (O'F), grooming harakatlari hamda ajratilgan najas soni hisoblab borildi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar hayvon maydonga joylashtirilgandan keyin 3 daqiqa davomida kuzatildi. Xulq-atvor belgilarini o'rganishda biologik ko'rsatkichlar miqdoriy usulda baholandi va kuzatuv davomida xulq-atvor reaksiyalari qayd etildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sog'lom kalamushlarda ochiq maydon testining dastlabki bosqichida harakat boshlanishidan oldingi latent davr $3,5 \pm 0,35$ soniyani tashkil etdi. Surunkali yog'li gepatozga ega kalamushlarda 8-, 12- va 16-haftalarda ochiq maydon testidagi latent davr ko'rsatkichlari intakt guruh hayvonlari bilan taqqoslaganda statistik jihatdan ahamiyatli farq ko'rsatmadi. Biroq 20-haftaga kelib, kalamushlarda harakat boshlanishidan oldingi latent davr statistik jihatdan ishonchli ravishda 1,5 baravar oshgani aniqlandi ($p < 0,05$) (1-jadval).

1-jadval.

Eksperimental yog'li gepatozga ega kalamushlarda “ochiq maydon” testida kuzatilgan xulq-atvor va harakat faolligidagi o'zgarishlar ($M \pm m$; $n = 6$)

Guruhlar	Latent davr, soniya	Harakat faolligi (3 daqiqa)		Soni		
		GF (gorizontal faollik)	VF (vertikal faollik)	Teshiklar (tadqiqot faoliyati)	Grooming (yuvinish harakatlari)	Najas
Yog'li gepatoz modellashtirilishi jarayonida kalamushlarning harakat faolligi						
Nazorat	3,5±0,3	46,5±3,5	9,7±0,8	12,8±1,2	3,5±0,4	0,67±0,2
8 hafta	3,2±0,5	41,8±4,7	7,0±1,6	12,0±1,0	2,0±0,5	1,0±0,3
12 hafta	4,6±0,5	39,4±3,3	5,0±0,9**	11,0±1,1	1,6±0,2**	1,4±0,4
16 hafta	5,2±0,8	36,4±1,7*	6,2±1,2*	10,2±1,2	1,6±0,2**	1,8±0,5
20 hafta	5,4±0,7*	36,8±2,0*	5,0±1,1**	8,6±1,4	1,4±0,2**	1,8±0,5

Izoh: $*p < 0,05$; $**p < 0,01$ — intakt guruhga nisbatan statistik jihatdan ishonchli farq.

Gorizontal faollik natijalariga ko'ra, intakt guruhda ushbu ko'rsatkich $46,5 \pm 3,5$ ni tashkil etdi. Yog'li gepatoz shakllanishi davomida bu ko'rsatkich kamayib borib, 8- va 12-haftalarda mos ravishda $41,8 \pm 4,7$ hamda $39,4 \pm 3,3$ ga teng bo'ldi, biroq intakt guruh bilan solishtirganda statistik jihatdan ahamiyatli farq kuzatilmadi. 16- va 20-haftalarda esa gorizontal faollik intakt guruhga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda kamayib ($p < 0,05$), mos ravishda 1,28 va 1,26 marta pasaygani aniqlandi.

Vertikal faollik bo'yicha ochiq maydon testi natijalariga ko'ra, sog'lom kalamushlarda bu ko'rsatkich $9,7 \pm 0,8$ ni tashkil etdi. Yog'li gepatozga ega guruhlarda vertikal faollik pasayishi kuzatildi. Xususan, tadqiqotning 8-haftasida VF 1,38 marta kamaygan bo'lsa-da, intakt guruh bilan taqqoslaganda statistik farq aniqlanmadi. 12-, 16- va 20-haftalarda esa VF mos ravishda 1,94; 1,56 va 1,94 marta kamayib, statistik jihatdan ishonchli farqlar qayd etildi ($p < 0,01$; $p < 0,05$; $p < 0,01$).

Grooming bilan bog'liq xulq-atvor ko'rsatkichlari o'rganilganda, sog'lom kalamushlarda teshiklarga bosh suqishlar soni $12,8 \pm 1,2$ ni tashkil etdi. Tajriba guruhlarida bu ko'rsatkich 8-, 12-, 16- va 20-haftalarda mos ravishda $12,0 \pm 1,0$; $11,0 \pm 1,1$; $10,2 \pm 1,2$ hamda $8,6 \pm 1,4$ gacha kamaydi. Biroq ushbu o'zgarishlar intakt guruh bilan solishtirganda statistik jihatdan ahamiyatli emasligi aniqlandi.

Intakt guruhda yuvinish (washing) harakatlari soni $3,5 \pm 0,4$ ni tashkil etdi. Tadqiqot davomida bu ko'rsatkich kamayib bordi va 12-, 16- hamda 20-haftalarda intakt guruhga nisbatan statistik jihatdan ishonchli pasayish qayd etildi ($p < 0,01$).

Najas soni bo'yicha tekshiruvda intakt guruhda ko'rsatkich $0,67 \pm 0,2$ ga teng bo'ldi. Tajriba guruhlarida bu ko'rsatkich 1,49; 2,1; 2,69 va 2,69 marta oshgan bo'lsa-da, statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanmadi.

Ko'plab tadqiqotlar yuqori yog'li dieta JNAYX rivojlanishiga va miya faoliyati buzilishiga olib kelishini ko'rsatgan. JNAYXga ega tajriba hayvonlarida miya kislorod yetishmovchiligi, shuningdek, xavotir va depressiyaga o'xshash holatlarning ortishi kuzatilgani qayd etilgan. Bu holatlar ularning xulq-atvori va harakat reaksiyalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Boshqa tadqiqotlarda esa ochiq maydon testida sog'lom va tajriba guruhlar o'rtasida sezilarli farqlar aniqlanmagan bo'lsa-da, Morris suv labirinti testida JNAYX guruhida o'rganish va xotira buzilishlari kuzatilgan.

Metabolik buzilishlar va jigar shikastlanishidan tashqari, JNAYX miya hajmining kamayishi hamda kognitiv buzilish va depressiya kabi neyropsixik holatlarning rivojlanishi bilan ham bog'liq ekani haqida ma'lumotlar mavjud. YYYP orqali chaqirilgan JNAYXda semizlik, dislipidemiya, glyukoza almashinuvi buzilishi va jigar zararlanishi kabi metabolik o'zgarishlar bilan birga o'rganish va xotira kabi xulq-atvor ko'rsatkichlari ham o'zgarishi kuzatilgan. Shuningdek, giperinsulinemiya hamda qonda xolesterin va triglitseridlarning ortishi kalamushlarda kognitiv faoliyat pasayishi bilan bog'liq salbiy omillar sifatida qayd etilgan. Ushbu natijalar JNAYX va neyropsixik buzilishlar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Tajriba natijalariga ko'ra, yog'li gepatozga ega kalamushlarda latent davr, gorizontaal va vertikal faollik hamda yuvinish harakatlari bo'yicha statistik jihatdan ishonchli o'zgarishlar, shuningdek teshiklarga bosh suqish kabi grooming harakatlari sonining kamayishi kuzatildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari eksperimental yog'li gepatoz modellashtirilgan

kalamushlarda xulq-atvor ko'rsatkichlarining bosqichma-bosqich yomonlashishini ko'rsatdi. Xususan, latent davrning uzayishi, gorizontaal va vertikal harakat faolligining kamayishi, yuvinish harakatlari sonining qisqarishi hamda grooming harakatlarining sustlashuvi kuzatildi. Ushbu o'zgarishlar surunkali yog'li gepatoz fonida yuzaga keladigan neyropsixik buzilishlar, stress holatlari va vegetativ asab tizimi faolligining ortishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Olingan natijalar JNAYX nafaqat jigar faoliyatiga, balki markaziy asab tizimiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar

1. Zokirov V. Z. Chronic liver disease and covid-2019 (literature review and own data) //research journal of trauma and disability studies. – 2021. – T. 1. – C. 1-6.
2. Zokirov V. Z. Assessment Of Comparative Analysis Of The Course Of Non-Alcoholic Fatty Liver Disease In Middle-Aged And Elderly Patients Who Suffer Covid-19 Through Ultrasound Elastometry (Via Fibroscan) //journal of intellectual property and human rights. – 2021. – T. 1. – №. 6. – C. 18-22.
3. Younossi Z. M. et al. Global epidemiology of NAFLD: Meta-analytic assessment of prevalence and outcomes. Hepatology, 2019.
4. Buzzetti E., Pinzani M., Tsochatzis E. A. The multiple-hit pathogenesis of NAFLD. Metabolism, 2016.
5. European Association for the Study of the Liver (EASL) Clinical Practice Guidelines on NAFLD. Journal of Hepatology, 2023.
6. Khamraev A. A. et al. Clinical-laboratory markers of progression of non-alcoholic fatty liver disease //American Journal of Medicine and Medical Sciences. – 2021. – T. 11. – №. 5. – C. 419-425.
7. Yuldasheva D. H. et al. Modern approaches to the pathogenesis of non-alcoholic fatty liver disease (literature review and own data) //Euro-Asia Conferences. – 2021. – T. 1. – №. 1. – C. 384-389.
8. Zokirov V. Z. Comparative analysis of the results of laboratory-biochemical analysis in middle-aged and elderly patients with non-alcoholic fatty liver disease after COVID-19 //Art of Medicine. International Medical Scientific Journal. – 2022. – T. 2. – №. 1.
9. Бобомуродов Н. Л. Structure changes in glands of pylorus part of the stomach of rat under the influence of kotonan and kinmix //Новый день в медицине. – 2020. – №. 2. – C. 684-685.
10. Anvarovna A. N. et al. Sog 'lom turmush tarziga yo 'naltirilgan ta'lim texnologiyalari yordamida boshlang'ich sinf o 'quvchilarida tibbiy savodxonlikni shakllantirish //PEDAGOG. – 2025. – T. 8. – №. 11. – C. 67-72.
11. Садыков И. Ш., Аллаёрова Д. С., Собирова Н. Т. Заболевания населения города бухары связанные с жёсткостью воды //Eurasian Journal of Technology and Innovation. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 176-181.
12. Боймуродова М., Болтаева Д. Морфологические изменения селезёнки при аутоиммунных заболеваниях //Академические исследования в современной науке. – 2025. – T. 4. – №. 11. – C. 26-28.
13. Sharipova S. Mastery of the teacher-garant of stable development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 269-272.
14. Anvarovna, Arsolonova Nozigul, and Boltayeva Donoxon Baxtiyorovna. "The long-term effects of contraceptive methods on uterine morphology and histophysiology." web of medicine: journal of medicine, practice and nursing 3.2 (2025): 321-326.

HAZM FIZIOLOGIYASINING MARKAZIY ASAB TIZIMI BILAN BOG'LIQLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALQINI

Mardonkulova Ruxshona Farxodovna

Davolash ishi yo'nalisi talabasi. Zarmed universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Ilmiy rahbar: *Rasulova Mavlyuda Azzamovna*

Fiziologiya, patofiziologiya va gigiyena kafedrası asissenti

Zarmed universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Hazm tizimi inson organizmining eng murakkab va muhim funksiyalaridan biri bo'lib, oziq-ovqatni qabul qilish, uni hazm qilish, so'rilishini ta'minlash va chiqindilarni chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada hazm tizimining markaziy asab tizimi bilan bog'liqligi, reflektor mexanizmlari, enterik asab tizimi (ENS) va gastrointestinal mikrobiota bilan o'zaro aloqasi, shuningdek, zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari hazm jarayonining murakkab va integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlarini ochib beradi va stress, emotsional holat va mikrobiota rolini hisobga oladi.

Kalit so'zlar: hazm tizimi, markaziy asab tizimi, enterik asab tizimi, gastrointestinal mikrobiota, gut-brain axis, reflektor mexanizmlar, peristaltika.

Аннотация. Пищеварительная система является одной из наиболее сложных и жизненно важных функциональных систем организма человека, обеспечивающей приём пищи, её переваривание, всасывание питательных веществ и выведение продуктов обмена. В данной статье рассматривается взаимосвязь пищеварительной системы с центральной нервной системой, анализируются рефлекторные механизмы регуляции, роль энтеральной нервной системы (ЭНС) и её взаимодействие с гастроинтестинальной микробиотой. Освещаются современные научные подходы к изучению оси «кишечник–мозг» с учётом влияния стресса, эмоционального состояния и микробиоты на процессы пищеварения. Полученные данные демонстрируют сложный и интегрированный характер регуляции пищеварительной функции.

Ключевые слова: пищеварительная система, центральная нервная система, энтеральная нервная система, гастроинтестинальная микробиота, ось «кишечник–мозг», рефлекторные механизмы, перистальтика.

Abstract. The digestive system is one of the most complex and vital functional systems of the human body, responsible for food intake, digestion, nutrient absorption, and waste elimination. This article examines the relationship between the digestive system and the central nervous system, analyzes reflex regulatory mechanisms, and explores the role of the enteric nervous system (ENS) and its interaction with the gastrointestinal microbiota. Modern scientific approaches to the study of the gut-brain axis are discussed, taking into account the influence of stress, emotional state, and microbiota on digestive processes. The findings highlight the complex and integrated

regulatory mechanisms underlying digestive function.

Keywords: digestive system, central nervous system, enteric nervous system, gastrointestinal microbiota, gut–brain axis, reflex mechanisms, peristalsis.

Kirish. Hazm tizimi inson organizmida oziq-ovqatni qabul qilish, uni kimyoviy va mexanik tarzda hazm qilish, soʻrilishini taʼminlash va chiqindilarni chiqarish funksiyasini bajaradi. Anʼanaviy talqinlarda hazm jarayoni asosan oshqozon-ichak tizimi faoliyati bilan bogʻliq deb hisoblangan boʻlsa, zamonaviy tadqiqotlar markaziy asab tizimi, enterik asab tizimi (ENS) va gastrointestinal mikrobiota ham hazm jarayonida muhim rol oʻynashini koʻrsatmoqda. Hazm va markaziy asab tizimi oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganish inson fiziologiyasi, stress holatlari, emotsional reaksiyalar va sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli maqolada hazm tizimi va uning boshqaruv mexanizmlari, zamonaviy ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Nazariy Asos. 1. Hazm fiziologiyasi

Hazm jarayoni bir nechta bosqichdan iborat:

- Ogʻiz boʻshligʻi: Mexanik hazm (tishlar bilan chaynash) va kimyoviy hazm (til osti bezlarining ajratuvchi suvlari, masalan amilaza) boshlanadi. Ogʻiz boʻshligʻidagi taʼm va hidi sezgilari oshqozon shirasining sekretsiasini ragʻbatlantiradi.

- Qiziloʻngach va oshqozon: Oshqozon shirasidagi pepsin va xlorid kislota oqsillarni parchalaydi. Oshqozon mushaklari oziq-ovqatni aralashtiradi va peristaltik harakatlar orqali ichakka yuboradi.

- Ichaklar: Ingichka ichakda fermentlar va gepatobiliar tizim orqali yogʻlar, uglevodlar va oqsillar soʻriladi. Yogʻon ichak suv va elektrolitlarni soʻrib, qattiq chiqindilar hosil qiladi.

- Chiqindilarni chiqarish: yogʻon ichak orqali chiqindilar tanadan chiqariladi.

2. Hazm va markaziy asab tizimi oʻrtasidagi bogʻliqlik

- Markaziy asab tizimi (MAT): Medulla oblongata va gipotalamus hazm jarayonini reflektor tarzda boshqaradi. Ochlik va toʻqlik markazlari gipotalamusda joylashgan.

- Avtonom nerv tizimi: Parasimpatik nervlar (vagus nerv) peristaltik harakat va bez sekretsiasini kuchaytiradi, simpatik nervlar esa stress holatida hazm jarayonini sekinlashtiradi.

- Reflektor mexanizmlar: Ogʻiz, oshqozon va ichak sezgichlari medullaga signallar yuboradi, bu esa hazm jarayonini moslashtiradi.

3. Zamonaviy talqin

- Enterik asab tizimi (ENS): Ichak devorida joylashgan neyronlar hazm jarayonini markaziy asab tizimisiz ham boshqaradi.

- Gastrointestinal mikrobiota: Ichakdagi bakteriyalar hazm jarayoni, vitamin sintezi va immun javobga taʼsir qiladi.

- Gut–brain axis: Stress va emotsional holat hazm jarayoniga sezilarli taʼsir qiladi. ENS va mikrobiota bilan birgalikda ichak-miya oʻqi orqali integratsiyalashgan

boshqaruvni tashkil qiladi.

Amaliy Asos. Hazm tizimi va markaziy asab tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni amaliy tadqiqotlar orqali aniqlash mumkin:

- Reflektor testlar: Og'iz bo'shlig'iga ta'mli modda qo'yilganda oshqozon shirasining sekretsiyasi o'lchanadi.

- Peristaltik faoliyatni monitoring qilish: Ichak peristaltikasi elektromyografiya va ultratovush yordamida kuzatiladi.

- Stress va emotsional holat ta'siri: Psixologik testlar va gastroskopik kuzatuvlar orqali stress hazm jarayonini sekinlashtirishi ko'rsatiladi.

- Mikrobiota tahlili: Ichak mikrobiotasining tarkibi hazm jarayoni va sog'lomlik bilan bog'liqligi genomik va metabolomik usullar bilan baholanadi.

Muhokama. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hazm tizimi faolligi faqat oshqozon-ichak tizimi bilan cheklanmaydi. Markaziy asab tizimi va enterik asab tizimi birgalikda harakat qilib, reflektor va nevro-endokrin mexanizmlar orqali hazm jarayonini boshqaradi. Shuningdek, mikrobiota va gut-brain axis kontseptsiyasi stress va emotsional holatning hazm jarayoniga ta'sirini yanada aniq ko'rsatadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni isbotlamoqda: sog'lom mikrobiota va enterik asab tizimining integratsiyasi hazm jarayonini optimallashtiradi, turli gastroenterologik kasalliklar rivojlanish xavfini kamaytiradi.

Natija. - Hazm tizimi mexanik, kimyoviy, nerv va gormonal regulyatsiya orqali ishlaydi.

- Markaziy asab tizimi va enterik asab tizimi hazm jarayonini reflektor va integratsiyalashgan tarzda boshqaradi.

- Stress, emotsional holat va mikrobiota hazm jarayoniga sezilarli ta'sir qiladi.

- Zamonaviy yondashuvlar hazm tizimining murakkab va integratsiyalashgan faoliyatini yanada aniqroq tushuntiradi.

Xulosa. Hazm tizimi inson organizmida murakkab va integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlariga ega bo'lib, oshqozon-ichak faoliyati, markaziy va enterik asab tizimi, shuningdek mikrobiota bilan uzviy bog'liqdir. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar stress va emotsional holatning hazm jarayoniga ta'sirini, mikrobiota va ENS rolini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv sog'lom turmush tarzini shakllantirish va gastroenterologik kasalliklarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fiziologiya krovoobramyeniya. Fiziologiya serdsa. Pod red. Ye.B. Babskogo. L. Nauka, 1980g.φ
2. Fiziologiya cheloveka. Pod red. G.I. Kosiskogo. M. Medisina, 1985g.
3. Fiziologiya cheloveka. Pod red. R. Shmidta, R.Tevsa (per. s angl). M."Mir", 1985g.
4. Fiziologiya cheloveka. Pod red. Agadjanyana N.A, Tel L.Z. kn.2. Alma-ata. "Kazaxstan", 1992g.
5. Fiziologiya cheloveka. Pod red. V.M. Pokrovskogo, G.F. Korotko, tom I. M. Medisina, 1998g.
6. Qodirov U.Z. Odam fiziologiyasi. T. Abu Ali ibn Sino nom. tib. nashr, 1996y.
7. Mayer E.A. The gut-brain axis: the missing link in depression. *Journal of Clinical Psychiatry*. 2011;72(3):351-362.
8. Guyton A.C., Hall J.E. *Textbook of Medical Physiology*. 14th ed. Philadelphia: Elsevier; 2021.

KATARAKTA BEMORLARIDA QURUQ KO‘Z SINDROMINING UCHRASHI VA KLINIK AHAMIYATI

Abdullayeva Umida Faxriddinovna

Davolash ishi yo‘nalishi talabasi, Zarmed Univerisiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqola katarakta bemorlarida quruq ko‘z sindromining uchrashi, uning klinik belgilari, patofiziologik mexanizmlari va operatsiya oldi hamda postoperativ davrdagi ahamyatini nazariy jihatdan tahlil qiladi. Shuningdek, QKSning katarakta operatsiyasi natijalariga ta’siri ko‘z yuzasining holatini baholash metodlari va klinik tavsiyalar ilmiy adabiyotlar asosida muhokama qilinadi. Maqola natijalari katarakta bemorlarini baholashda QKSni hisobga olish va postoperativ ko‘rish sifatini yaxshilash uchun amaliy tavsiyalar beradi. Bu maqola talabalar, klinik amalyotda faoliyat yuritayotgan shifokorlar, ilmiy xodimlar va oftalmologlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Katarakta, quruq ko‘z sindromi, ko‘z yuzasi, lakrima film, goblet hujayralari, operatsiya oldi baholash, postoperativ ko‘rish, patofiziologik mexanizm.

Аннотация. В данной статье теоретически анализируется возникновение синдрома сухого глаза у пациентов с катарактой, его клинические симптомы, патофизиологические механизмы и значение в предоперационном и послеоперационном периодах. Кроме того, на основе научной литературы обсуждаются влияние синдрома сухого глаза на результаты хирургического лечения катаракты, методы оценки состояния поверхности глаза и клинические рекомендации. Результаты статьи содержат практические рекомендации по учету синдрома сухого глаза при обследовании пациентов с катарактой и улучшению качества послеоперационного зрения. Данная статья может быть полезна студентам, практикующим врачам, исследователям и офтальмологам.

Ключевые слова: Катарakta, синдром сухого глаза, поверхность глаза, слезная пленка, бокаловидные клетки, предоперационная оценка, послеоперационное зрение, патофизиологический механизм.

Abstract. This article theoretically analyzes the occurrence of dry eye syndrome in cataract patients, its clinical symptoms, pathophysiological mechanisms, and its significance in the preoperative and postoperative periods. In addition, the impact of dry eye syndrome on the results of cataract surgery, methods for assessing the condition of the ocular surface, and clinical recommendations are discussed based on scientific literature. The results of the article provide practical recommendations for taking dry eye syndrome into account in the evaluation of cataract patients and improving the quality of postoperative vision. This article may be useful for students, practicing physicians, researchers, and ophthalmologists.

Keywords: Cataract, dry eye syndrome, ocular surface, tear film, goblet cells, preoperative assessment, postoperative vision, pathophysiological mechanism.

Kirish. Ko‘rish qobiliyati pasayishi butun dunyo bo‘ylab milliardlab insonlarning

hayot sifati va faoliyatiga jiddiy ta'sir qiluvchi sog'liq muammosi hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, dunyo bo'yicha 2,2 milliarddan ortiq insonda yaqin yoki uzoq masofaga ko'rishda buzilishlar mavjud bo'lib, bu holatning asosiy sabablari orasida katarakta yetakchi o'rinni egallaydi. Katarakta uzoq yillar davomida global ko'rlikning asosiy sababi bo'lib qolmoqda va bu kasallik uchun yetarli salomatlik xizmatlari bo'lmagan hollarda ko'plab holatlar davom etmoqda [1-7].

So'nggi epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1990–2021 yillar oralig'ida katarakta kasalligining global prevalansi sezilarli darajada oshgan, chunki aholi soni va umr davomiyligi ortmoqda. 1990-yilda katarakta bilan og'rikanlar soni taxminan 42,3 millionni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 100,6 milliondan oshdi — ya'ni o'sish deyarli 2,4 barobar ko'paydi [8-12].

Katarakta asosan kattalar va keksa yoshdagilarda uchraydi. Xususan, AQShda 40 yoshdan oshgan aholining 22 milliondan ortig'i katarakta bilan bog'liq ko'rish muammolarini boshdan kechiradi va 80 yoshdan oshganlarda bemorlarning yarmidan ko'prog'ida katarakta aniqlanadi.

Shuningdek, quruq ko'z sindromi (QKS) ham juda keng tarqalgan bo'lib, uning global prevalansi diagnostik mezonlar va populyatsiyaga qarab sezilarli farq qiladi. Hisobotlarga ko'ra, QKS umumiy populatsiyada taxminan 10–20% darajasida uchraydi va bu ko'rsatkich yosh o'sishi bilan ortadi.

Quruq ko'zni aniqlovchi boshqa tadqiqotlarda, ayrim diagnostika mezonlari bo'yicha, QKS umumiy aholining taxminan “29–30%”da kuzatilishi qayd etilgan, bunda ayollar bu kasallikka erkaklardan ko'proq chalinganligi aniqlangan [13-21].

Demografik tendensiyalar ham muhim ahamiyatga ega:

- Quruq ko'z sindromi ko'pincha 40 yoshdan oshganlarda uchraydi va ayollarda erkaklarga nisbatan ko'proq tarqalganligi ko'rsatilgan.

- Katarakta ham asosan yoshi 60 va undan katta bo'lgan aholida ko'proq uchraydi, va ayollarda prevalans ko'pincha erkaklarga nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

Ushbu epidemiologik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, katarakta va quruq ko'z sindromi oftalmologik klinik muammolarni yuzaga keltirish bilan birga, ko'rish sifati va hayot sifatiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillar bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham katarakta bemorlarida quruq ko'z sindromi uchrashini chuqur tahlil qilish, aniqlash va klinik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasallik etiologiyasi: *kataraktaning endogen va ekzogen etiologik omillari*

Katarakta multifaktorial kasallik bo'lib, uning rivojlanishida organizm ichki holati bilan bog'liq endogen va tashqi muhit ta'siriga asoslangan ekzogen omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar linza metabolizmi, oksidativ muvozanat va oqsil strukturasining buzilishiga olib keladi.

Endogen omillar

1.Yosh (senil involyutsiya)Yosh — kataraktaning eng asosiy va universal endogen omili hisoblanadi. Yoshi ulg‘ayishi bilan:

- linzada antioksidant fermentlar faolligi kamayadi;
- kristallin oqsillarining oksidlanishi kuchayadi;
- suv-elektrolit muvozanati buziladi.

Natijada linzaning shaffofligi sekin-asta yo‘qoladi. Klinik jihatdan bu holat 60 yoshdan keyin sezilarli darajada namoyon bo‘ladi.

Genetik moyillik

Ba’zi shaxslarda katarakta:

- irsiy metabolik buzilishlar;
- kristallin oqsillarini kodlovchi genlar mutatsiyasi

bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Ayniqsa tug‘ma va erta rivojlanuvchi kataraktalarda genetik omil yetakchi rol o‘ynaydi.

Metabolik va endokrin kasalliklar

Diabet mellitus kataraktaning eng muhim endogen omillaridan biridir.

Giperglikemiya sharoitida:

- glyukoza sorbitolga aylanadi;
- osmotik bosim oshadi;
- linza tolalari shishadi.

Shuningdek, qalqonsimon bez, buyrak va metabolik sindrom bilan kechuvchi kasalliklar ham katarakta rivojlanishini tezlashtiradi.

Jins va gormonal o‘zgarishlar

Epidemiologik tadqiqotlar ayollarda katarakta uchrashi yuqoriroq ekanini ko‘rsatadi. Bunga:

- estrogen gormonining kamayishi;
- postmenopauzal davrdagi metabolik o‘zgarishlar sabab sifatida qoraladi.

Ko‘z ichki kasalliklari

Surunkali uveitlar, glaukoma, yuqori miopiya va uzoq muddatli ko‘z ichki yallig‘lanishlari linza oziqlanishini buzib, ikkilamchi katarakta rivojlanishiga olib keladi.

Ekzogen Omillar

1.Ultrabinafsha nurlanish (UV)

Quyoshning UV-B nurlari linza oqsillariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarar yetkazadi:

- oksidativ stress kuchayadi;
- kristallinlar denaturatsiyaga uchraydi.

Bu omil ochiq havoda ko‘p ishlovchilar va issiq iqlimli hududlarda yashovchilar uchun muhimdir.

2.Travma

Mexanik, kimyoviy yoki termik jarohatlar:

- linza kapsulasining shikastlanishi;
- metabolik muvozanatning buzilishi orqali tez rivojlanuvchi travmatik kataraktaga olib keladi.

3. Dori vositalari

Uzoq muddatli:

- kortikosteroidlar;
- psixotrop preparatlar;
- ayrim antiglaukomatoz dorilar

linzada metabolik jarayonlarni izdan chiqarib, katarakta rivojlanishini tezlashtiradi.

4. Ekologik va ijtimoiy omillar

- Chang, tutun, sanoat gazlari
- Noto'g'ri ovqatlanish
- Antioksidantlarga kambag'al dieta

linza himoya mexanizmlarini susaytiradi.

5. Radiatsiya va ionlovchi nurlar

Radiatsiya bilan ishlovchi shaxslarda katarakta erta rivojlanishi mumkin. Ionlovchi nurlar linza hujayralarining DNKsiga zarar yetkazadi.

Endogen Va Ekzogen Omillarning O'Zaro Ta'siri

Amaliyotda ko'pincha katarakta:

- bitta emas,
- balki bir nechta omillar birgalikda ta'siri natijasida rivojlanadi.

Masalan, yoshi katta, diabet bilan og'rikan va UV ta'siriga uchraydigan bemorlarda katarakta tezroq va og'irroq kechadi.

Quruq Ko'Z Sindromi Etiologiyasi

Quruq ko'z sindromi — ko'z yuzasining multifaktorial kasalligi bo'lib, lakrimal film barqarorligining buzilishi, ko'z yoshi yetishmovchiligi yoki uning tez bug'lanishi bilan xarakterlanadi. Etiologik jihatdan QKS endogen va ekzogen omillar ta'siri ostida rivojlanadi.

Endogen Omillar

1. Yosh

QKS rivojlanishida yosh muhim endogen omil hisoblanadi. Epidemiologik ma'lumotlarga ko'ra:

- 40 yoshdan keyin QKS uchrashi keskin ortadi;
- 60 yoshdan oshganlarda lakrimal bezlar sekretsiyasi sezilarli kamayadi.

Yosh o'tishi bilan:

- ko'z yoshi ishlab chiqarilishi pasayadi;
- lakrimal bez to'qimalari atrofiyaga uchraydi;

- ko‘z yuzasi regeneratsiyasi sekinlashadi.

2. Jins va gormonal omillar

Ayollarda QKS erkaklarga nisbatan sezilarli darajada ko‘proq uchraydi. Buning asosiy sabablari:

- estrogen va androgen muvozanatining buzilishi;
- postmenopauzal davrda androgen yetishmovchiligi;
- meybom bezlari faoliyatining pasayishi.

Natijada lakrimal filmning lipid qatlami yetarli shakllanmaydi.

3. Meibom bezlari disfunktsiyasi (MBD)

MBD QKSning eng keng tarqalgan sababi hisoblanadi. Bu holatda:

- lipid sekretiya kamayadi;
- ko‘z yoshi tez bug‘lanadi;
- tear break-up time (TBUT) qisqaradi.

MBD ayniqsa yoshi katta bemorlarda va surunkali blefarit fonida tez-tez uchraydi.

4. Tizimli va autoimmun kasalliklar

QKS quyidagi kasalliklar bilan bog‘liq holda rivojlanishi mumkin:

- Shegren sindromi;
- revmatoid artrit;
- qandli diabet;
- qalqonsimon bez kasalliklari.

Bu holatlarda lakrimal bezlar yallig‘lanadi va sekretiya kamayadi.

5. Dori vositalari

QKS rivojlanishiga quyidagi dorilar sabab bo‘lishi mumkin:

- antigistaminlar;
- antidepressantlar;
- diuretiklar;
- beta-blokatorlar.

Ular lakrimal bezlar sekretiya kamaytiradi.

Ekzogen Omillar

1. Atrof-muhit va ekologik omillar

- past namlik;
- shamollatilgan, konditsionerlangan muhit;
- chang va tutun

ko‘z yuzasidan ko‘z yoshining tez bug‘lanishiga olib keladi.

2. Raqamli qurilmalardan uzoq foydalanish

Kompyuter, smartfon va planshetlardan uzoq foydalanishda:

- ko‘z qovog‘ining pիրpirashi kamayadi;
- ko‘z yoshi notekis taqsimlanadi;

- evaporativ QKS rivojlanadi.

3.Kontakt linzalar

Kontakt linzalardan uzoq muddat foydalanish:

- ko‘z yuzasini mexanik ta’sirlantiradi;
- lakrimal film barqarorligini buzadi.

4. Ko‘z jarrohligi va travmalar

LASIK, katarakta jarrohligi va boshqa oftalmologik aralashuvlar:

- shox parda nerv innervatsiyasini buzadi;
- reflektor ko‘z yoshi ajralishini kamaytiradi.

Bu holat QKSni kuchaytiradi yoki yangi rivojlanishiga olib keladi.

5.Infeksiyalar va yallig‘lanishlar

Surunkali kon’yunktivit va blefarit:

- ko‘z yuzasining yallig‘lanishini kuchaytiradi;
- lakrimal film sifatini yomonlashtiradi.

Kataraktaning yuzaga kelishi va katarakta bo‘lgan bemorlarda quruq ko‘z sindromining rivojlanishi

Kataraktaning yuzaga kelishi: molekulyar va hujayraviy asoslar

Katarakta ko‘z gavharining shaffofligini ta’minlovchi murakkab biologik tizimning izdan chiqishi natijasida shakllanadi. Normal sharoitda linza avaskulyar tuzilma bo‘lib, uning metabolizmi ko‘z ichki suyuqligi orqali ta’minlanadi. Linza hujayralari umr bo‘yi regeneratsiyalanmaydi, shu sababli unda yuzaga kelgan har qanday biokimyoviy shikastlanish qaytarilmas xarakterga ega.

Yosh o‘tishi bilan linza oksidativ stressning kuchayishi markaziy o‘rin tutadi. Reaktiv kislorod shakllarining (ROS) to‘planishi glutation tizimi, katalaza va superoksid-dizmutaza kabi antioksidant mexanizmlarning pasayishi bilan birga kechadi. Natijada kristallin oqsillari oksidlanadi, ularning uchlamchi va to‘rtlamchi strukturasi buziladi hamda agregatsiyalanadi. Ushbu agregatlar yorug‘likni sohib yuboradi va linzaning optik o‘tkazuvchanligi pasayadi.

Metabolik omillar, ayniqsa qandli diabet sharoitida, katarakta patogenezini sezilarli tezlashtiradi. Giperglikemiya fonida poliol yo‘li faollashadi, glyukoza aldolaza-reduktaza orqali sorbitolga aylanadi. Sorbitol linza hujayralarida to‘planib, osmotik stressni kuchaytiradi, hujayra shishiga va membrana barqarorligining buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga, oqsillarning glikatsiyasi kuchayadi va bu jarayon kristallinlarning funksional xususiyatlarini izdan chiqaradi.

Ultrabinafsha nurlanish linza oqsillariga bevosita fotooksidativ shikast yetkazib, DNK va hujayra membranalarini zararlaydi. Radiatsiya, toksik moddalar va ayrim dori vositalari ushbu jarayonni yanada chuqurlashtiradi. Natijada katarakta asta-sekin, ammo progressiv tarzda rivojlanadi va klinik jihatdan ko‘rishning pasayishi bilan namoyon bo‘ladi.

Katarakta bo'lgan bemorlarda quruq ko'z sindromining shakllanishi: ko'p bosqichli jarayon

Katarakta rivojlangan bemorlarda quruq ko'z sindromining paydo bo'lishi tasodifiy emas, balki ko'zning oldingi segmenti bilan bog'liq bir nechta patogenetik mexanizmlarning ketma-ket faollashuvi bilan izohlanadi. Birinchi navbatda, katarakta uchraydigan yosh guruhining o'zi QKS uchun yuqori xavf zonasi hisoblanadi. Yoshga bog'liq involyutsion o'zgarishlar lakrimal bezlar sekretor hujayralarining atrofiyasi, meibom bezlari kanallarining torayishi va lipid sekretiya sifatining yomonlashuvi bilan kechadi.

Bu jarayonda lakrimal filmning barcha uch qatlami izdan chiqadi: lipid qatlam yupqalashadi, suvli qatlam hajmi kamayadi va mucin qatlamining ko'z yuzasiga yopishish xususiyati pasayadi. Natijada lakrimal film barqarorligi buziladi, tear break-up time qisqaradi va ko'z yuzasi tez quriydi. Ushbu holat ko'pincha subklinik bosqichda kechadi va katarakta bilan band bo'lgan klinik e'tibor sababli aniqlanmay qoladi.

Katarakta bilan bog'liq tizimli kasalliklar — diabet, yurak-qon tomir patologiyalari, autoimmun holatlar — ko'z yuzasining mikrosirkulyatsiyasini va trofikasini buzadi. Shox parda nerv tolalarining degeneratsiyasi sezuvchanlikning pasayishiga olib keladi, bu esa reflektor ko'z yoshi ajralishini susaytiradi. Natijada ko'z yuzasi yallig'lanish mediatorlari (IL-1, TNF- α , MMP-9) faollashuvi bilan surunkali yallig'lanish holatiga o'tadi.

Katarakta jarrohligining qksga ta'siri

Katarakta jarrohligi ushbu allaqachon mavjud bo'lgan patologik zaminni yanada chuqurlashtiradi. Fakoemulsifikatsiya vaqtida shox pardaning nerv pleksusi mexanik va ultratovush ta'siriga uchraydi. Bu ko'z yuzasi innervatsiyasining vaqtinchalik yoki uzoq muddatli buzilishiga olib keladi. Natijada lakrimal refleks yoyining uzilishi, ko'z yoshi sekretiya sifatining pasayishi va evaporativ jarayonlarning kuchayishi kuzatiladi.

Shuningdek, jarrohlikdan keyingi davrda qo'llaniladigan konservantli tomchilar, antibiotik va steroid preparatlar ko'z yuzasining epitelial barqarorligini buzib, QKS simptomlarini yanada kuchaytiradi. Shu sababli ko'plab bemorlarda katarakta operatsiyasidan keyin ko'rish o'tkirligi yaxshilangan bo'lsa-da, sub'ektiv qoniqish past bo'lib qoladi.

XULOSA. Zamonaviy oftalmologiyada katarakta va quruq ko'z sindromi (QKS) nafaqat mustaqil nozologik birliklar sifatida, balki o'zaro patogenetik jihatdan uzviy bog'langan holatlar sifatida tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda. Yoshga bog'liq degenerativ jarayonlar, metabolik va tizimli buzilishlar fonida ushbu patologiyalarning bir bemorda birgalikda uchrashi ko'rish funksiyasining pasayishini yanada chuqurlashtirib, diagnostika va davolash jarayonini murakkablashtiradi.

O'rganilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, katarakta rivojlanishiga olib keluvchi endogen va ekzogen omillar ko'z gavhari bilan bir qatorda ko'z yuzasi va ko'z yoshi apparati faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada katarakta bilan og'rigan

bemorlarda quruq koʻz sindromining shakllanishi uchun patofiziologik zamin yaratiladi. Ushbu holat ayniqsa keksa yoshdagi bemorlarda yaqqol namoyon boʻlib, QKS koʻpincha subklinik kechishi sababli klinik amaliyotda yetarlicha baholanmay qolmoqda.

Klinik jihatdan katarakta va QKSning birgalikda kechishi koʻrish oʻtkirligining oʻzgaruvchanligi, koʻz yuzasining beqarorligi hamda bemorning subʼektiv qoniqish darajasining pasayishi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, quruq koʻz sindromining mavjudligi katarakta jarrohligidan oldingi biometrik oʻlchovlar aniqligiga va refraksion natijalarning prognoz qilinishiga sezilarli darajada taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Kompleks diagnostik yondashuv — anamnez, klinik baholash, maxsus testlar va instrumental tekshiruvlar yordamida QKSni erta aniqlash — katarakta bilan ogʻrigan bemorlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davolash strategiyasida esa koʻz yuzasining holatini jarrohlikdan oldin barqarorlashtirish, individual yondashuvni qoʻllash va operatsiyadan keyingi davrda uzoq muddatli qoʻllab-quvvatlovchi terapiyani amalga oshirish optimal funksional natijalarga erishish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, katarakta va quruq koʻz sindromini yagona patogenetik jarayonning oʻzaro bogʻliq boʻgʻinlari sifatida baholash oftalmologik amaliyotda muhim konseptual yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuv katarakta jarrohligi samaradorligini oshirish, operatsiyadan keyingi nojoʻya holatlarni kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Resnikoff S, et al. Global magnitude of visual impairment caused by cataract. *Bull World Health Organ.* 2004;82(11):844–851.
2. Foster A, Johnson GJ. Cataract in the developing world. *Ophthalmology.* 1990;97(12):1539–1548.
3. Asbell PA, et al. Age-related cataract. *Lancet.* 2005;365(9459):599–609.
4. Leske MC, et al. Risk factors for age-related cataract. *Am J Epidemiol.* 1991;134(6):685–695.
5. Truscott RJW. Age-related nuclear cataract: oxidation is the key. *Exp Eye Res.* 2005;80(5):709–725.
6. Bron AJ, et al. The ageing lens. *Eye.* 2000;14(1):1–10.
7. West SK. Epidemiology of cataract. *Int Ophthalmol Clin.* 2007;47(2):1–10.
8. Taylor HR. Ultraviolet radiation and cataract. *Eye.* 1989;3(3):304–308.
9. Brian G, Taylor H. Cataract blindness—challenges. *Bull WHO.* 2001;79(3):249–256.
10. Gupta VB, et al. Molecular mechanisms of cataractogenesis. *Prog Retin Eye Res.* 2014;43:1–33.
11. TFOS DEWS II Definition and Classification Report. *Ocul Surf.* 2017;15(3):276–283.
12. TFOS DEWS II Pathophysiology Report. *Ocul Surf.* 2017;15(3):438–510.
13. Lemp MA, et al. Dry eye disease. *Lancet.* 2012;379(9827):1719–1731.
14. Craig JP, et al. TFOS DEWS II Report. *Ocul Surf.* 2017;15(3):269–275.
15. Bron AJ, et al. Dry eye disease. *Prog Retin Eye Res.* 2017;57:1–33.
16. Pflugfelder SC. Tear dysfunction. *Ophthalmology.* 1998;105(6):998–1008.
17. Schaumberg DA, et al. Epidemiology of dry eye. *Am J Ophthalmol.* 2003;136(2):318–326.
18. Gayton JL. Etiology of dry eye. *Eye.* 2009;23(2):199–205.
19. Baudouin C. Inflammation in dry eye. *Ocul Surf.* 2007;5(2):124–132.
20. Sullivan DA, et al. Sex hormones and dry eye. *Ocul Surf.* 2002;1(2):65–76.

ПОРАЖЕНИЯ ЛЕГКИХ У БОЛЬНЫХ С СЕРОНЕГАТИВНЫМ СПОНДИЛОАРТРИТОМ

Абдуллаев М.К.

Студент 4 курса лечебного факультета

Руководитель: *Ташинова Л.Х.* Ассистент кафедры «Терапевтических предметов» Университета Зармед, Самарканд, Узбекистан

Аннотация. Поражение дыхательной системы – одно из часто встречающихся системных проявлений ревматоидного артрита и серонегативных спондилоартропатий. Неспецифичность начальных признаков поражения респираторной системы при данных состояниях, как и возможность развития тяжелых, опасных для жизни осложнений, обуславливают актуальность исследований в этой области. В статье представлен обзор литературных данных о характере и частоте различных видов поражения дыхательной системы при воспалительных заболеваниях суставов. Приводятся результаты предварительного анализа частоты встречаемости различных пульмонологических симптомов в терапевтическом и ревматологическом отделениях и их связи с активностью основного заболевания.

Ключевые слова: ревматоидный артрит, спондилоартропатии, поражение легких, системные проявления, активность заболевания, пульмонологические осложнения.

Abstract. Respiratory system involvement is one of the most common systemic manifestations of rheumatoid arthritis and seronegative spondyloarthropathies. The nonspecific nature of the initial respiratory symptoms in these conditions, as well as the potential development of severe and life-threatening complications, determines the relevance of research in this field. This article presents a review of the literature on the nature and frequency of various types of respiratory involvement in inflammatory joint diseases. The results of a preliminary analysis of the prevalence of different pulmonary symptoms in therapeutic and rheumatology departments and their association with the activity of the underlying disease are also discussed.

Keywords: rheumatoid arthritis, spondyloarthropathies, lung involvement, systemic manifestations, disease activity, pulmonary complications.

Введение. Поражение дыхательной системы является одним из наиболее часто встречающихся системных проявлений ревматоидного артрита (РА). В то же время их своевременное выявление и дифференциальная диагностика представляют собой достаточно сложную задачу. Типичные клинические симптомы, как и используемые рутинные методики, позволяют диагностировать в основном лишь далеко зашедшие изменения. Наибольшей информативностью обладает дорогостоящая методика КТ высокого разрешения (50–80%) и биопсия легких [1, 4, 6]. В то же время информативность рутинной рентгенограммы

составляет не более 6% [4, 6]. Специфические клинические симптомы поражения легких выявляются лишь у 6,5–10% пациентов [4, 5]. Основные формы поражения легких и соответствующие им клинические синдромы представлены на рисунке 1. Согласно литературным данным, наиболее часто диагностируются поражения плевры, большая часть которых бессимптомны (40–75% аутопсий и 20% – рентгенологические из менения) или сопровождаются умеренным болевым синдромом (около 25%) [6]. Вторым по частоте заболеванием паренхимы легких является ассоциированная с ревматоидным артритом интерстициальная болезнь легких (RA-ILD) [1–7]. Наиболее часто встречается обыкновенная интерстициальная пневмония – UIP, один из самых неблагоприятных вариантов RA-ILD [6–8]. Реже диагностируется неспецифическая интерстициальная пневмония, в большей степени типичная для системных заболеваний соединительной ткани [7, 8]. Встречаются также смешанные варианты с элементами лимфоцитарной интерстициальной пневмонии [6, 7]. Указанным состояниям сопутствуют рестриктивные изменения. Ранняя клиническая симптоматика RA-ILD в этих случаях может включать сухой кашель и одышку инспираторного типа. При некоторых вариантах RA-ILD (криптогенная организующая пневмония – COP [9] и крайне редко ассоциирующаяся с ревматоидным артритом респираторная бронхиолит-интерстициальная болезнь легких – RB-ILD) одышка может быть смешанной или экспираторной, а при физикальном обследовании могут определяться признаки обструкции (жесткое дыхание, коробочный перкуторный тон). Обструктивный и бронхитический синдромы при RA-ILD могут быть следствием развития тракционных бронхоэктазов на фоне значительного фиброза легочной ткани [6]. Реже RA-ILD развивается как осложнение базисной терапии (метотрексат, препараты золота, D-пеницилламин) [1, 2, 6, 7]. Достаточно редко встречается эозинофильная пневмония (острая или хроническая), в том числе в дебюте заболевания [10]. Другой наиболее частый вариант поражения паренхимы – ревматоидные узелки – в подавляющем большинстве случаев является бессимптомным [1, 2]. При рутинной рентгенографии они выявляются всего у 1% пациентов, в то время как при КТ высокого разрешения частота выявления достигает 22% случаев. По данным аутопсии, узелки в легких обнаруживаются у 32,5% умерших больных с РА [4, 6]. Осложнениями ревматоидных узелков может быть развитие некроза с образованием полости, кровохарканьем, спонтанным пневмотораксом или эмпиемой плевры. Описаны случаи микозного поражения узелка с развитием мицетомы [4]. Дифференциальная диагностика очаговых изменений в легких у больных РА представляет особую диагностическую проблему в связи с высоким риском туберкулезного процесса не только у больных, получающих биологическую терапию (в 30 раз выше, чем в общей популяции), но и пациентов, получающих традиционное лечение метотрексатом и

преднизолоном (в 4–8 раз выше, чем в популяции) [11, 12]. Некоторыми авторами обсуждается проблема роста ревматоидных узелков на фоне лечения инфликсимабом, однако в других публикациях этот феномен не подтверждается, тем более что продолжение терапии не приводит к клиническому ухудшению состояния пациента [13, 14, 20]. Редкой причиной очаговых изменений в легких при РА может быть перекрест-синдром с ограниченными легочной паренхимой проявлениями гранулематоза Вегенера [16]. Необходимо отметить, что как интерстициальная болезнь легких, так и ревматоидные узелки значительно чаще обнаруживаются у курящих пациентов по сравнению с некурящими [6]. Тем не менее наличие соответствующего анамнеза не должно рассматриваться как фактор, позволяющий полностью объяснить имеющиеся пульмонологические симптомы и исключить наличие поражения дыхательных путей, обусловленное РА. щей популяции), но и пациентов, получающих традиционное лечение метотрексатом и преднизолоном (в 4–8 раз выше, чем в популяции) [11, 12]. Некоторыми авторами обсуждается проблема роста ревматоидных узелков на фоне терапии инфликсимабом, однако в других публикациях этот феномен не подтверждается, тем более что продолжение терапии не приводит к клиническому ухудшению состояния пациента [13, 14, 20]. Редкой причиной очаговых изменений в легких при РА может быть перекрест-синдром с ограниченными легочной паренхимой проявлениями гранулематоза Вегенера [16]. Необходимо отметить, что как интерстициальная болезнь легких, так и ревматоидные узелки значительно чаще обнаруживаются у курящих пациентов по сравнению с некурящими [6]. Тем не менее наличие соответствующего несколько реже встречаются поражения дыхательных путей, проявляющиеся обструктивным и бронхитическим синдромом. К ним относятся бронхоэктазы (в большинстве случаев тракционного характера на фоне RA ILD), облитерирующий бронхиолит, фолликулярный бронхиолит и бронхоцентрический гранулематоз [6]. В целом частота развития патологии бронхиального дерева (включая тракционные бронхоэктазы) составляет около 30% [1–3, 6]. Обструктивные нарушения функции внешнего дыхания диагностируются примерно у 38% пациентов с нормальными результатами рентгенограммы [15]. Достаточно редки, но опасны начальные проявления легочного васкулита – кровохарканье, одышка или легочная гипертензия – и его потенциально фатальное осложнение – диффузное альвеолярное кровотечение, клинически и морфологически сходное с аналогичным состоянием при системной красной волчанке и обусловленное некротизирующим капилляритом с отложением иммунных комплексов. Клинические симптомы диффузного альвеолярного кровотечения включают острое развитие выраженной инспираторной одышки с резкой гипоксемией, кровохарканье, анемию [6]. При анкилозирующем спондилоартрите пульмонологические симптомы встречаются реже – примерно у

10% пациентов. Рестриктивный характер изменений обнаруживается при наиболее типичном осложнении – двустороннем апикальном фиброзе верхних долей, развитии буллезных изменений (как правило, той же локализации), а также при анкилозе костовертебральных суставов. Описаны случаи развития интерстициальной болезни легких, сходной с таковой при РА, однако в этих публикациях отсутствуют сведения о вариантах данного заболевания. Обструктивный синдром и смешанный характер изменений могут быть обусловлены тракционными бронхоэктазами или пара септальной эмфиземой [16–18]. У больных псориатическим артритом могут встречаться узловые образования в легких, сходные с таковыми у пациентов с РА. Подобные узелки, так же как и при РА, могут осложняться некрозом и спонтанным пневмотораксом [19]. Таким образом, при РА и серонегативных спондилоартритах (ССА) достаточно часто встречается поражение дыхательной системы. При этом ранняя диагностика указанных изменений затруднена в связи с неспецифичностью симптомов и поздним появлением изменений, определяемых рутинными методами, доступными практическому здравоохранению. В связи с этим представляется актуальным анализ диагностической значимости неспецифических пульмонологических симптомов (кашель, одышка, изменения перкуторной или аускультативной картины легких), позволяющих заподозрить вовлеченность легких в патологический процесс и, соответственно, планировать дальнейшее обследование пациентов с помощью высокотехнологичных методов.

Обсуждение. С целью поиска наиболее информативных клинических симптомов, определяемых рутинной диагностикой, проведен анализ историй болезни 29 больных ревматоидным артритом и 24 пациентов с серонегативными артритами, находившихся на лечении в клинике госпитальной терапии в период с 2006 по 2009 г. Средний возраст больных составлял 51,4 года, средняя длительность заболевания – 7,6 лет. Средний показатель активности заболевания составил 2,23, значения индекса DAS4 – 3,3 DAS28 – 4,9. Из 28 пациентов отрицательные значения ревматоидного фактора отмечались у 6, у 2 серонегативных пациентов не выявлялись антитела к циклическому цитруллиновому пептиду (АЦЦП). Системные проявления отмечались у 18 серопозитивных и 3 серонегативных пациентов. Наиболее частыми проявлениями у серопозитивных пациентов были лихорадка [9] и лимфаденопатия [5]. Анемия выявлена у 3 больных, еще у 3 – ревматоидные узелки и полинейропатия. У 2 пациентов документировано поражение дыхательной системы (интерстициальная болезнь легких и выпотной плеврит), у 1 – синдром Шегрена. В целом 3 и более системных проявлений имели место у 4 пациентов. У серонегативных пациентов имели место лихорадка [2], лимфаденопатия [2], амиотрофия и синдром Рейно [1]; 3 и более системных проявлений отмечалось у 1 пациента. Несмотря на то что

диагностированное поражение легких отмечалось лишь у 2 серопозитивных пациентов с высокой степенью активности заболевания, такие симптомы, как кашель, одышка, отмечались у 8 пациентов (28,6%), объективные изменения в легких (коробочный тон, жесткое дыхание) – у 20 (71%). Реже указанные симптомы наблюдались у больных ССА. Одышка, затруднение дыхания и кашель встречались у 7 (29,1%), объективные изменения в легких зарегистрированы у 11 (45,8%) пациентов (рис. 2). Обращает на себя внимание тот факт, что 10 больных РА и 4 ССА, у которых выявлялись объективные симптомы со стороны легких, не курили (рис. 3). Таким образом, примерно у половины пациентов с РА и более чем у 3 с ССА наличие симптомов не может быть объяснено ХОБЛ. Кроме того, как уже указывалось выше, пульмонологические симптомы при РА чаще отмечаются у курящих больных, что требует включения таких пациентов в диагностический поиск. Анализируя связь перечисленных симптомов с активностью заболевания, было обнаружено, что у больных РА, предъявляющих пульмонологические жалобы, по сравнению с пациентами, не имеющими симптомов поражений легких, отмечались более высокие показатели активности заболевания – 2,8 и 2,0 – и значения индекса DAS4 – 4 и 2,9 соответственно. Эти больные были старше по возрасту – 55,9 и 49,6 – и имели большую длительность заболевания – 8,6 и 7,6 лет соответственно. Та же тенденция отмечалась и у пациентов с ССА: больные, предъявляющие пульмонологические жалобы, отличались большей активностью заболевания, у 49,5% из них определялось 2 и более системных проявлений против 26,7% пациентов без жалоб. Из 12 пациентов с РА, которым производилось рентгенологическое исследование в клинике, только у 4 не было диагностировано каких-либо изменений. Изменения плевры обнаружены у 2 больных (экссудативный плеврит, плевральные шварты), у 5 – паренхиматозные изменения стороны дыхательной системы, отмечается более высокая активность заболевания, чаще диагностируются системные проявления. В связи с этим можно предположить, что неспецифические пульмонологические симптомы могут быть начальными проявлениями поражения легких в рамках РА или ССА, что требует проведения у этих пациентов углубленного обследования дыхательной системы, в том числе с применением высокотехнологичных методов. (диффузные интерстициальные изменения с субплевральным фиброзом, множественные субплевральные округлые образования в нижней доле, лимфаденопатия, субплевральный тяж в паренхиме одного из сегментов, диск-ателектаз, посттуберкулезные изменения). У одного пациента выявлены перибронхиальные изменения (подчеркнутость структуры бронхов).

Таким образом, только у 2 пациентов были выявлены достоверные признаки, позволяющие диагностировать ревматоидное поражение легких. В то же время наличие множественных очаговых образований, плевральных шварт,

лимфаденопатии и субплеврального тяжа требовали проведения дифференциальной диагностики между специфическим процессом (туберкулез), проявлениями ревматоидного артрита (в том числе последствиями криптогенной организующей пневмонии) и неспецифическими постпневмоническими изменениями (плевральные шварты). Наличие дисковидного ателектаза у больной 49 лет с высокой (3-я степень) активностью заболевания и ревматоидными узелками без признаков варикозной болезни нижних конечностей может быть обусловлено эпизодом тромбоэмболии на фоне активации эндотелия и внутрисосудистой гемокоагуляции. Из 12 пациентов ССА, у которых производилось рентгенологическое исследование, не обнаружены изменения в легких у 7 (58,3%), у 3 (25%) определялись паренхиматозные (посттуберкулезные у 2, диск-ателектазы у 1), у 1 (8,3%) – перибронхиальные изменения. Ни у одного из пациентов не были определены признаки поражения плевры. Таким образом, как при РА, так и, в меньшей степени, при ССА достаточно часто выявляются как клинические пульмонологические симптомы, так и рентгенологические изменения в паренхиме легких. При этом у пациентов, предъявляющих жалобы необходимо отметить, что при наличии рентгенологических изменений в легких (фиброзные тяжи, шварты, очаговые образования) требуется проведение дифференциальной диагностики с туберкулезным процессом, в том числе определение уровня антител к туберкулезной микобактерии. У 24,1% пациентов с РА и 18,1% больных ССА был контакт с больными туберкулезом в анамнезе и/или выявлены признаки, свидетельствующие об активации туберкулезной инфекции (посттуберкулезные изменения на рентгенограмме или положительная реакция Манту на пробу с 2ТЕ ППД-Л). С учетом приведенных ранее литературных данных о повышенном риске развития туберкулеза у больных РА (в том числе не получающих биологическую терапию), это свидетельствует о возможности развития у данных пациентов осложнений на фоне терапии биопрепаратами. Профилактический курс лечения изониазидом в противотуберкулезном диспансере по месту жительства проводился у 10% больных РА и 13,6% ССА. Ни у одного пациента не обнаружено признаки активации туберкулезной инфекции на фоне лечения инфликсимабом.

Таким образом, при правильном отборе пациентов для проведения терапии антагонистами ФНО применение биологической терапии является достаточно безопасным и не приводит к активации туберкулезной инфекции.

Использованная литература

1. Global Initiative for Chronic Obstructive Lung Disease (GOLD) // Global strategy for the diagnosis, management and prevention of chronic obstructive pulmonary disease. NHLBI/WHO Workshop report. 2001. URL: <http://goldcopd.com>.
2. Хронические обструктивные болезни легких. Федеральная программа. М., 1999. С. 15–36.
3. Чучалин А.Г., Синопальников А.И., Козлов Р.С. и др. Инфекционное обострение ХОБЛ. Практические рекомендации по диагностике, лечению и профилактике: пособие для врачей. М., 2005.
4. Зайцева О.В. Муколитическая терапия в комплексном лечении болезней органов дыхания у детей // Consilium medicum. Педиатрия. 2002. Т.
5. № 10. 5. Овчаренко С.И. Муколитические (мукоурежающие) препараты в лечении хронической обструктивной болезни легких // РМЖ. 2002. Т. 10. № 4. С.153–157.
6. Pela R., Calcagni A.M., Subiaco S. et. al. N-acetylcysteine reduces the exacerbation rate in patients with moderate to severe COPD // Respiration. 1999. Vol. 66 (6). P. 495–500.
7. Чучалин А.Г., Княжеская Н.П., Кравченко Н.Ю. Место муколитического препарата Лазолван (амброксол) в клинической практике // РМЖ. 2005. Т. 13. № 26. С. 1736–1739.
8. Княжеская Н.П., Чучалин А.Г. Обоснование выбора препарата для лечения кашлевого синдрома и заболеваний, сопровождающихся выделением мокроты // Русский медицинский журнал. 2007. Т. 15. № 18. С.1312–1316. В.И. Трофимов, Н.А. Филиппова, Т.Г. Поражения легких у больных ревматоидным артритом и серонегативными спондилоартритами
9. Мазуров В.И., Богданов А.Н. Поражения легких при диффузных болезнях соединительной ткани. СПб., 2002. 120 с.
10. Ревматология: национальное руководство / под ред. Е.Л. Насонова, В.А. Насоновой. М., 2008. 720 с.

YUQORI SPORT NATIJALARIGA ERISHISHNING FIZIOLOGIK ASOSLARI: MEDIKO-BIOLOGIK TAHLIL

*Xodjayev Boburmirro Boltayevich¹, Zokirov Vohid Zoyit o'g'li¹, Ergashova Lola
Yoqub qizi²*

Zarmed universiteti Buxoro filiali¹,

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti 438-guruh talabasi²

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot jismoniy mashqlar fiziologiyasining sport natijadorligini oshirishdagi ahamiyatini organizmning funksional moslashuv mexanizmlari nuqtai nazaridan mediko-biologik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Mashqlar fiziologiyasi umumiy fiziologiyaning ixtisoslashgan yo'nalishi sifatida o'tkir va surunkali jismoniy yuklamalarga javoban yuzaga keladigan tizimli, hujayraviy hamda metabolik o'zgarishlarni o'rganadi. Tadqiqotda zamonaviy ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish hamda kvantitativ tadqiqot usullarini birlashtirgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Empirik ma'lumotlar Buxoro shahrida mini-futbol va futbol bilan shug'ullanuvchi sportchilar o'rtasida o'tkazilgan tuzilmaviy so'rovnomalar asosida to'plandi. Olingan natijalar fiziologik bilim darajasi bilan mashg'ulot jarayoni samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, organizm organ va tizimlarining funksional imkoniyatlari hamda jismoniy yuklama ta'sirida yuzaga keladigan adaptatsion jarayonlarni chuqur anglash ilmiy asoslangan va maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi. Rejalashtirilgan va periodizatsiyalangan jismoniy yuklamalar yurakning zarb

hajmini oshiradi, tomir devorlarining elastikligini yaxshilaydi, o'pkaning ventilyatsion salohiyatini kengaytiradi, neyromushak koordinatsiyasini optimallashtiradi hamda suyak-mushak tizimini mustahkamlaydi. Ushbu moslashuv mexanizmlari birgalikda jismoniy ish qobiliyatining ortishiga va charchoqqa chidamlilikning kuchayishiga xizmat qiladi. Tadqiqotda mashg'ulot jarayonini sportchining individual fiziologik xususiyatlariga moslashtirish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Jumladan, energiya ta'minoti tizimlarining ustunligi hamda mushak tolalari tipi inobatga olingan holda yuklamani belgilash adaptatsion samarani maksimal darajada ta'minlaydi va ortiqcha yuklanish hamda jarohatlanish xavfini kamaytiradi. Olingan natijalar murabbiylar va sportchilar uchun barqaror hamda yuqori sport natijalariga erishishga yo'naltirilgan mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: sport fiziologiyasi, jismoniy yuklama, adaptatsiya, kardiorespirator tizim, mushak tolalari, sport samaradorligi.

Аннотация: Данное исследование посвящено анализу вклада физиологии физических упражнений в повышение спортивной результативности с позиций медико-биологических механизмов функциональной адаптации. Физиология упражнений как специализированное направление общей физиологии изучает системные, клеточные и метаболические реакции организма, возникающие в ответ на острые и хронические физические нагрузки. В работе использован комбинированный методологический подход, включающий систематический анализ современной научной литературы и количественные методы исследования. Эмпирические данные были получены посредством структурированных анкет, распространённых среди спортсменов по мини-футболу и футболу в Бухаре. Анализ данных позволил оценить взаимосвязь между уровнем физиологической осведомлённости и эффективностью тренировочного процесса. Результаты свидетельствуют о том, что глубокое понимание функций органов и систем, а также адаптационных изменений, вызванных физической нагрузкой, способствует разработке целенаправленных, научно обоснованных тренировочных программ. Систематические и периодизированные физические нагрузки обеспечивают увеличение ударного объёма сердца, повышение сосудистой эластичности, улучшение вентиляционной способности лёгких, оптимизацию нейромышечной координации и укрепление костно-мышечного аппарата. Указанные адаптационные механизмы в совокупности способствуют росту физической работоспособности и повышению устойчивости к утомлению. В исследовании подчёркивается необходимость индивидуализации тренировочного процесса с учётом физиологических особенностей спортсмена, включая доминирующие энергетические системы и тип мышечных волокон. Такой подход позволяет максимизировать адаптационный эффект при одновременном снижении риска перегрузки и травматизации. Полученные результаты могут служить научной

основой для тренеров и спортсменов при разработке тренировочных программ, ориентированных на достижение устойчивых и высоких спортивных результатов.

Ключевые слова: спортивная физиология, физическая нагрузка, адаптация, кардиореспираторная система, мышечные волокна, спортивная работоспособность.

Abstract: This study explores the contribution of exercise physiology to the enhancement of athletic performance from a biomedical and functional adaptation perspective. Exercise physiology, as a specialized discipline within human physiology, investigates systemic, cellular, and metabolic responses that occur in the organism during acute and chronic physical exertion. A mixed-method approach was employed, integrating a comprehensive review of contemporary scientific literature with quantitative research methods. Empirical data were obtained through structured questionnaires administered to futsal and football athletes in Bukhara. The collected data were analyzed to evaluate the relationship between physiological awareness and training effectiveness. The findings demonstrate that an in-depth understanding of organ-system function and exercise-induced adaptations facilitates the development of targeted, evidence-based training programs. Systematic and periodized physical conditioning promotes improvements in cardiac stroke volume, vascular compliance, pulmonary ventilation capacity, neuromuscular efficiency, and skeletal robustness. These adaptive mechanisms collectively contribute to enhanced physical performance and improved resistance to fatigue. The study underscores the critical importance of applying training principles that are individualized according to physiological characteristics, including energy system dominance and muscle fiber composition. Such an approach optimizes adaptive responses while minimizing the risk of overload and injury. The outcomes of this research may serve as a scientific framework for coaches and athletes in designing physiologically grounded training strategies aimed at achieving sustainable and high-level sports performance.

Keywords: sports physiology, physical load, adaptation, cardiorespiratory system, muscle fibers, athletic performance.

Kirish: Zamonaviy yuqori natijalar sporti faqat texnik va taktik ko'nikmalarni takomillashtirish bilangina cheklanmaydi, balki organizmning yuqori darajadagi jismoniy yuklamalarga moslashuvini ta'minlovchi biologik mexanizmlarni chuqur anglashni ham talab etadi. Raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mashg'ulot jarayonini fiziologik jihatdan optimallashtirish sport muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Sport fiziologiyasi umumiy fiziologiyaning muhim bo'limi sifatida mushak faoliyati ta'sirida inson organizmi organ va tizimlarida yuzaga keladigan funksional o'zgarishlarni o'rganadi [3,7,9]. Bu yo'nalishda gomeostazni boshqarish mexanizmlari, energiya almashinuvi jarayonlari, neyrohumoral moslashuv reaksiyalari hamda to'qimalardagi strukturaviy qayta qurilishlar alohida ahamiyat kasb etadi [1,2,8]. Jismoniy yuklama nazorat qilinadigan biologik stress omili sifatida qaraladi. Yuklama to'g'ri dozalanganda

u organizmda foydali adaptatsion o'zgarishlarni shakllantiradi. Aksincha, me'yoridan ortiq yoki noto'g'ri rejalashtirilgan yuklamalar kompensator mexanizmlarning buzilishiga, ortiqcha charchash (peretrenirovka) sindromiga va turli funksional disbalanslarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ilmiy asoslangan mashg'ulot tizimi ortiqcha yuklama, bosqichma-bosqich oshirish (progressiya), spetsifiklik hamda individual yondashuv tamoyillariga tayanishi zarur [4,5,6]. Aynan ushbu prinsiplarga rioya etish sportchilarda barqaror va samarali moslashuv jarayonlarini ta'minlaydi.

Materiallar va metodlar: Tadqiqot kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Birinchi bosqichda jismoniy yuklamalarga javoban yurak-qon tomir, nafas olish va mushak tizimlarida yuzaga keladigan adaptatsion jarayonlarga oid zamonaviy ilmiy manbalar tizimli ravishda tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda o'yin sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilar o'rtasida kvantitativ tadqiqot o'tkazildi. Ma'lumotlar to'plash jarayonida so'rovnoma usuli, subyektiv yuklama baholash shkalasi (RPE), yurak qisqarishlar chastotasini monitoring qilish hamda turli mashg'ulot dasturlarini taqqoslash metodlari qo'llanildi. Olingan natijalar statistik jihatdan tavsifiy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, o'rtacha qiymatlar va variatsion ko'rsatkichlar aniqlandi. Tadqiqot davomida bioetika tamoyillariga rioya qilindi, ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiy saqlandi va faqat ilmiy maqsadlarda foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, muntazam va maqsadga yo'naltirilgan jismoniy yuklamalar sportchilar organizmining funksional holatiga ko'p darajali va kompleks ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulot jarayonining tizimli tashkil etilishi natijasida yurak-qon tomir, nafas olish hamda mushak tizimlarida sezilarli adaptatsion o'zgarishlar kuzatildi.

Yurak-qon tomir tizimining moslashuvi: Muntazam mashg'ulotlar yurak qisqarishlar chastotasining tinch holatda kamayishi, yurakning zarb hajmining ortishi hamda miokardning qisqarish kuchining kuchayishi bilan tavsiflandi. Bunday o'zgarishlar "fiziologik sport yuragi" deb ataluvchi holatning shakllanishini ko'rsatadi, ya'ni yurakning nasoslik funksiyasi energiya sarfi nisbatan kam bo'lgan sharoitda yuqori samaradorlikka erishadi.

Yuklamaning ilmiy asoslangan va me'yoriy dozalarda qo'llanilishi miokard hamda skelet mushaklarida kapillyar tarmoqlanishning ortishiga olib keladi. Natijada to'qimalarning qon bilan ta'minlanishi yaxshilanadi va kislorod yetkazib berish samaradorligi oshadi. Ushbu fiziologik moslashuvlar maksimal kislorod iste'moli ($VO_2\max$) ko'rsatkichining ortishiga hamda umumiy aerob quvvatning yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Nafas olish tizimidagi o'zgarishlar: O'tkazilgan tahlillar natijasida o'pkaning hayotiy sig'imi ortgani hamda ventilyatsiya-perfuziya nisbatlarining yaxshilangani aniqlandi. O'pka to'qimalarining elastikligi oshishi va ilgari faol ishtirok etmagan alveolalarning ishga tushishi gaz almashinuvi jarayonining samaradorligini kuchaytiradi.

Yuklama sinovlari davomida tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lgan sportchilarda submaksimal yuklamalar sharoitida nafas olish jarayonining tejamkorligi kuzatildi. Bu holat nafas olish tizimida barqaror adaptatsion mexanizmlar shakllanganligini tasdiqlaydi.

Mushak tizimi va energetik almashinuv: Tadqiqot natijalarida mushak tolalarining gipertrofiyasi belgilari aniqlanib, bu asosan miofibrillalarning ko'ndalang kesim yuzasi kengayishi hisobiga yuzaga kelishi qayd etildi. Aerob xarakterdagi mashg'ulotlarni bajaruvchi sportchilarda mitoxondriya zichligining ortishi hamda oksidlovchi fermentlar — jumladan, sitrat-sintaza va suksinat-degidrogenaza faolligining kuchayishi kuzatildi.

Anaerob yo'nalishdagi yuklamalar esa glikolitik fermentlar faolligining oshishi va kreatinfosfat zaxiralarining ko'payishi bilan tavsiflandi. Ushbu o'zgarishlar qisqa muddatli yuqori quvvatni ta'minlash imkoniyatini kengaytiradi va tezkor kuch ko'rsatkichlarining ortishiga xizmat qiladi.

Suyak-bo'g'im tizimi: Muntazam mexanik yuklama suyak to'qimasida qayta tuzilish (remodellashtirish) jarayonlarini faollashtirib, uning mineral zichligini oshiradi. Shu bilan birga, bog'lovchi apparat mustahkamlanishi va bo'g'im tog'ay to'qimasining bosimga chidamliligi ortishi kuzatildi. Bu o'zgarishlar tayanch-harakat tizimining barqarorligini ta'minlab, jarohatlanish xavfini kamaytiradi.

Termik moslashuv: Sportchilarda samarali termoregulyatsiya mexanizmlari shakllanganligi aniqlandi. Jumladan, ter ajralish tezligining ortishi, periferik tomirlarning kengayishi (vazodilatatsiya) yaxshilanishi hamda yuqori harorat sharoitida yurak-qon tomir tizimiga tushadigan issiqlik yuklamasining kamayishi kuzatildi. Bu organizmning issiq muhitga moslashuv qobiliyatini oshiradi.

Muhokama: Olingan natijalar jismoniy yuklama nazorat qilinadigan biologik stress omili sifatida organizmda ko'p bosqichli moslashuv reaksiyalarini faollashtirishini tasdiqlaydi. Ushbu jarayon hujayra, to'qima va tizim darajasida sodir bo'ladigan murakkab adaptatsion mexanizmlar bilan izohlanadi. Moslashuvning asosiy mexanizmlaridan biri gomeostazni saqlash va keyingi allostatik qayta tuzilish hisoblanadi. Dozalangan jismoniy yuklama ta'sirida AMPK, PGC-1 α va mTOR kabi signal yo'llari faollashadi, natijada mitoxondriogenez kuchayadi, oqsil sintezi ortadi va energiya almashinuvi jarayonlari takomillashadi. Spetsifiklik prinsipi muhim ahamiyatga ega: aerob yuklamalar asosan oksidlovchi (I tip) mushak tolalarini rivojlantirsa, anaerob mashg'ulotlar tez qisqaruvchi glikolitik (II tip) tolalarning faolligini oshiradi. Shuning uchun mashg'ulot dasturi sportchining ustun mushak tolalari tipi va sport ixtisosligiga mos ravishda tuzilishi zarur. Yuklama intensivligi qondagi laktat to'planish chegarasi bilan bevosita bog'liq. Individual anaerob ostonadan oshib ketish, ayniqsa yetarli tiklanishsiz, ortiqcha mashg'ulot sindromi va immun tizim faoliyatining susayishiga olib kelishi mumkin. Mashg'ulotning davomiyligi va chastotasi sportchining funksional holati asosida belgilanadi. Haddan tashqari tez-tez kuch mashqlari bajarilishi ortopedik

jarohatlar xavfini oshiradi, holbuki oʻrtacha va rejalashtirilgan periodizatsiya optimal superkompensatsiyani taʼminlaydi. Shunday qilib, sport ish qobiliyati kardiorespirator, neyromushak va metabolik moslashuv jarayonlarining oʻzaro integratsiyasi natijasidir. Fiziologik asoslangan nazorat va monitoring tizimisiz barqaror yuqori natijalarga erishish qiyin.

Xulosa: Oʻtkazilgan mediko-biologik tahlil yuqori sport natijalariga erishish mashgʻulot yuklamasini oqilona boshqarish va sport fiziologiyasi bilimlarini amaliyotga chuqur integratsiya qilish bilan bevosita bogʻliqligini tasdiqlaydi. Yurak-qon tomir, nafas olish, mushak hamda tayanch-harakat tizimlaridagi adaptatsion oʻzgarishlar ortiqcha yuklama, spetsifiklik va individual yondashuv tamoyillariga amal qilinganda samarali shakllanadi. Dozalangan va tizimli jismoniy yuklama aerob quvvatning ortishiga, metabolik samaradorlikning yaxshilanishiga, neyromushak koordinatsiyasining optimallashtirishiga hamda charchoqqa chidamlilikning oshishiga xizmat qiladi. Yuklamani notoʻgʻri belgilash esa moslashuv jarayonining buzilishiga, ortiqcha mashgʻulot sindromiga va funksional disbalanslarga olib kelishi mumkin. Shu bois sportchilar tayyorgarligida fiziologik monitoring (yurak qisqarishlar chastotasi, VO_{2max} , laktat ostonasi, subyektiv yuklama bahosi) majburiy element sifatida qoʻllanilishi lozim. Umuman olganda, sport fiziologiyasi samarali va xavfsiz tayyorgarlik tizimini shakllantirishda fundamental ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi hamda sport ish qobiliyatining barqaror oʻsishini taʼminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Bishop D.J., Granata C., Eynon N. Can we optimize training adaptation? // *Sports Medicine*. – 2021. – Vol. 51(6). – P. 1119–1137.
2. Egan B., Zierath J.R. Exercise metabolism and the molecular regulation of skeletal muscle adaptation // *Cell Metabolism*. – 2022. – Vol. 34(2). – P. 213–228.
3. Hawley J.A., Hargreaves M., Joyner M.J., Zierath J.R. Integrative biology of exercise // *Cell*. – 2021. – Vol. 184(12). – P. 3036–3050.
4. Joyner M.J., Lundby C. Concepts about VO_{2max} and endurance performance // *Journal of Physiology*. – 2021. – Vol. 599(1). – P. 3–12.
5. Lundby C., Montero D., Joyner M. Biology of VO_{2max} : looking under the physiology lamp post // *Physiological Reviews*. – 2022. – Vol. 102(3). – P. 1037–1080.
6. MacInnis M.J., Gibala M.J. Physiological adaptations to interval training and the role of exercise intensity // *Journal of Physiology*. – 2022. – Vol. 600(2). – P. 315–330.
7. Mujika I. Periodization and training adaptation in endurance sports // *Frontiers in Physiology*. – 2023. – Vol. 14. – Article 1182294.
8. Seiler S. What is best practice for training intensity distribution in endurance athletes? // *International Journal of Sports Physiology and Performance*. – 2021. – Vol. 16(3). – P. 355–363.
9. Tschakert G., Hofmann P. High-intensity interval training: physiological mechanisms and practical implications // *Sports Medicine*. – 2020. – Vol. 50(2). – P. 259–279.
10. Granata C., Jamnick N.A., Bishop D.J. Skeletal muscle adaptations to endurance training // *Acta Physiologica*. – 2021. – Vol. 232(2). – e13662.
11. Jones A.M., Vanhatalo A. The “critical power” concept and endurance performance // *European Journal of Sport Science*. – 2022. – Vol. 22(5). – P. 701–715.
12. Kraemer W.J., Ratamess N.A. Fundamentals of resistance training: progression and adaptation // *Sports Medicine*. – 2020. – Vol. 50(4). – P. 601–612.
13. Sawka M.N., Leon L.R. Human thermoregulation and exercise performance // *Comprehensive Physiology*. – 2021. – Vol. 11(3). – P. 1733–1763.
14. Millet G.P., Martin V. Monitoring training load and fatigue in athletes // *Sports Medicine*. – 2021. – Vol. 51(5). – P. 825–843.

TALABALAR SOG‘LIGIDA SUV ISTE‘MOLINING AHAMIYATI

Bazarova Jesika Xeriyevna

Oliy hamshiralik ishi yo‘nalishi talabasi

Zarmed universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar orasida suv iste‘moli darajasi va uning sog‘liqqa ta‘siri o‘rganildi. Tadqiqotda 100 nafar talaba ishtirok etdi. Natijalarga ko‘ra, qatnashuvchilarning faqatgina 10 foizi yetarli miqdorda suv iste‘mol qilishi aniqlandi. 75 foiz talabalar suv bilan birga gazli ichimliklar va kofe iste‘mol qilishi, 15 foiz talabalar esa deyarli suv ichmasligi kuzatildi. Olingan ma‘lumotlar suv iste‘moli madaniyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: suv, sog‘lom turmush tarzi, talabalar, suvsizlanish.

Аннотация. В данной статье изучен уровень потребления воды среди студентов и его влияние на состояние здоровья. В исследовании приняли участие 100 студентов. Согласно полученным результатам, установлено, что лишь 10% участников употребляют достаточное количество воды. У 75% студентов отмечено потребление газированных напитков и кофе наряду с водой, тогда как 15% студентов практически не употребляют воду. Полученные данные свидетельствуют о необходимости формирования культуры рационального потребления воды.

Ключевые слова: вода, здоровый образ жизни, студенты, обезвоживание.

Abstract. This article examines the level of water consumption among students and its impact on health status. The study involved 100 students. The results showed that only 10% of participants consume an adequate amount of water. Among the respondents, 75% consume carbonated beverages and coffee along with water, while 15% of students almost do not drink water at all. The obtained data indicate the need to promote and develop a culture of rational water consumption.

Keywords: water, healthy lifestyle, students, dehydration.

Kirish. Inson organizmi uchun suv hayotiy muhim modda hisoblanadi. Tana massasining o‘rtacha 60–70 foizi suvdan tashkil topgan bo‘lib, u barcha fiziologik jarayonlarda ishtirok etadi. Suv moddalar almashinuvi, hujayralar faoliyati, qon aylanishi, ovqat hazm qilish hamda tana haroratini me‘yorda ushlab turishda muhim rol o‘ynaydi [1,2].

Yetarli miqdorda suv iste‘mol qilinmasligi organizmda suvsizlanishga olib keladi. Bu holat charchoq, bosh og‘rig‘i, diqqatning pasayishi, buyrak faoliyatining buzilishi kabi muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar orasida gazli ichimliklar, energetik ichimliklar va kofening ko‘p iste‘mol qilinishi suv ichishga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi [4].

So‘nggi yillarda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan e‘tibor ortib borayotgan bo‘lsa-da, suv iste‘moli masalasi hali ham yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababli, talabalar orasida suv ichish odatlarini tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi [3,5].

Tadqiqotning maqsadi: Tadqiqotning maqsadi talabalar orasida yetarli miqdorda suv iste'mol qilish darajasini aniqlash va suvsizlanishning organizmga ta'sirini o'rganishdan iborat.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot 2025-yil oktabr va noyabr oylarida 18-21 yoshlar oralig'ida bo'lgan universitet talabalari bilan anonim so'ro'vnoma asosida o'tkazildi.

So'rovnomada quyidagilar savollar so'ralgan edi:

Kun davomida iste'mol qilinadigan suv miqdori

Qancha vaqt oralig'ida suv iste'mol qilinishi

Gazli va energetik ichimliklar, kofe iste'moli

Sog'liq bilan bog'liq shikoyatlar

Yig'ilgan ma'lumotlar statistik usulda tahlil qilinib, foiz ko'rsatkichlari asosida umumlashtirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari quyidagicha bo'ldi:

- 10 nafar talaba (10%) kuniga yetarli miqdorda suv iste'mol qiladi;
- 75 nafar talaba (75%) suv bilan bir qatorda gazli ichimliklar, kofe va boshqa ichimliklarni iste'mol qiladi;
- 15 nafar talaba (15%) deyarli suv ichmaydi.

Shuningdek, suvni kam iste'mol qiluvchi talabalar orasida tez charchash, bosh og'rig'i, og'iz va lab atroflarining qurishi, diqqatning pastligi kabi belgilar ko'proq uchrashi aniqlandi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalar orasida suv iste'moli qoniqarli darajada emas.

Olingan natijalar yoshlar orasida sog'lom ichimlik tanlash madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Gazli ichimliklar va kofening ko'p iste'mol qilinishi organizmdan suvning tez chiqib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ba'zi ilmiy tadqiqotlarda ham suv tanqisligi diqqatning pasayishi, immunitetning susayishi va metabolik buzilishlarga olib kelishi qayd etilgan. Talabalar orasida suv ichishga vaqt ajratmaslik, suv o'rniga shirin ichimliklarni tanlash bu muammoning asosiy sabablaridan biridir.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar orasida suvni yetarli miqdorda iste'mol qilish darajasi past ekanligi aniqlandi. Qatnashuvchilarning faqat 10 foizi me'yoriy darajada suv ichadi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun talabalar orasida suv iste'molining ahamiyati haqida tushuntirish ishlarini kuchaytirish, targ'ibot tadbirlarini tashkil etish va sog'lom ichimliklarni ommalashtirish zarur.

Adabiyotlar

- 1.wikipedia.org. "Suv odam hayotida"
- 2.Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO). Guidelines on Drinking-water Quality. Geneva, 2022.
- 3.Popkin B.M., D'Anci K.E., Rosenberg I.H. Water, hydration, and health. *Nutrition Reviews*, 2010; 68(8): 439–458.
- 4.Benton D., Young H.A. Do small differences in hydration status affect mood and mental performance? *Nutrition Reviews*, 2015; 73(S2): 83–96.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar. Toshkent, 2021.

JUGLANS REGIA L. ASOSIDA QURUQ EKSTRAKT OLISH TEXNOLOGIYASI

Turayeva Sadoqat Solijon qizi¹
Sayfullayeva Xabiba Abdiqodirovna²

Samarqand sh. Zarmed Universiteti Tibbiy kimyo va farmakologiya kafedrası
assistenti¹

Samarqand sh. Zarmed Universiteti 203-guruh farmatsiya fakulteti talabasi²

Annotatsiya. Qandli diabet moddalar almashinuvi buzulishi natijasida vujudga keladigan kasallik bo'lib, dunyo bo'ylab eng keng tarqalgan surunkali kasallik. Jahon sog'liqni saqlash ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'yicha taxminan 422 million kishi qandli diabet bilan kasallanadi va bu ko'rsatkich tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Kalit so'zlar. Qandli diabet, *Juglans regia*, yong'oq barglari, etil spirti, tozalangan suv, qondagi glyukoza.

Аннотация. Сахарный диабет — это заболевание, возникающее в результате нарушения обмена веществ и являющееся одним из наиболее распространённых хронических заболеваний в мире. По данным Всемирной организации здравоохранения, во всём мире приблизительно 422 миллиона человек страдают сахарным диабетом, и данный показатель продолжает стремительно расти.

Ключевые слова: сахарный диабет, *Juglans regia*, листья грецкого ореха, этиловый спирт, очищенная вода, глюкоза крови.

Abstract. Diabetes mellitus is a metabolic disorder that develops as a result of impaired metabolism and is one of the most widespread chronic diseases worldwide. According to the World Health Organization, approximately 422 million people globally are affected by diabetes mellitus, and this number continues to increase rapidly.

Keywords: diabetes mellitus, *Juglans regia*, walnut leaves, ethyl alcohol, purified water, blood glucose.

Kirish. Qandli diabet rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham Sog'liqni saqlashning asosiy muammosi hisoblanadi. Dunyoda o'limga olib keladigan asoratlarni hisobga oladigan bo'lsak uchinchi o'rinni, o'lim kuzatilgan holat bo'yicha yettinchi o'rinda turadi [1].

Qandli diabetda ko'pincha parhez usullari, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish va dori-darmonlardan foydalanish nazarda tutiladi. Biroq, bemorlarning

aksariyati kimyoviy dori vositalarini qo'llashni rad etadi va ba'zida ular yetarli darajada ta'sir ham qilmaydi. Bir nechta dori-darmonlardan foydalanishga qaramay, kasallikni nazorat qilish juda qiyin [2].

Mavjud diabetga qarshi dorilar ko'pincha diabet bilan og'rigan bemorlarda yurak-qon tomirlarga xavf tug'diradi, ularning ba'zilar ijobiy, ba'zilar salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda tadqiqotchilar maxsus davolanish uchun dorivor o'simliklardan foydalanishga keng e'tibor qaratmoqda. *Juglans regia* L. (*J. regia*) barglari an'anaviy tibbiyotda mikroblarga qarshi, antigelmint, diabetga, yallig'lanishga, antioksidant vosita sifatida ishlatilgan. U 3 turni o'z ichiga oladi: *J. nigra*, *J. cinerea* va *J. regia*.

Bu farmakologik xususiyatlar polifenol birikmalar, flavonoidlar kabi kimyoviy moddalarga bog'liqligi o'rganilgan [3].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, polifenollar bir nechta klinik tadqiqotlarda gipertoniya, ateroskleroz kabi yurak-qon tomir kasalliklari va diabet bilan bog'liq asoratlarni bartaraf etishga qaratilgan ma'lumotlar o'rganilgan. Flavonoidlar va polifenollar o'simlik turiga qarab turlicha bo'ladi.

Flavonoidlar guruhi ko'pincha antioksidantlik xususiyatini namoyon qiladi [4].

Ba'zi tadqiqotlarda diabetga qarshi ta'siri *J. regia* barglaridan olingan ekstrakt yordamida kalamushlarda o'tkazilgan klinik oldi tadqiqotlarda o'rganilgan. Klinik tadqiqotlar esa *J. regia* barglari gidroalkogolli ekstrakti yordamida giperglikemiya va 2-tur qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda o'rganilgan. [5].

Tadqiqotning maqsadi. Grek yong'og'i (*Juglans regia* L.) asosida quruq ekstrakt texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari va usullari: Ekstrakt olish uchun standart uslublar va farmakopeyaviy usullardan foydalanilgan.

Natija. Dorivor o'simliklardan suyuq ekstrakt olishda ajratuvchi kontsentratsiyasini ahamiyati. Ajratma olish jarayonida ajratuvchi muhim ahamiyatga ega. Ajratuvchi xom ashyodan asosiy ta'sir qiluvchi moddani maksimal miqdorda, yot moddalarni minimal miqdorda ajralib chiqishni ta'minlashi lozim. O'simlik xom ashyosini yaxshi namlash, hujayra devori orqali yaxshi shimilishi darkor [6].

Ekstraktsiya jarayoni ko'pgina omillarga asoslangan holda olib borilishi kerak. Har xil kontsentratsiyada, o'simlik xarakteri, maydalik darajasi, harorat, ekstraktsiya davomiyligi, ajratuvchi tabiati va boshqalar.

Xom ashyoni maydalik darajasi ajratma olish tezligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xom ashyo qanchalik mayda bo'lsa, uni sirti ko'payadi, ajratuvchi bilan muloqoti yaxshilanadi va biofaol moddalarni suyuqlikka o'tish jarayoni tezlashadi. Lekin xom ashyo qanchalik mayda bo'lsa, ajratuvchiga shunchalik ko'p yot moddalar o'tadi va olingan ajratma loyqalanadi.

DF XIV talabiga muvofiq spirt suvli ajratmalarni hammasi tiniq bo'lishi kerak. Odatda korxonalarda xom ashyo 3-8mm oralig'ida maydalanadi. Bunda olingan ajratma tiniqligi bo'yicha talab darajasida bo'ladi.

Shularni hisobga olib, biz diabetga qarshi, antiseptik ta'sirga ega o'simlik xom ashyolarni 1mm; 3mm; 5mm; 7mm maydalik darajasigacha maydalab, fraktsiyalarga ajratdik. Fraktsiyalardan 20%, 40%, 70% li etil spirt yordamida ajratma olindi. Olingan suyuq ekstrakt tashqi ko'rinishi quruq qoldiq bo'yicha baholandi. Natijalar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Xom ashyoning maydalik darajasi	Etil spirti konsentratsiyasi, %		
	20	40	70
	Ajratmaning tashqi ko'rinishi, quruq qoldiq foizda (%)		
1-3mm	To'q jigarrangli tiniq	Jigarrangli tiniq	To'q qo'ng'ir yashil rangli tiniq
	2,6	2,1	1,8
3-5mm	Jigarrangli tiniq	Jigarrangli tiniq	Qo'ng'ir yashil rangli tiniq
	2,4	2,0	1,7
5 – 7mm	Tiniq och jigarrangli	Och jigarrangli tiniq	Qo'ng'ir yashil rangli tiniq
	2,0	1,8	1,6

Olingan ajratmalarni tiniqligiga asoslangan holda va quruq qoldiq miqdori bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra o'simlik xom ashyoni maydalik darajasini 1-3mm maqsadga muvofiq deb topildi. Olingan ajratma tashqi ko'rinishi bo'yicha tiniq va ta'sir etuvchi modda yuqori darajada ajralib chiqdi. Maydalik darajasi 3-5 mm, 5-7mm bo'lganda olingan ekstraktimiz quruq qoldiq bo'yicha tahlil qilganimizda son ko'rsatkichlari bo'yicha past natija berdi.

Ajratma olish usullarini tanlash. Tadqiqotlarda bir nechta usullardan foydalanib, perkolyatsiya, reperkolyatsiya va matseratsiya – sirkulyatsiya usullarida suv, 40%, 70% larda ajratmalar olindi. Olingan ajratmalarni sifat ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil o'tkazildi. Tahlillar natijasida matseratsiya – sirkulyatsiya usulida 20% etil spirtida olingan ajratmaning tashqi ko'rinishi, quruq qoldiq, og'ir metallar miqdori va spirt kontsentratsiyasi bo'yicha ijobiy natijalar olindi. Perkolyatsiya va reperkolyatsiya usullarida va matseratsiya -sirkulyatsiya usulidagi 40-70 % li ajratmalar sifat ko'rsatkichlari bo'yicha javob bermadi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, o'simlik xom ashyosi maydalik darajasini 1-3mm va ajratma olish usuli matseratsiya -

sirkulyatsiya va 20% li etil spirtini tanlab olindi. Olingan tahlil natijalari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval
Ajratma olish usuli va ajratuvchi konsentratsiyalarini tanlash natijalari

Ekstrakt olish usullari	Aniqlangan son ko'rsatkichlari %			
	Tashqi ko'rinishi	Quruq qoldiq miqdori	Og'ir metallar miqdori	Spiirt quvvati %
Perkolyatsiya	Tiniq to'q jigar rangli o'ziga xos mazaga ega suyuqlik	2,4	0,01	16,5
20%		2,0	0,01	34,5
40%		1,6	0,01	61,5
70%				
Reperkolyatsiya	Tiniq to'q jigar rangli o'ziga xos mazaga ega suyuqlik	2,3	0,01	16,5
20%		2,2	0,01	34,0
40%		1,8	0,01	62,0
70%				
Matseratsiya-sirkulyatsiya	Tiniq to'q jigar rangli o'ziga xos mazaga ega suyuqlik	2,6	0,01	16,5
20%		2,1	0,01	34,3
40%		1,6	0,01	61,5
70%				

Ajratmani olish matseratsiya-sirkulyatsiya usulida amalga oshirildi. 1-3mm maydalikda maydalangan xom ashyodan 100 g tortib olinib oldindan tayyorlangan perkolyatorga solindi, filtr qog'ozi qo'yilib ustidan farfor bo'lakchalari bilan yopildi va perkolyator devori bo'ylab ajratuvchi "oynasimon yuza" hosil bo'lguncha quyildi va 30 daqiqaga qoldirildi. Ajratma quyib olindi, quyib olingan ajratma perkolyatorga qaytadan quyib "oynasimon yuza" hosil bo'lguncha ajratuvchi quyildi, har 6 soatda ajratuvchi qayta-qayta so'rg'ich bilan so'rib olinib, yana yuqoridagi idishga qaytarib solindi. Bu jarayon 6 kun davomida amalga oshirildi. So'ngra ajratma quyib olinib 100 S dan yuqori bo'lmagan haroratda 2 kunga qoldirildi, tindirildi va suzildi.

Tayyor suyuq ekstrakt DF XIV talablariga muvofiq 2.3-bobda keltirilgan tahlil usullari asosida quyidagi son ko'rsatkichlari aniqlandi: tasvirlanishi, rN, og'ir metallar, quruq qoldiq, zichlik, spirt miqdori. Tashqi ko'rinishi: Tiniq to'q jigar rang tusdagi o'ziga xos hidli suyuqlik.

pH ko'rsatkichi: $pH = 5,82 \pm 0,02$. Potensiometrik usul.

Quruq qoldiq:

a) bo'sh byuks massasi-30.0397g;

b) byuksning 5 ml suyuq ekstrakt bilan massasi -34,9535g;

v) byuksning quruq qoldiq bilan massasi -30,9486;

g) $30,9486 - 30,0397 = 0,9089$

$$\frac{34,9535\text{r}}{0,9089\text{r}} \cdot 100\% = X$$

$$X=2,599\%$$

3-jadval

**Son ko'rsatkichlari bo'yicha quruq qoldiqni aniqlash natijalari
(og'irlik, g)**

/P	Mahsu lot og'irligi	Byu ks og'irligi	Byuks, quruq qoldiq	Quruq qoldiq gr	Qur uq qoldiq (%)	Metrologi k tahlili
	4,9138	30, 0397	30,948 6	0,9089	2,60 0	$X_{cp} = 2,5962$ $S^2 = 0.001$ $S = 0,032$ $\Delta \bar{X} = 0,198$ $e_{cp} = 0,76$
	4,9012	30, 0396	30,945 0	0,9054	2,59 0	
	4,9184	30. 0397	30,9530	0,9133	2,61 2	
	4,9078	30.0397	30,941 2	0,9015	2,57 9	
	4,9001	30. 0395	30,948 4	0,9089	2,60 0	

Zichligi: Suyuq ekstrakt zichligini quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\rho_{20} = \frac{(m_2 - m) \cdot 0.99703}{m_1 - m} + 0.0012$$

Bunda; m – bo'sh piknometr massasi (g);

m₁ – piknometrning tozalangan suv bilan massasi (g);

m₂ – tekshiriluvchi suyuq ekstrakt bilan piknometr massasi (g);

0.99703 – 20°C dagi suvning zichligi;

0.0012 – 20°C dagi havoning zichligi.

$$m_{20,3505}$$

$$m_1 = 40,3311$$

$$\rho = 1,22 \text{ g/cm}^3$$

$$m_2 = 44,7682$$

Spirit miqdori: Haydash usuli bilan aniqlandi, 1-alkogolometrik jadval asosida 16,5% ni tashkil qildi.

Og'ir metallar miqdori – 0,01%dan kam ko'rsatkichni tashkil qildi.

Yot moddalardan tozalash. Sanoat miqyosida perkolyatsiya, reperkolyatsiya, matseratsiya-sirkulyatsiya, girdob va tezashtirilgan usullarda ekstrakt olinadi. Ekstrakt olish usullari bir qancha afzalliklarga ega bo'lishi, ya'ni ko'p joyni band qilmasligi, kam ajratuvchi sarflanib biofaol modda ko'p ajralib chiqishi lozim. Ekstraktsiya olishda perkolyatsiya, reperkolyatsiya va matseratsiya-sirkulyatsiya usullaridan foydalanib turli quvvatli spirtidan foydalanib ajratmalar olindi. Olingan ajratmalar tashqi ko'rinishi , quruq qoldiq miqdori, og'ir metallar miqdori va spirit quvvati bo'yicha tahlil qilindi.

Shuni aytib o'tish kerakki, bu preparatni ishlab chiqarishda O'zbekiston Respublikasida ruxsat etilgan dorivor o'simliklar xom ashyolaridan foydalaniladi.

Xulosa. Tahlil natijalariga ko'ra 20% etil spirtida matseratsiya-sirkulyatsiya usulida olingan ekstrakt maqsadga muvofiq deb olindi.

Foyalanilgan adabiyotlar

1. Mathers CD, Loncar D. Projections of global mortality and burden of disease from 2002 to 2030. PLoS Med. 2006;3(11):e442
2. Schmieder RE, Tschope D, Koch C, Ouarrak T, Gitt AK. Individualised treatment targets in patients with type-2 diabetes and hypertension. Cardiovasc Diabetol. 2018;17(1):18.
3. Bahramsoltani R, Ebrahimi F, Farzaei MH, Baratpournoghaddam A, Ahmadi P, Rostamiasrabadi P, Rasouli Amirabadi AH, Rahimi R. Dietary polyphenols for atherosclerosis: a comprehensive review and future perspectives. Crit Rev Food Sci Nutr. 2017;11:1–19.
4. Naqinezhad A, Nabavi SM, Nabavi SF, Ebrahimzadeh MA. Antioxidant and antihemolytic activities of flavonoid rich fractions of *Artemisia tschernieviana* Besser. Eur Rev Med Pharmacol Sci. 2012;16(Suppl 3):88–94
5. Jelodar G, Mohsen M, Shahram S. Effect of walnut leaf, coriander and pomegranate on blood glucose and histopathology of pancreas of alloxan induced diabetic rats. Afr J Tradit Complement Altern Med. 2007;4(3):299–305
6. Муравьев И.А. Технология лекарств. I том. М.: Медицина. 1980.

Muharrir: F.Usmonov
Texnik muharrir: B.Ashurov
Musahhih: M.Kuziyeva
Sahifalovchi: X.Axrоров

Nashriyot litsenziyasi №040075. 23.09.2022. Original maketidan bosishga ruxsat etildi: 20.04.2026. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 8,5. Adadi 100. Buyurtma № 539.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro shahri Hofiz Tanish
Buxoriy ko‘chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11
Bahosi kelishilgan narxda.



“BUKHARA HAMD PRINT” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 344-uy